12. Алиева М.Т. Развития индустрии туризма // Международные Плехановские чтения, 19 апреля РЭА. им.Г. В. Плеханова. – М., 2006.
13. Алиева М.Т. Тенденции развития туризма в Узбекистане // Пятнадцатые международные Плехановские чтения, 27 апреля РЭА.им. Г.В.Плеханова. – М., 2002.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Под ред. А. Мадвалиева и др. – В 5-и т. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2006-2008. – I – 679 с.; II – 671 с.; III – 687 с.; IV – 606 с.; V – 591 с.
15. Oxford Dictionary of English. – Oxford: Oxford University Press, 2003.
16. Longman dictionary. – <http://global.longmandictionaries.com/>
17. www.uzbekturizm.uz
18. [hppt://en.wikipedia.org](http://en.wikipedia.org).
19. [hppts://www.socialtables.com](http://www.socialtables.com)

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Нартаева Мухайё Бахтиёровна
Ўзбекистон Миллий
Университети тадқиқотчиси
alialiev_1981@mail.ru

СТОМАТОЛОГИЯГА ОИД ТЕРМИНЛАРНИНГ ПРАГМАЛИНГВИСТИК АСПЕКТИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-2-89>

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада стоматологик терминларнинг лингвопрагматик хусусиятлари ҳақида сўз боради. Прагмалингвистика соҳаси инсон нутқий фаолиятида тилни восита сифатида қўллаши билан боғлиқ бўлган ҳолатларни ўрганади. Барча соҳалардан ва уларда қўлланиладиган ёки англашиладиган маънолардан воқиф бўлган ҳолдагина, прагматик маънони аниқлаш мумкин. Прагматик маънони англашга хизмат қилувчи воситалар сўзловчи нутқининг ўзига хос тузилишга эга эканлигини кўрсатади. Мақолада стоматологияга оид терминларнинг таснифи прагмалингвистикага ёндашиб таҳлил қилинган.

Таянч сўзлар: прагматика, тилшунослик, стоматологик терминлар, прагматик маъно, мулоқот, семиотика, контекст, адресант, тасниф, коммуникатив вазият, стилистик табиат.

Нартаева Мухайё Бахтиёровна
Соискатель Национального
Университета Узбекистана
alialiev_1981@mail.ru

ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

АННОТАЦИЯ

В статье обсуждаются лингвопрагматические особенности стоматологических терминов. Область прагмалингвистики изучает ситуации, связанные с использованием языка как инструмента в речевой деятельности человека. Прагматическое значение может быть определено только в том случае, если человек осознает все области и значения, применяемые или понятые в них. Инструменты, которые служат для понимания прагматического значения, показывают, что говорящий обладает уникальной структурой речи. В статье анализируется классификация стоматологических терминов с позиции прагмалингвистики.

Ключевые слова: прагматика, лингвистика, стоматологические термины, прагматическое значение, коммуникация, семиотика, контекст, адресат, классификация, коммуникативная ситуация, стилистический характер.

Nartaeva Mukhayyo Bakhtiyorovna
Researcher of National university of Uzbekistan
alialiev_1981@mail.ru

PRAGMALINGUISTIC ASPECT OF DENTAL TERMINOLOGY

ANNOTATION

This article discusses the lingvopragmatic features of dental terms. The field of pragmalinguistics studies situations related to the use of language as a tool in human speech activity. Pragmatic meaning can only be defined if one is aware of all areas and the meanings applied or understood in them. The tools that serve to understand pragmatic meaning show that the speaker has a unique structure of speech. The article analyzes the classification of dental terms with an approach to pragmalinguistics.

Key words: pragmatics, linguistics, dental terms, pragmatic meaning, communication, semiotics, context, addressee, classification, communicative situation, stylistic nature.

Таълим ва техниканинг узвий ривожланиб бориши бугунги кунда сўзнинг турли маънолари келиб чиқишига олиб келди. Шунингдек, сўз маъноларининг қўлланилиш кўламини кенгайтиб бориши тилшунослик соҳаси нуқтаи назаридан чуқур таҳлилларни амалга оширишни тақозо этади.

Зеро, лексемалар маъноларининг ифодаланиши прагмалингвистик таҳлилларга тортилган бўлса-да, махсус соҳага оид бўлган маънолари киёслаб ўрганилмаган. Терминология соҳаси тилшуносликнинг турли аспектлари нуқтаи назаридан чуқур ўрганилганлигига қарамадан, прагматик таҳлили амалга оширилмаган.

Сўз маъносидаги ўзгаришлар тил тарихи хусусидаги маълумотлардан воқиф этади, шу боис олимлар “тарих ва этимология бир-бирини бойитишини” [1;4], “сўзнинг ички ва ташқи шакли, биринчидан, тил тарихи, иккинчидан, шу тилдан фойдаланувчи халқ ҳаёти, миллий-маданий урф-одатлари, бошқа миллатлар билан ўзаро алоқалари ва ижтимоий ҳаёт тарзи билан чамбарчас боғлиқ” [1;4] эканлигини эътироф қиладилар. Бунга шуни қўшимча қилиш мумкинки, сўз этимологиясини ўрганиш миллат тарихини ўрганиш билан бирга, унинг миллий ўзлигини англашига ҳам хизмат қилади. Айрим сўзлар этимологиясининг ҳанузгача муаммоли қолаётгани сабабли ҳам тилшунослар лингвистик билимлар билангина эмас, бошқа соҳаларга оид малакаларни ҳам ўзлаштириши лозим. Сўз маълум сабабларга асосланиб юзага келади, бошқа тилдан ўзлаштириш ҳам шулар жумласидандир. Вақт ўтиши билан сўзлардаги фонетик ва семантик ўзгаришлар сабабли уларнинг маъносини англаш мураккаблашади. Сўзлар маънолари контекст ёрдамида прагмалингвистик таҳлиллар орқали англашилади.

Инсоният мулоқоти воситаларидан муҳими ҳисобланмиш тил орқали фикр билдирилади, жумладан, ҳодиса ҳақида маълумот берилади, ёки адресатни ҳаракатга ёки уни тўхтатишга ундаш, ушбу ҳаракатларга ўз муносабатини, ҳис-туйғуларини ифодалаш каби ҳолатларда кенг қўлланилади. Ушбу қатор ҳолатларда тилнинг қўлланилиши ижтимоий фаолият ёки индивидуал тақдирлар негизининг асосий компоненти ҳисобланади. Шу сабабли, тилни ҳаракат воситаси сифатида ўрганиш муҳим саналади. Айнан шу масаларни ўрганиш билан шуғулланувчи тилшуносликнинг замонавий йўналиши – лингвистик прагматика (прагмалингвистика, прагматика). Прагматика термини турли синонимлар билан ҳам алмаштириб қўлланилиши мумкин, жумладан, прагмалингвистика, лингвопрагматика. Ушбу тушунчалар тилшунослик соҳасида бир хил маъно ифодалайди. Бинобарин, прагмалингвистика соҳасининг шаклланиш босқичидаёқ нутқий акт сифатида унинг ўзига хос хусусиятлари ва имкониятлари борасидаги қарашлар тилшуносларнинг ушбу соҳага бўлган қизиқишини оширган.

Тилнинг турли мулоқот жараёнларида қўлланилиши унинг тузилиши ва қонуниятларини ижтимоий ҳолатларни ҳисобга олган ҳолда коммуникатив шартлардан алоҳида ўрганишни тақозо этади.

Қатор олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатадики, мулоқот жараёнида суҳбатдошга йўлланадиган саволлар унга эмоционал-мантикий таъсир этишидек прагматик хусусият билан боғлиқ маслаҳат, сўров, буйруқ, таклиф каби мотивацион нутқ табиатига хосдир. Шунингдек, кимнидир бирор бир ҳаракатни амалга оширишга ундаш нияти ундан зарур маълумотларни билиб олиш мақсадидан фарқ қилса-да, ҳар иккала мақсад нутқда аниқ ёки яширин равишда ифодаланиши мумкин.

Прагматика сўзи юнон тилида “иш” маъносини англатиб, айнан соҳанинг номланиши унинг предмети тилни мулоқотда қўллаш ҳолатларини ўрганишдан иборатлигини белгилаб беради. Фалсафа ва психология соҳаларида прагматика тушунчаси фаолият жараёнида орттирилган тажриба маъносида қўлланилган. Ч.Пирс [2;110]. ва Ч.Моррисларнинг [3] олиб борган тадқиқотларидан сўнг прагматика семиотиканинг бир бўлими ва мулоқотда қўлланилган белги (ишора)га сўзловчининг билдирган муносабати тушунилган

Прагмалингвистика соҳаси инсон нутқий фаолиятида тилни восита сифатида қўллаши билан боғлиқ бўлган ҳолатларни ўрганади. Бугунги кунга келиб, прагмалингвистика барча лингвистик, мантикий-фалсафий, ижтимоий, психологик, этнографик каби соҳалараро жабҳа сифатида шаклланди. Прагматика тушунчасига берилган изоҳларнинг бирортаси ҳам уни мустақил соҳа сифатида тавсифламаган. Кўплаб тавсифларда таъкидланишича, прагматика соҳаси лингвистик парадигмаларнинг таъсири асосида шаклланган бўлиб, унинг мақсади нутқий мулоқотни ўрганишга қаратилган.

Маълумки, тилшуносликда инсоний факторни ўрганиш семиотикада шаклланган. Семиотика борасида олиб борилган илк тадқиқотларда белгилар ифодаланган вазият структураси ва мулоқот иштирокчилари динамик ҳамда процессуал аспектларда ўрганилган. Семиотика соҳаси уч жабҳа, жумладан, белги ва мулоқот муносабатлари билан боғлиқ бўлган синтактика; белги ва унинг маънолари ўртасидаги боқлиқликни тадқиқ этувчи семантика; белгини ифодаловчи адресантнинг адресатга маълумотни қай тарзда йўллаши ва ушбу маънонинг қабул қилиниши билан боғлиқ ҳолатларни ўрганадиган прагматика каби соҳалардан иборат. Прагматиканинг асосий соҳа бўлиб шалланишига Р.Карнапнинг тадқиқотлари ёрдам берди [4;268].

Т.ван Дейкнинг изоҳига кўра, “прагматика тилни контекстда ўрганиш билан боғлиқ масалаларни тадқиқ этиши қаторида, синтаксис ва семантиканинг бир-бирдан ажралмагани каби жабҳа тилшуносликнинг ажралмас бўлаги ҳисобланади” [5;107]. Ж.Остин, Ж.Серл, Г.Грайс, З.Вандлерлар томонидан прагмалингвистика бўйича илгари сурилган фикрлар, ғоялар унинг соҳа сифатида шаклланишига туртки бўлди. Таъкидлаш жоизки, прагматикага берилган ва тан олинган Л.Витгенштейннинг “сўз мазмунининг тилда қўллаши” – хусусидаги изоҳи кейинчалик прагматикани ўрганишга йўналтирилган замонавий тилшуносликнинг таракқий этишига сабаб бўлди [6;17]. Демак, фикр мазмунини контекст орқали аниқлаш мақсадга мувофиқдир. Масалан, “I need a doctor” гап мазмуни контекст, мулоқот мақсади, ҳолатга қараб англашилади. Нутқда қўлланилган need феъли заруриятни, а doctor ноаниқ артиклнинг қўлланилишидан англаш мумкинки ҳар қандай доктор кераклигини кўрсатиб беради. Балким, адресант киноя тарзида суҳбатдошига йўллаган бўлиши ҳам мумкинки, мулоқот вазияти ва мавзуси ўрганилмасдан, прагматик маънони аниқлаш мушкул масала ҳисобланади.

Прагматик маъно – адресат, гуруҳ тингловчилар томонидан оғзаки нутқда мавжуд бўлган маълумотларнинг ўзига хос идрок этилишидир шунингдек, прагматик маъно прагматик муносабат билан белгиланади. Яъни, бирор бир маънони англатиш мақсадида қўлланилган белги ва ундан фойдаланувчи ўртасидаги муносабат прагматик маъно ҳисобланади.

Прагматик маъно хусусида юритилган турли фикрларни умумлаштирган ҳолда таъкидлаш мумкинки:

- 1) нутқий мулоқотни адекват тавсифлашда фаолият калит тушунча сифатида хизмат қилади;
- 2) тил коммуникантларнинг ўзаро динамик алоқалари воситаси саналади;
- 3) тилнинг вазифаси у қўлланилган вазият контексти билан чамбарчас боғлиқ.

Ю.Д.Апресяннинг изоҳига кўра, “тил бирлигида ифодаланган сўзловчининг 1. воқеликка, 2. маълумот мазмунига, 3. адресатга муносабати прагматика сифатида тушунилади” [7;58].

Таъкидлаш жоизки, барча соҳалардан ва уларда қўлланиладиган ёки англашиладиган маънолардан воқиф бўлган ҳолдагина, прагматик маънони аниқлаш мумкин. Прагматика соҳасига келтирилган изоҳлар маълум маънода тадқиқотчининг асос бўлиб хизмат қилувчи нуқтаи назари ва шунингдек, ушбу масала тадқиқ этилган тилшуносларнинг тадқиқот ишлари билан боғлиқ:

синтаксис (прагматика – ноанъанавий ёки меъёрга мувофиқ бўлмаган гапларнинг синтактик ва семантик таҳлилидир);

семантика (прагматика – баҳоловчи ва шунингдек, контекstdан ассоциатив ҳамда коннотатив маънолари баҳоловчи маънога бирлашишидир);

стилистика (коммуникатив семантикада ҳаракат, реклама ва бошқа мақсадларда тилни қўллаш прагматик маънони ифодалайди);

нутқий фаолият (прагматика бу коммуникатив тамойиллар ва нутқий актлар пресуппозицив назарияси).

Барча йўналишлар прагматикага хос бўлган хусусиятларнинг номлари ва вазифаларини қайд этади. Прагматиканинг асосий бирликларидан бири бўлмиш нутқий фаолият жараёни мулоқот мазмунига ойдинлик киритишга ёрдам беради. Шу ўринда, Фердинанд де Соссюрнинг нутқий фаолият борасидаги фикрини келтириб ўтиш жоиздир, “тил нутқий фаолиятни бошқариши эмас, балки унга бўйсунуши керак” [8;206]. Демак, Б.Н. Головин таъкидлаганидек, “тил бирликларидан фойдаланиб, фикримизни баён этамиз, тингловчига муваффақиятли маълумотни етказамиз. Тингловчига етиб борган фикр унинг онгида идрок қилиниб, яна тил бирликлари орқали нутқ ҳолатида ўзимизга қайтади” [9;90].

Е.Е. Кубрякованинг фикрига кўра, нутқий фаолият тил ва нутқ уйғунлигида қайд этилган барча диалектик зиддиятларни бир қаторда бирлаштириши билан мураккаб таълимдир [10;59]. Гарчи, нутқий фаолият икки қисмдан иборат бўлса-да, биринчиси ички формада кечадиган жараёнлар, яъни эҳтиёж, мотив, мақсад, ғоя, дастур, билим вазиятни ҳар томонлама ўрганиш, фикрни сўзларда ифодалаш ёки ифодаламаслик қарори бўлса, иккинчи шакл ташқи фаолият бўлиб, ички қарордан сўнгина амалга ошириладиган жараёнлар, жумладан, мақсадга мувофиқ нутқни сўзлаш ва унга мос сўзлар танловини таъминлаш ва бошқалардан иборат. Негаки у сўзловчини ижтимоий ҳаётининг бир қисмини ташкил этади. Нутқда қўлланилган тил бирликлари сўзловчи ҳақидаги маълумотни ўзида намоён этади. Инсон онги мулоқот орқали ўсиб боради.

Маълумки, тил орқали мулоқот қилинади ва фикр, ҳис-туйғу бошқаларга етказилади. Шу сабабли ҳам фикрнинг содда ва тушунарли бўлиши бунда муҳим ҳисобланади. Сўзловчининг фикри қанчалик муҳим ва ягона бўлмасин, тингловчи учун тушунарли тилда баён этилмаса, у тўла-тўқис англамайди. Сўзловчининг лексиконини ташкил этувчи сўзлар барча доирага оид бўлсагина, у ўзи хоҳлаган мавзуда суҳбатлаша олади. Маълум бир жабҳада фаолият юритиш фақат шу соҳага тегишли бўлган терминларни нутқда қўллаш билан киши нутқининг ижтимоий чекланишига олиб келади.

Яна шуни инобатга олиш керакки, нутқий фаолият – тилга оид жараён бўлиб, маълум бир вазиятларда тилни қўллай билиш қобилиятини англаш, ва қолаверса, нутқ тузишда зарур бўлган инсон организмнинг психо-физиологик фаолияти мажмуидир. Маълумот бериш, яъни нутқни ифода этишнинг ўзи бир нутқий фаолият. У инсон фаолиятларининг бир шакли бўлиб, инсоннинг мулоқот пайтида онгли – коммуникатив эҳтиёжларини таъминлашга йўналтирилиб, тил воситасида шакллантирилган ёки ифодаланган фикрни фаол, мақсад ҳамда фактга асосланган жараёнда юбориш ва қабул қилишни ўзида акс эттиради. Шундай

экан, нуткий фаолият жараёнидан кўра бўлиб ўтган мулоқот натижалари муҳим рол ўйнайди. Негаки инсоният айнан шу натижага эришиш йўлида мулоқотга киришади. Нуткий фаолият доим нутқ структураси ва нормасига мос равишда тўлиқ ҳамда сермазмун ахборот алмашиниш жараёни коммуникатив нуктаи назаридан назорат қилинади. Яна шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, коммуникатив вазиятга мос равишда бирор бир шахс билан мулоқот ўрнатиш имкониятини кўзлаган ҳолда матн вужудга келади. Ушбу муносабатларга мувофиқ матн функцияси, яъни стилини барпо этиш мумкин. Матн ва стилни яратиш учун муомала турлари ҳамда ҳаракат асосини ўрганиш керак. Негаки матн ва стил аниқ бир коммуникатив воқеанинг натижаси сифатида юзага келади. Стил доирасида индивидуал қарашларнинг пайдо бўлиши ижтимоий фарқланиш мавжудлигини кўрсатибгина қолмай, нутқда сленг, жаргон ва диалектнинг маълум бир мақсадда қўлланилиши муаллифнинг маълум бир ижтимоий гуруҳга тегишли эканлигидан дарак беради. Сўзлашув услубидагина адресант диалектни қўллаши ва бу билан маълум бир ўзи хусусидаги ижтимоий маълумотларни нуткий фаолиятида акс эттириши мумкин. Маълумки, нуткий фаолият икки хил бўлади: диалогик ва монологик шакллар.

В.И.Карасик томонидан прагматикага хос бўлган уч тушунча, жумладан, конверсацион, функционал, психоллингвистик йўналишлар санаб ўтилган [11;49].

Адресант ўз фикрини баён этганда адресатга йўналтирилган маълум ҳаракатларни маълум шароитларда амалга оширади. Сўзловчининг мақсадига мувофиқ унинг ҳаракатлари аниқланади ва улар прагматингвистикада нуткий акт, муомала, ёки нуткий ҳаракат деб номланади.

Прагматик маънони англашга хизмат қилувчи куйида келтирилган воситалар сўзловчи нутқининг ўзига хос тузилишга эга эканлигини кўрсатади. Улар:

1. Ижтимоий маълумот: а) шахснинг ёши; б) ижтимоий мавқеи; в) жинси; г) таълим ва тарбияси; д) касби [12;8].

2. Нуткий ахлоқнинг ўзига хослиги [13;30].

3. Нуткий муносабатнинг принциплари: а) сифат – маълумот ёлғон ёки керакли асосларсиз бўлмаслиги шарт; б) ҳажм – маълумот жуда қисқа ва жуда узун бўлмаслиги керак; в) муносабат – маълумот йўлланилаётган шахсга мос бўлиши керак; г) усул – маълумот тушунарли, аниқ ва адресатга тушунарсиз бўлган сўзлардан холи бўлиши керак; д) хушмуомалалик: расмий, нейтраль, норасмий [14;25].

4. Психологик характер [15;5].

Юқорида санаб ўтилган жиҳатлар нуткий мулоқот жараёнида очиб берилади. Бироқ шуни ҳисобга олиш керакки, барча адресантнинг нутқи ҳам матн ёки диалогда ифодаланган каби маълумотларга эга бўлавермайди. Бироқ санаб ўтилган воситалар прагматик маънони англашга хизмат қилиши баробарида, адресант ва адресат хусусидаги маълумотлардан хабар беради. Фикримизга ойдинлик киритиш мақсадида куйидаги инглиз тилидаги матн ва унинг ўзбек тили таржимаси таҳлилига мурожаат этамиз:

“I appreciate their importance. Here is my monograph upon the tracing of footsteps, with some remarks upon the uses of **plaster** of Paris as a preserver of impresses [16;129].

Матннинг ўзбек тилидаги таржимаси:

“– Шунчаки уларнинг муҳимлигини тушунаман. Ёки оёқ излари тўғрисидаги рисоламни олайлик. Унда ўша изни сақлаб қолиш учун **гипсдан** фойдаланиш тўғрисида гапирилади [17].

Инглиз тилидаги матнда қўлланилаган лексема **plaster**, ўзбек тили матнида **гипс** тарзида таржима қилинган бўлиб, контекстдаги ифодаланган маъно *tracing of footsteps, remarks, preserver of impresses* каби сўз бирикмалари орқали аниқланган. Жиноят изини аниқлаш мақсадида қўлланиладиган усул, яъни тергов соҳасига оид термин маъноси акс эттирилган. **Plaster** лексемаси бошқа соҳаларда ҳам махсус термин сифатида ҳам ишлатилади. Масалан:

1. қурилиш материали сифатида – қурилиш соҳасида;
2. жароҳатни ёпадиган восита – тиббиётда;

3. тишда кариес оқибатида ҳосил бўлган ковакни тўлдириш, ёки тиш учун қолип воситасини ўтовчи трафарет – стоматологияда;
4. оғриқ қолдирувчи восита – тиббиёт соҳаларида қўлланилади.

Демак, мулоқотда ифодаланган прагматик маънони адресат англамаслиги ёки адресант йўллагани каби тушунмаслиги, ёки адресантнинг маълумотига турлича муносабат билдириши мумкин. Инглиз тилидаги матнда **plaster** терминининг **Paris** лексемаси билан бирга қўлланилиши, жиноятчини аниқлашда қўлланилган гипс орқали оёқ изини аниқлаш усули айнан Парижда тадқиқ этилганлигига ишора қилган ҳолда, прагматик маънони англашга кўмаклашган.

Прагматик маъно қуйидаги турларга бўлинади:

1. сўзнинг стилистик табиати;
2. сўз маъноларининг қўлланилиш кўлами;
3. сўзнинг эмоционал бўёғи.

Сўзнинг стилистик табиати сўзловчи томонидан унинг аниқ бир вазифавий стилга бириктирилган ёки ҳар қандай стилда ўринли қўлланилган маъноларининг қабул қилиниши билан боғлиқдир. Маълум бир стилда маънонинг мустаҳкамланиши унинг доимий табиатига айланибгина қолмай, прагматик маъно компоненти вазифасида ҳам қўлланилади. Шунингдек, сўзнинг стилистик табиатининг турлари мавжуд бўлиб, масалан:

1. Сўзнинг нейтрал ёки бетараф, яъни, стилистик белгига эга бўлмаган маънолари нутқнинг барча турлари ва жанрларида қўлланади. Ҳар бир тилнинг лексик қатламида мавжуд, стилистик белгини акс эттирмаган сўзлар ушбу гуруҳга киради.

2. Ёзма нутқга хос бўлмаган, норасмий мулоқотда кенг қўлланиладиган, оғзаки нутқда кундалик ишлатиладиган сўзлар.

3. Фақат ёзма нутқга хос, оғзаки нутқда расмий мулоқотдагина ишлатиладиган адабий сўзлар.

4. Расмий-илмий жанрда қўлланиладиган – терминологик табиатга эга бўлган сўзлар.

Лексик қатламда чекланган маъноларда қўлланиладиган индивидуал хусусиятлар изоҳига ўтишдан олдин, аввало, сўзнинг кенг луғат қатлами, яъни, илмий ва бошқа махсус терминология хусусида тўхталиш лозим.

Бугунги кунгача кўплаб терминологик изланишлар амалга оширилган бўлишига қарамай, ҳанузгача терминларни таснифлаш, хусусан, уларнинг соҳалараро интеграциясида қўлланиладиган алоҳида турларини ажратиш муаммолари ўз долзарблигини сақлаб қолмоқда. Терминларнинг ўзига хос жиҳатлари турлича таснифланиши ва тавсифланиши учун асос бўлиб хизмат қилади. Таъкидлаш жоизки, тизимлилиқ бир томондан белгиланган асослар бўйича муайян тушунчалар таснифларининг мавжудлиги бўлса, бошқа томондан эса, тилшунослик фанининг турли терминосистемаларни ўз таркибига бирлаштиришдаги иштироки билан шартланган.

Терминлар махсус касбий соҳалардаги коммуникация, у ёки бу касбий соҳада юзага келадиган ходисалар, концепциялар, феноменларни тавсифлаш воситалари саналади. Бу табиий равишда ватанимиз, хориж олимларининг терминларни тартибга солиш, унификация қилиш ва тизимлаштириш учун уринишларига олиб келади. Терминларни махсус соҳалар бўйича таснифлаш ва тавсифлаш муҳим аҳамиятга эга: у илм-фан, ижтимоий соҳаларнинг маълум даврдаги тадрижий ривожланиш даражасини акс эттиради. Терминларни таснифлаш борасида тадқиқотлар олиб борган В.П.Даниленконинг изоҳлашича, “тилшунослик фанининг махсус лексикасига унинг алоҳида бўғинлари, яъни соҳавий системаларининг тобора юқори даражадаги тизимлилиги хосдир” [18;168]. Терминологияда ўз ифодасини топган тушунчаларни таснифлаш имконияти ва зарурати терминологик лексиканинг умумхалқ тилига нисбатан фарқли хусусияти сифатида кўриб чиқилади. Чунки терминлар маълум илмий концепция билан боғлиқ, уларда илмий кашфиётлар, тадқиқотлар ҳамда назарий ва амалий натижалари ўз ифодасини топади.

Сўзнинг махсус тури сифатида терминнинг ўзига хос хусусияти, жумладан, унинг термин ифодалидиган маъно таркибидан иборат аниқ, номинатив тавсифи туфайли аниқ

семантик чегараларга эга бўлган фақат эркин маъноларни ўз ичига олади. Терминлар объектларни номлаши ва уларнинг қўлланилишига мувофиқ улар ҳақида маълумот берадиган тушунчаларни ифодалаш мумкин. Стоматологияга оид терминлар прагмалингвистикада қуйидагича таснифланади:

- семантик тамойил адресант ва адресат томонидан ифода этилган умумий маъноларга асосланади;
- функционал тамойил умумий бажариладиган вазифаларга таянади;
- функционал-семантик принцип юқорида санаб ўтилган тамойилларнинг бирлашувига асосланади.

Хулоса ўрнида келтириш мумкинки, адресантнинг нутқий фаолияти ва мулоқот натижалари билан танишиб, уларни чуқур таҳлил қилиб, кейингина прагматик маънони аниқлаш мақсадга мувофиқдир. Акс ҳолда матннинг бошида ифодаланган мазмун билан охиридаги маъно бир-бирига мос келмасдан, мутлақо ўзга фикрлар келиб чиқиши мумкин. Негаки, прагматик маъно инсон фикрини шакллантирмайди, аксинча уни тилда ифодалайди. Бироқ таржима орқали турли миллат вакилларининг нутқий фаолияти ўртасидаги ҳамкорлигини таъминлайди ва қолаверса, тил бирликлари орқали ўтган давр руҳиятини ҳис этиб, шахс ҳақида қисман бўлса-да тасаввурга эга бўламиз.

Мулоқот жараёнида ифодаланган прагматик маъноларнинг ифодаланиш йўллари устида олиб борилган кузатув ва таҳлиллар шуни кўрсатадики, вазиятга қараб сўз маъносининг мақбули танланиши керак. Оғзаки нутққа хос бўлган сўз ва унинг маъноларининг мулоқотда қўлланилишига асосан прагматик маънонинг аниқланишининг устунлиги шундаки, у мулоқот жараёнида контекstdан келиб чиқиб вазият мазмунига мос бўлган сўзлардан фойдаланиш имконини яратади. Бундан ташқари, адресат онгида воқеликни тасаввур этиб, мазмунини англашга қўмаклашади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Черных П.Я. Историко-этимологический словарь современного русского язык. В 2 т. 3-е изд. стереотип. – М.: Рус. яз., 1999. – 232 с.
2. Пирс Ч. С. Избранные философские произведения. – М.: Логос, 2000. – 412 с.
3. Моррис Ч. Основания теории знаков <http://www.allbest.ru/>
4. Карнапнинг Р. Значение и необходимость: Исследование по семантике и модальной логике. - Красанд: Либроком, 2007. – 374 с.
5. Дейкнинг Т. ван Язык. Познание. Коммуникация: Пер. с англ./ Сост. В. В. Петрова; Под ред. В. И. Герасимова. – М.: Прогресс, 1989. – 312 с.
6. Витгенштейн Л. Логико-философский трактат. – М.: Наука, 2009. – 133 с.
7. Апресян Ю.Д. Избранные труды. Т. II. – М.: Языки русской культуры, 1995. – 110 с.
8. Фердинанд де Соссюр. Курс общей лингвистики. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 1999. – 416 с.
9. Головин Б.Н. Основы культуры речи. – М.: Высшая школа, 1980. – 335 с.
10. Кубрякова Е.Е. Номинативный аспект речевой деятельности. – М.: Наука, 1986. – 159 с.
11. Карасик В.И. Язык социального статуса. М.: Ин-т языкознания РАН; Волгогр. гос. пед. ин-т, 1992. – 330 с.
12. Иброҳимов С.И. Ўзбек тилининг нутқ маданиятига оид масалалар // Нутқ маданиятига оид масалалар. – Т.: Фан, 1973. – Б.31.
13. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
14. Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. – М.: Высшая школа, 1989. – С.146.
15. Гольдин В.Е. Речь и этикет. – Саратов: Изд-во Саратов. ун-та, 1983. – 100 с.
16. Arthur Conan Doyle. The Sign of Four [<https://www.weblitera.com/>].

17. Артур Конан Дойл. Шерлок Холмс ва доктор Уотсоннинг саргузаштлари: Ҳикоялар ва қиссалар; тарж. Н.Ҳабибуллаев. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б.129.
18. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – 246 с.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Бекбергенова Зияда Утеповна
Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси
Қорақалпоғистон бўлими Қорақалпоқ гуманитар
фанлар илмий тадқиқот институти бўлим мудир, ф.ф.д.

ЭПИК ТАЛҚИНДА ИККИ ОВОЗЛИ НУТҚНИ ИФОДАЛАШ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-2-90>

АННОТАЦИЯ

Икки овозли нутқ типи насрий асар структурасида муаллифнинг олдида куйган мақсадини бажаришда ва қаҳроман характери билан психологиясини ошишда бадиий-стилистик восита функциясини отқаради. Ушбу масала бўйича рус, ўзбек, қозоқ адабиётшунослик илмида илмий-назарий фикрлар анча илгари пайдо бўлиб, илмий тадқиқотлар олиб борилган. Айниқса, миллий адабиёт тарихида ўз ўрнига эга ёзувчиларнинг ижодий маҳоратини ўрганишда икки овозли нутқни ажратган ҳолда тадқиқ қилиш катта аҳамият касб этади. Чунки, муаллиф баёни таркибида келган икки овозли нутқнинг кўринишлари ҳар бир ёзувчининг услубий хусусиятига қараб ҳар хил кўринишда қўлланилади. Шунинг учун ҳам, мақолада адабиётшунослик илмида ушбу масалани ўрганишнинг ҳам қизиқарли, ҳам мураккаб вазифаларнинг бири эканлиги илмий-назарий тадқиқотларга суянилиб, мисоллар ёрдамида ишотлаб берилди.

Калит сўзлар: икки овозли нутқ, насрий асар, тил компоненти, қаҳроман нутқи, муаллиф нутқи, роман услуби, бадиий баён қилиш

Бекбергенова Зияда Утеповна
д.ф.н., заведующий отделом Каракалпакского
научно-исследовательского института гуманитарных
наук Каракалпакского отделения Академии наук
Республики Узбекистан

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫРАЖЕНИЯ ДВУХГОЛОСНОГО СЛОВА В ЭПИЧЕСКОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

АННОТАЦИЯ

Двуголосые слова в структуре прозаического произведения выполняют художественно-стилистическую функцию в раскрытии психологических особенностей характера героя и достижений автором поставленных перед собой целей. В данном направлении в русском, узбекском, казахском литературоведении уже давно разрабатывались научно-теоретические понятия и проводились научные исследования. Особенно при изучении творческих способностей писателей, занимающих место в истории отечественной литературы, большое значение имеет изучение разделения

двухголосного слова. Это связано с тем, что появление двухголосного слова, исходящей из повествовательной структуры автора, применяется в разном стиле в зависимости от стилистических особенностей каждого писателя. Таким образом, в статье на примерах, основанных на научно-теоретической работе, доказывається, что изучение данного вопроса является одной из самых интересных и сложных задач в литературоведении.

Ключевые слова: двухголосное слово, прозаическое произведение, компонент речи, слово героя, авторское слово, стиль романов, художественное повествование.

Bekbergenova Ziyada Utepvna

Doctor of Philology sciences, leader of the section of Karakalpak
Research Institute of Humanities Sciences of the Karakalpak
Branch of the Academy of Sciences Republic of Uzbekistan

EXPRESSION OF TWO VOICE SPEECH IN AN EPICAL INTERPRETATION THEORETICAL FUNDAMENTALS

ANNOTATION

Two-voiced words in the structure of the prose work performed artistic and stylistic function in revealing the psychological characteristics of the hero and the author in reaching their goals. In this direction in Russian, Uzbek, Kazakh literary criticism has long developed scientific and theoretical concepts and conducted research. Especially in the study of the creative skills of writers who have a place in the history of national literature, the study of the separation of two-voiced speech is of great importance. This is because the appearances of the two-voiced speech that come from the author's narrative structure are applied in a different style depending on the stylistic feature of each writer. Therefore, the article proves with examples, based on scientific and theoretical work, that the study of this issue is one of the most interesting and complex tasks in the science of literature.

Key words: two-voiced word, prosaic work, speech component, word of the hero, author's speech, style of novels, art narration

Ҳар бир психологик субъект тийнатиини мушоҳада ва мафкура зиддияти тайин этади. Тўғрироғи, эпик ифода тугалланмаганлиги адабий талқиннинг монологик тафаккурдан диалогик муносабатга ўтишига замин ҳозирлайди. Шахс дунёқарашилини шартли равишда иккига: рухий ва ижтимоий моҳиятга ажратсак, масала моҳияти янада ойдинлашади. Муаллиф нуқтаи назари ана шу ҳалқада қаҳрамон нутқи билан тенглашиш баробарида унинг нисбий мустақиллигини ҳам таъминлайди. Мавжуд ҳолатда сўз соф луғавий бирлик сифатида ўз моҳиятини йўқотиб, ривоя техникаси унсурига айланади. Айнан тушунча тасавурида акс этадиган фаол хусусий мавқе (тасдиқ, инкор, майл, кескинлик, таҳмин, шубҳа, гумон) таъсирчан оҳанг, ҳиссий бўёқдорлик ҳамда қадриявий мезонни марказлаштиради. Аслида воқеликни тасвирлаш объекти ва ифодани идроклаш субъекти ўртасида мустақкам ришта мавжуд: жорий алоқа ҳодисот тарқоқлиги интизомини ягона эстетик «мен» фокус атрофига йиғишга йўл очади. Шу маънода, матн структурасида ғоя-мавзу-образлар тизими-сюжет-композиция чамбарчаслиги қай даражада муҳим аҳамият касб этса, асар мундарижасини боғловчи ҳалқа – стилистик категория қиймати ҳам шунчалик мустақил тадқиқот предметиға эҳтиёж сезади. Негаки, «асарда ифодаланаётган бадиий концепция унда яратилган дунё образи – бадиий реалликдан ўсиб чиқади. Шуниси ҳам борки, асарда тасвирланаётган нарса ва ифодаланаётган нарса муносабати (таъкид бизники – Б.З.) турлича бўлиши мумкин» [11.162]. Ўз навбатида, бадиий коммуникация билвосита ҳамда бевосита маъно майдонида шахс амалий фаолияти субъекти ва воқеликни англаш зарурати объектини бир-бириға пайвандлайдиган жараёнға эврилади.

Воқеликни муаллиф баёни ёки қаҳрамон ривоя техникаси ёрдамида ифодалаш жаҳон халқлари маданиятида реалистик тасвир тамойиллари юзаға келиши баробарида шаклланган. Бинобарин, икки овозли баён туркуми –муаллиф нутқи ва қаҳрамон нутқини алоқадорликда

ўрганиш поэтик синтаксис моҳиятини теранроқ англашга имконият яратади. Мавжуд жараён ҳар бир миллат бадиий адабиёти тараққиёт даражасига бориб тақалади. Жумладан, муайян халқ бадиий тизимида реалистик тасаввур эҳтиёжлари ортиши нутқий малака такомиллашувига ҳам таъсир ўтказди. Агар наср дастлабки босқичи ва шаклланиш даврида яратилган бадиий солномаларга асарларга назар ташласак, уларда кўпроқ муаллиф ёки персонаж нутқи устуворлашуви ёрқин намоён бўлади. Ҳикоя, қисса ва роман сюжет-композиция тизимида воқеликни баён қилиш муаллиф томонидан ёхуд фаол иштироқ этувчи персонаж номидан олиб борилади. Бунда муаллиф ёки ҳикоячи нутқи ва персонаж ривояси ўзига хослиги яққол кузатилади. Реалистик адабиёт шаклланиш палласида битилган аксар эпик талқинларда қаҳрамон руҳияти тадрижи, ички кечинмалар коллизияси муаллиф номидан, ижодкор қалб призмасидан ўтказиб тасвирланганлиги бўртиб кўринади.

Кейинги йилларда бадиий матн сюжети ва композицияси структурасида қаҳрамон ички олами батафсил ва теран тасвирлашга мойилликнинг ортиши ва персонажга моҳиятини тугал психологик тавсифлаш зарурати ҳосил бўлиши оқибатида муаллиф ва қаҳрамон нутқи билан бир қаторда икки овозли баён шакли оммалашувига йўл очди. Икки овозли нутқ насрий талқин миқёсида тобора кенг тарқалиши – ҳар бир миллий адабиёт ғоявий-мавзуй, жанрий ва услубий-шаклий томондан бойиб борганлигини далолатлайди.

Хусусан, рус адабиётида даставвал А.С.Пушкин ижодиётидан ибтидо олган янгича усул, кейинчалик рус реалистик прозаси шаклланиш даврида Н.В.Гоголь, Л.Н.Толстой, Н.Г.Чернышевский, А.П.Чехов, В.Г.Короленко, И.А.Гончаров каби истеъдодлар бадиий изланишларида ўз маромига етади.

Бадиий асар тил компонентларини тайин этадиган муаллиф нутқи, қаҳрамон нутқи ва икки овозли баён шакли тўғрисидаги дастлабки қарашларни биз ўтган XX аср 60-йилларидан бошлаб таниқли рус олими М.М.Бахтин асарларида учратамиз. Муаллифнинг «Достоевский поэтикаси масалалари» дея номланган тадқиқотида муаллиф ва персонаж нутқи қоришигидан ҳосил бўлган, асосан прозага ҳос бўлган нутқ кўриниши – ўзга ривоясига асосланган нутқ, бинобарин, қаҳрамон баёнига кўчган муаллиф нутқи ёки муаллиф овози аралашган персонаж нутқи ва икки қаҳрамоннинг овозини жамлаган персонаж нутқи. Кўпинча бу – муаллиф нутқи ва қаҳрамон овозининг бирикуви, ўзаро тўқнашуви ҳосиласи, шу боисдан овозлар чатишувидан қатъий назар китобхон икки овозлиликни ҳис қилади» [2].

Бахтин икки овозли баён муаллиф ва қаҳрамон нутқи шаклига нисбатан ўзига хослигини «Муаллиф ўз мақсади учун ўзганинг сўзидан фойдаланиши мумкин ва шу йўл билан ўзининг шахсий мақоми бўлган ҳамда уни сақлаб турган сўзга янги маънодаги оҳанг беради. Жорий ҳолатда бундай сўз вазифа нуқтаи назаридан ўзганинг баёни сифатида туюлиши керак. Лекин, битта сўзда икки маънодаги маром, иккита овоз пайдо бўлади. Киноявий нутқ, стилизация ва стилизацияланган баён шундай бўлади» [2], – дея таъкидлайди.

Бадиий нутқ типлари бўйича М.Бахтин тавсия қилган назария, ўз давридаёқ рус адабиётшунослигида В.Кожин [8], А.Федоров [21], Л.А.Соколова [18], А.Кожевниковалар [9] томонидан ривожлантирилиб, йирик фундаментал тадқиқотлар яратилишига мустаҳкам замин ҳозирланишига шароит туғдирди.

Жумладан, роман жанри бўйича жиддий изланишлар олиб борган олим В.Кожин «Романнинг келиб чиқиши» китобида «Муаллиф, ҳикоячи ва персонаж нутқлари ўзаро мураккаб боғланиши, иштироқи ва ўзаро муносабати наср манфаатига хизмат қилади» [8.381] – дея эътироф этади ва XIX асрдаги рус бадиий прозасида А.П.Чеховнинг «Сахро» қиссасида муаллиф нутқи ичида ёш бола Егорушканинг ҳаёл суриши сезилар-сезилмас даражада берилса ҳам, уларни муаллиф нутқи ва қаҳрамон нутқи сифатида ажратиш қийинчилик туғдирмаслигини қайд қилиб: «Муаллиф ва персонаж овози бирлашуви бу оддий усуллардан эмас, балки бадиий наср энг муҳим ва асосий воситаларидан бири ҳисобланади», – дея ёзади. Муаллиф билан персонаж нутқлари чатишувини идроклашга уларнинг ижтимоий, ғоявий қарашлари, ёш хусусиятлари, онг психологияси, миллий ўзига хослиги ёрдам бериши, лекин, ёзувчи А.Фадеевнинг «Ёш гвардия» асарида ҳам икки овозли

сўз кучсиз намоён бўлса-да, нутқ таркибидаги баъзи ривоялар муаллифга эмас, қаҳрамонга дахлдорлигини кўрсатади. Асар матнидаги ифода икки қатламлилигига мувофиқ, икки овозлиликини аниқлаш мумкин»[8.384] – деган қарашни илгари суради. «Бадий асар тили ва услуби» бўйича тадқиқотлар олиб борган А.Федоров: муаллиф баёни ичида келган қаҳрамоннинг хаёлот ва нутқи ўзига хослиги «ўзганинг сўзини 3 шахс орқали баён қилишда намоён бўладиган ўзиники бўлмаган тўғри сўз» [21.68], – дея атайди. Тадқиқотчи Л.А.Соколова эса «ўзиники бўлмаган муаллиф нутқи»ни бадий асарнинг архитектурасини ташкил этадиган бадий стилистик категория сифатида таърифлайди ва рус ёзувчилари Л.Толстой, Н.Тургенов, А.Гайдар, А.Чехов насрий асарларида учрайдиган муаллиф нутқи билан қаҳрамон нутқи баробарида «муаллифнинг ва қаҳрамоннинг субъектив қарашларининг аралашиб кетишини ўзида мужассамлайдиган баёнлаш усули»га [18.123-125] («ўзиники бўлмаган муаллиф нутқи» – Б.З.) алоҳида эътибор қаратади. XX асрнинг 70-90-йиллари бадий сўз типлари бўйича кенг миқёсда тадқиқотлар олиб борган олим А.Н.Кожевникованинг «Речевые разновидности повествования в русской советской прозе» (М.,1973) мавзудаги номзодлик диссертациясида 1920-йиллардан бошлаб 1950-60 йиллар оралиғидаги рус насрида муаллиф, баёнловчи, ҳикоячи, персонаж каби баёнлаш типларининг тузилишида муаллиф нутқи, қаҳрамон нутқи ва икки овозли нутқ (ўзиники бўлмаган муаллиф нутқи) типларининг қўлланилиш даражасини киёсий равишда ўрганиб чиқади. Зикр этилган муаллиф томонидан ёзилган «XIX-XX асрлардаги рус адабиётида баён типлари» мавзудаги монографияда XIX-XX асрлардаги рус адабиётида Ф.М.Достоевский, Н.В.Гоголь, Л.Н.Толстой, А.Н.Андреев, А.И.Куприн, Н.С.Лесков, И.А.Бунинлар қисса ва романларида баён қилиш I шахс объектив ҳикоя қилувчи, III шахс субъектив баёнловчи каби ривоя шакллари мавжудлиги қайд қилинади. Муаллиф истеъдодли адиблар эпик талқинида сюжет ва композиция муносабати зичлиги, воқелик ривоясида ҳикоячи ва баёнловчи ўриндошлиги, қаҳрамон ички нутқи (монологи), диалог, муаллиф ва персонаж овозлари бирикуви ва ўзиники бўлмаган тўғри нутқ ҳар хил услубда қўлланилганлигини атрофлича тадқиқ қилади. Сўнгги босқич рус адабиётшунослигида Е.И.Орлова «Адабий асарда муаллиф образи» (Москва – 2008) номли асарида насрий асар матнида асосий ўрин тутадиган муаллиф образини муаллиф, баёнловчи, ҳикоячи, персонаж каби ҳар хил субъект шаклларига боғлиқ таҳлиллайди. Дарвоқе, олим мавжуд субъект шакллари иштироки воқеликни I шахс ва III шахс баёнида ифодалаш ҳамда уларни «Муаллиф баёни», «Ўзиники бўлмаган муаллифлик нутқи», «Ўзиники бўлмаган тўғри сўз» («икки овозли нутқ» Б.З.) каби бир нечта ривоя кўринишларининг насрий матн сюжет ва композициясини шакллантиришда муайян поэтик ва эстетик вазифадошликка эришувини насрий асарлар тимсолида далолатлайди. А.А.Чувакиннинг «Муаллиф образи категорияси бадий матнни англаш, маъно ифодалаш воситаси сифатида» [22] мақоласида ҳам бадий асар матнидаги муаллиф образини ёзувчи ва персонажнинг овозлари қоришиқ «ўзиники бўлмаган тўғри гап» ёки икки овозли нутқ типи билан боғлиқ ҳолда назарий умумлаштиради.

Икки овозли нутқ типи ўзбек адабиётида ўтган аср 1920-30-йилларида Ҳамза асарларидан бошланиб, сўнг А.Қодирий, Ойбек, П.Қодиров, Ғ.Ғулом ва бошқа истеъдод эгалари ижодиётида кенг қўлланилган. Бу ҳақда таниқли адабиётшунос С.Мирвалиев «Ҳамза прозаси» мақоласида шундай ёзади: «Ҳамза ўзбек прозасининг ривожланишида насрий сўз шаклининг яратилишига асос солган мохир истеъдод эгаси. У бир овозли тўғри сўздан (муаллиф ва қаҳрамон нутқи – Б.З.) икки ва кўп овозли насрий сўз яратиш томонига ўтди, унга асос солди» [13.12-17]. Икки овозли нутқнинг ўзбек насрида тутган ўрни ва бадий вазифадошлиги муаммоси Н.Аҳмедов, Г.Имомова, Й.Солижонов каби ўзбек олимлари 1970-2000-йилларда ёзилган номзодлик ва докторлик диссертацияларида тадқиқ қилинади. Жумладан, тадқиқотчи Н.Аҳмедов «Баён қилиш ва индивидуал услуб масаласи» номли номзодлик диссертациясида икки овозли нутқнинг насрий матн баёни ва ёзувчи шахсий услубини ойдинлаштиришдаги бадий вазифаси ҳақида қуйидаги мушоҳадани илгари суради: «Қаҳрамоннинг маънавий дунёсини ёритишда, асосан ўзиники бўлмаган тўғри сўз (икки овозли нутқ) катта аҳамият касб этади. Шунингдек, бунда муаллиф ҳикоячи сифатида,

Ўзининг ва қаҳрамонининг нуктаи назарига асосланган ҳолатда қаҳрамоннинг қалб диалектикасини очиб беради»[1.71]. Адабиётчи Г.Имомова «Типик миллий характер яратишда нутқнинг роли» номли номзодлик диссертациясида эса, муаллиф нутқи билан қаҳрамон нутқи аралашувини типик характер яратиш масаласи билан боғлиқ тарзда ўрганар экан, «муаллиф нутқи билан асар қаҳрамони нутқи аралашуви сўзнинг таъсир қувватини оширади»[6], – дея ёзади. Адабиётшунос Й.Солижонов «XX асрнинг 80-90-йиллар ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси» номли докторлик диссертациясида сўнги йиллардаги ўзбек адабиётшунослиги тажрибаларига таяниб, бадиий сўз типларини: объектив автор нутқи (бевосита автор нутқи), субъектив автор нутқи (билвосита автор нутқи), монолог сўз, диалог сўз ва бошқа кўринишларга ажратади [16]. Кўрсатиб ўтилган ушбу баён усуллари барча шакллари 80-90-йиллардаги ўзбек романлари сюжет ва композициясини тузишда, образ ва характер яратишда, инсон калб диалектикасини очишда асосий стилистик категориялар сифатида талқин қилинган.

XX аср аввалида қозоқ реалистик наср пайдо бўлиши ва шаклланиши палласида И.Алтинсарин ҳикоялари ва С.Торайғиров, С.Кўбеев насрида ҳам муаллиф нутқи билан персонаж нутқлари қоришиқ равишда қўлланилган.

Икки овозли сўзни 1920-йиллардаги қозоқ насри кичик эпик жанрларига илк маротаба татбиқ этган Б.Майлин ва М.Авезов, роман бадиий шаклига эса Ж.Аймаўитов киритади. Машҳур қозоқ олимлари Х.Каримов ва Р.Сиздиқова томонидан бадиий асар тил компонентларини ташкил этадиган муаллиф нутқи, персонаж нутқи, икки овозли нутқ категориялари матнда қўлланилиш хусусиятлари ва бадиий мақоми масаласи сўнги йиллардаги стилистика фани муваффақияти сифатида талқин қилинади. Хусусан, Х.Каримов «Қанатти тил» (Алмати. Санат. 1995) ўқув қўлланмасида муаллиф нутқи ва персонаж нутқига қиёслаганда қос үнли сўз («икки овозли нутқ») типи, қозоқ реалистик насрида кейинроқ (кеч) пайдо бўлганлигини таъкидларкан, «икки овозли нутқ – жуда мураккаб жараён ва у бизда ҳали икир-чикиригача батафсил тадқиқ қилинган эмас. Қозоқ тилшунослигида жорий ҳодисани шу пайтгача нисбий равишда «ўртоқ тўғри сўз» деб номладик. Атама икки овозли нутқ тушунчасчасига мос эмаслиги, унинг ўзига хос белгиларига эгаллиги ойдинлашди. ...Икки овозли нутқ – муаллиф билан қаҳрамон субъектив нуктаи назарларини баробар қиёслаб, уйғунлаштириш имконияти мавжуд услубий восита. Унинг муҳим аҳамияти – баён объектив ифодасига қаҳрамон субъектив мушоҳадаси кўшиливи, ривоя предметига қаҳрамон нутқининг муштараклигида (двуплановость повествования). Гап нутқ икки овозлилигида. Бошқача қилиб айтганда, қаҳрамон нуктаи назарини тасвирлайдиган сўз, бирикма, гап, гаплар гуруҳининг ўзидан муаллифнинг яширин муносабати сезилишида. Бундай иккиланганлик, энг аввало, ривоя ташқи шакли томонидан муаллиф номидан ((III шахс) ифодаланганлиги, лекин моҳиятига, тушунча модал-экспрессив маъносига, қўлланилган сўзлар луғавий таркибига мос, унинг қаҳрамонга дахлдорлигини англашга интилишида ёрқин намоён бўлади» [7.72-73], – дея ёзади.

Ҳақиқатан ҳам, Х.Каримов томонидан белгилаб ўтилган «қос үнли сөз» («икки овозли нутқ») типи ўтган асрнинг 60-йиллари Е.Жанпейсовнинг «Қозоқ прозасининг тили» асарида «ўртоқ тўғри сўз» деб номланган. Тадқиқотчи ўтган асрнинг 20-30-йилларидаги ва ундан олдинги даврлардаги қозоқ насрида адабий тил билан бадиий адабиёт тилининг ўзига хос хусусиятларини, бир-бирдан тафовути ҳамда муштараклиги масалаларини муаллиф нутқи, қаҳрамон нутқи, диалог, ўртоқ тўғри сўз факторлари (категориялари – Б.3.) билан боғлиқ текширади [4.133-134]. Тадқиқотчи Р.Сиздиқова «Сөз қудирети» номли фундаментал монографиясида «Прозаик ёзувчиларнинг тилини ўрганишда бадиий асар тили композициясини ташкил этадиган халқани: муаллиф нутқи билан персонаж нутқи, икки овозли нутқни тадқиқ этиш – долзарб вазифалардан саналади» [19.3], – қабилида фикр билдиради. Тадқиқотда қозоқ реалистик насри шаклланиши ва тараққиётида муайян ўрин тутадиган М.Авезов, Т.Ахтанов, Ш.Муртаза, Э.Кекилбаев, С.Бердиқулов, М.Магаун, О.Бөкеев, А.Сулейманов, Қ.Жумадилов, К.Сегизбаев каби таниқли ёзувчиларнинг кенг ўқувчилар жамоасига мўлжалланган эпик асарлари тузилишида қўлланилган икки овозли

нутқ типи, муаллиф нутқи, персонаж нутқи ўзаро чамбарчасликда лингвостилистик йўналишда тадқиқ қилинган.

1920-30-йилларда қорақалпоқ адабиётида реалистик наср пайдо бўлиши ва шаклланишида ҳам муаллиф нутқи билан қаҳрамон нутқи қўлланилиши етакчи ўрин эгаллайди. 50-60-йилларга келиб кенг кўламдаги эпик полотнолар пайдо бўлиши билан баробар қорақалпоқ миллий насрида К.Султановнинг «Ақдарё», «Ажиниёз», Т.Қайипбергеновнинг «Қорақалпоқ кизи», «Қорақалпоқ достони» романлари ва роман эпопеяларида муаллиф нутқи, персонаж нутқи (асар қаҳрамонлари диалогик ва монологик ифодаси) интизомиди икки овозли нутқ типи ўзгача усул ва янги жараён сифатида кўрина бошлади. Албатта, ҳар қайси ёзувчининг бадиий асари тузилишида қўлланилган муаллиф нутқи, персонаж нутқи, икки овозли нутқ категориялари шу ёзувчига ҳос бўлган услуб тақомили билан боғланади. Қорақалпоқ олими П.Нуржанов «Т.Қайипбергенов тарихий романларининг баъзи услубий хусусиятлари: «Ўзиники бўлмаган тўғри нутқ (Несобственно-прямая речь)» мақоласида бадиий услуб назарияси билан махсус шуғулланган рус олими Н.А.Соколов «объективлик билан субъективлик муносабатини услуб энг асосий категорияси сифатида кўрсатади» деган нуқтаи назарига таянган ҳолда Т.Қайипбергеновнинг «Қорақалпоқ достони» тарихий трилогиясини объектив услубда ёзилган асарлар сирасига киритади. Тадқиқотчи ўз мақоласида «Қорақалпоқ достони» романининг сюжет ва композициясида бот-бот учрайдиган «муаллиф нутқи ва стилизацияга учраган персонажлар тили ўзаро муносабатини назорат қилиш бизга ғайритабиий жараён моҳиятини очишга ёрдам беради. Баъзи ҳолатда муаллиф контекстида ҳар хил персонажлар тили унсурлари ёйилиб кетиши ўзига ҳос бадиий қувватни ҳосил қилади. Бу стилистик йўналишда «ўзиники бўлмаган тўғри гап» дея номлайди» [14]. Олим томонидан кўрсатиб ўтилган «ўзига ҳос бадиий қувват» бу муаллиф нутқида қамраб олинган қаҳрамон баёни экспрессивлиги билан эмоционаллигида янада қабариб кўринади. Ушбу мақалонинг муаллифи З.Бекбергеновнинг қатор илмий ишларида [3] икки овозли нутқ тушунчасига алоҳида диққат қаратилиб, қорақалпоқ адабиётшунослигида илк бор ушбу нутқ типининг инсон психологиясини бадиий кашф этишдаги бадиий-эстетик вазифаси 1980-2010-йиллар қорақалпоқ романларидан олинган аниқ мисоллар ёрдамида ўрганилди.

Насрий асарларнинг тилини ва стилини ўрганишда икки овозли нутқ категорияси муаллиф нутқи ва персонаж нутқи билан баробар тарзда ўрганиладиган бадиий нутқ шаклларида бири ҳисобланади. Бироқ муаллиф нутқи билан персонаж нутқи қоришуви натижасида пайдо бўлган икки овозли нутқ типи қорақалпоқ тилшунослиги ва адабиётшунослигида жорий кунга қадар етарлича тадқиқ қилинмаган. Юқорида қайд қилинганидек, ушбу масала бўйича рус, ўзбек, қозоқ филологияси жабҳасида жиддий изланишлар олиб борилиб, бадиий матн сюжет ва композицияси интизомиди тутган ўрни ойдинлаштирилган. Мавжуд истилоҳ тилшунослик ва адабиётшунослик учун муштарак ҳодиса эканлиги боис филологик нуқтаи назардан муносабат билдириш мақсадга мувофиқ. Бинобарин, икки овозли нутқ шакли (кейинги ўринларда биз шундай атаймиз – Б.З.) рус, ўзбек, қозоқ филологияси соҳасида кўпчилик тилшунос ва адабиётшунослар диққат марказида турганига қарамасдан, фанда атама сифатида «ўзиники бўлмаган тўғри сўз», «ёндош тўғри сўз», «икки овозли нутқ», «Ўзганинг гапи» каби ҳар хил истилоҳлар қўлланилмоқда. Масалан, ўзбек адабиётшуноси Н.Аҳмедов «Баён қилиш ва индивидуал услуб масаласи» номли номзодлик диссертациясининг «Муаллиф позицияси ва насрий сўз» деб номланган II бобнинг «Қаҳрамоннинг нутқида муаллиф муносабати» номли I фаслида насрий асар структурасида муаллиф ва персонаж нутқи бирикуви натижасида пайдо бўладиган сўз шаклини аниқлашда ва унга ном беришда олимлар томонидан ҳар хил фикрлар мавжудлигини эътироф этади: «Битта гапда, сўзда икки фикрнинг ифодаланиши жуда қадимий ҳодиса. Бу икки овозли нутқ ҳозирги замон бадиий прозаси сўзини ҳосил қилишда энг характерли хусусиятлардан ҳисобланади. Бу сўз кўринишини баъзи тадқиқотчилар (А.Н.Кожевников) «синтактик конструкция», «қаҳрамоннинг сўзини ифодалаш усули», бошқалари бўлса, «лингвистик форма», «бадиий нутқ стилистикаси», «нутқ поэтикаси» деб

номласа, Женева мактабининг вакили Шарл Боли бу ҳодисанинг интерлингвистик интернационал» характерини аниқлаб, бу ҳодисанинг формал тарафига, шаклий тил ифодаланишига нисбатан «фикр фигураси», «тил формаси» дея номлайди. Машхур олим М.Бахтин эса, икки овозли сўз ўзига ҳос хусусиятларини муайян тизим шаклида ўрганиб, унга аниқ ва лўнда таъриф беради. Икки овозли нутқ энг мураккаб сўз шакли ҳисобланади. Ёзувчи дунёқарашига ҳос муаллиф баёни ва персонажлар характерини ифодаловчи уларнинг ички ҳамда ташқи нутқига дахлдор сўз уйғунлашиб, ўзиники бўлмаган тўғри ривояни ҳосил қилади. Жорий ҳодиса муаллиф нутқидан ҳам, персонажлар нутқидан ҳам ажралиб туради. Баён қилиш аслида икки қатламлилиқ хусусиятига, яъни икки нуқтаи назар, жуфт овоз битта сўзда ифодаланиш хусусиятига эга ҳисобланади. Бошқача қилиб айтганда, сўз аслида III шахс тилидан баён қилинган учун ҳам муаллиф ва персонажлар нутқи битта конструкцияга жойлаштирилади. Шу боис ўқувчининг кўз ўнгида худди муаллиф нутқи бўлиб кўринади. Шунингдек, луғат таркиби, грамматик тузилиши ва модал бўёқдорлигига кўра, персонаж нутқига тегишли бўлади [2]. Лингвистик тадқиқотлар эса, қорақалпоқ тили синтаксисиди «Сўзловчи ёки муаллиф ўз нутқи ичида ўзганинг сўзи ва гапларини келтириб ҳам баён қилади. Ўзганинг гапини ўз сўзининг ичида баён қиладиган шахсга муаллиф деб аталади, у томонидан баён қилинган фикр муаллиф гапи ёки муаллиф нутқи деб аталади. Муаллиф гапи ҳамма вақт ўзганинг гапи (тўғри гап) билан бирга қўлланилади. Иккиланган бирлик ўз олдида шахсий синтактик бўлак сифатида бошқа гапли конструкцияни тузади. ...Ўзганинг гапи муаллиф томонидан ҳар хил шаклда берилиши мумкин. Муаллиф ўзганинг гапини ўз нутқи ичида ҳеч қандай ўзгаришсиз, дастлабки шаклини тўлиқ сақлаган ҳолатда ҳам, шаклини ўзгартириб, мазмунини сақлаш йўли билан ҳам беради. Шунингдек, ўзганинг гапини, фикрини муаллиф ўз нутқи билан бериши ҳам мумкин. Ўзганинг гапи ифода хусусиятларига мувофиқ: тўғри гап, ўзлаштирилган гап ва ёндош тўғри гап бўлиб учга бўлинади. Жорий ўринда ўзганинг гапи ифода шакли учинчи тури атамасига бир қур аниқлик киритишга тўғри келади. Ҳозирги туркий тилларда дастурий ўрганиш бўйича бошқа гапли конструкция учинчи тури рус тили синтаксисининг намунасида «ўзиники бўлмаган тўғри гап» (насобственно-прямая речь) истилоҳи билан қабул қилинган. «Ўзиники бўлмаган тўғри гап» атамаси рус тилидаги тушунча таржимаси сифатида олинган. Ушбу атама туркий тилларга таржима қилинганда, истилоҳ моҳияти кенгайтирилади ва назарий чалкашликка йўл очади. «Ўзиники бўлмаган тўғри гап» атамасини қай йўсинда тушуниш мумкин? Буни персонажнинг ўзиники эмас, муаллиф томонидан ифодаланганлигини англаймиз. Жорий ҳолатда ўзиники бўлмаган тўғри гап тўғридан-тўғри муаллифга дахлдорлек туюлади, лекин мушоҳада персонажниги эканлиги аёнлашади. Муаллиф персонаж ички ҳиссиёти, психологиясини тушуниб, унинг фикрини ўз гапи билан беради.

Демак, бадий асарлардаги муаллифнинг гапи билан ифодаланган ўзганинг гапини талқин қилганда, бу синтактик конструкция ифодасида персонажнинг ҳам, муаллифнинг ҳам мушоҳадаси иштироки аниқ, яъни икковига ҳам ёндош эканлиги маълум бўлади. Шу боис, ушбу синтактик конструкция ўзига ҳослигини ҳисобга олиб, «ўзиники бўлмаган тўғри гап» атамасини бироз ойдинлаштириб, «ёндош тўғри гап» истилоҳи билан алмаштириш мақсадга мувофиқ келади» [20.554]. Татар олими М.З.Закиевнинг татар адабий тили синтаксис ва пунктуациясини тадқиқ қилишида «ёндош тўғри гап» тушунчаси қабул қилинган [5.225]. Ўзганинг гапи юқорида қайд этилган уч тури ҳозирги адабий услубиятда, асосан бадий ижодда, публицистик ва илмий асарларда ҳам кенг қўлланилади. Шундай бўлса-да, кейинги йилларда бадий асар тили ва услубини тадқиқ этувчи тадқиқотларда, жумладан, атама рус олими М.М.Бахтин номлаган «икки овозли нутқ» тушунчаси ёрдамида қўлланилиши ўзбек насрининг бадий нутқ поэтикаси масалаларини билан маҳсус ўрганган Й.Солижонов тадқиқотларида учрайди. Олим «Нутқ ва услуб» (Т.,2002) илмий асарида бадий асар тузилишида муаллиф нутқи ҳар хил шаклларга эга бўлиши билан диққат-эътиборимизни тартади, рус ҳамда ғарб адабиётшунослигида ушбу сўз типининг ўндан зиёд шакллари ишлаб чиқилиб, «муаллифнинг ўзининг сўзи» (собственно-прямая речь автора), «ўзиники бўлмаган муаллифнинг тўғри сўзи» (несобственно-прямая речь автора), «ўзиники бўлмаган

муаллифнинг нотўғри сўзи»(несобственно-непрямая речь автора) каби атамалар билан аталган турлари кенг тарқалганлиги, лекин, ўзбек тилига таржима яхши чиқмаганлиги, чалкашликларга олиб келаётганлигини таъкидлаш баробарида бу сўз типларининг биринчисини «ўзининг тўғри сўзи» (собственно-прямая речь) фақат муаллифга тегишли бўлиб, баён қилинаётган сўз унинг ўзининг баёни ҳисобланади, унга ташқаридаги ҳеч бир шахснинг иштироқи йўқ. Жумладан, муаллифнинг ўзи тўғридан-тўғри ўқувчи билан суҳбатлашишга киришади. «Ўзиники бўлмаган тўғри сўз» дея номланган иккинчи шаклда (несобственно-прямая речь) нутқ жараёни асосан муаллиф томонидан олиб борилади. Лекин, унинг сўз тузилишида асарда иштироқ этувчи персонажлардан биттасининг сўзлари ҳам вақти-вақти билан аралашади. Тўғриси, сўз тўлалигича муаллифнинг ўзига хос бўлмай, унда бошқаларнинг ҳам ҳиссаси бор, ушбу иккинчи сўз шакли, яъни муаллиф нутқи тузилишига персонаж тилига тегишли сўзлар киритилгани, лекин унда илгари сурилган асосий ғоя, фикр, баён қилиш услуби, тузилиши муаллифга дахлдорлигини инобатга олиб, «билвосита муаллиф нутқи» ёки «субъектив муаллиф нутқи» деб аташ мақсадга мувофиқ [17.4-6], – дея ёзади. Қозоқ олими Х.Каримов «Қанатти тил» номли китобида бадий асар тили композициясини ташкил этадиган муаллиф нутқи, персонаж нутқи, икки овозли сўз категорияларини тадқиқ қилишга бағишланган ўқув қўлланмасида: «ёндош тўғри сўз» бирикманинг «тўғри сўз» номли қисми умуман мос келмайди. Бадий асардаги персонажларнинг тўғри сўзи билан жуфт ифода сўзнинг орасида модал-экспрессив бўёқдорлигида муштараклик мавжудлигига қарамасдан, кейингисида («икки овозли нутқда» – Б.З.) тўғри сўзга хос график белгилар кўштирноққа олиниб, чизиқча ёрдамида шакллантирилади, шу боис муаллиф сўзи ва ўзга нутқи орасидаги тафовут намоён бўлади. Шу жиҳатни ҳисобга олиб «жуфт ифода (қос үнли сөз – Х.К.) атамасини тавсия қиламиз» [7.71-72], – деган таклифни илгари сурса, биз ҳам муаллиф нутқи, қахрамон нутқи билан биргаликда келадиган бадий сўз шакли учинчи турини «икки овозли нутқ» атамаси билан номлашни мақсадга мувофиқ санаймиз.

Юқоридаги мушоҳадаларни умумлаштирган ҳолда, шуни таъкидлаш жоиз. Эпик талқин структурасида муаллиф нутқи, қахрамон нутқи, икки овозли ривоя янглиф баён шакллари мулоқот жараёни услубиятининг асосий тушунчалари ҳисобланади. Бинобарин, мавжуд ифода тарзи ранг-баранглиги бадий матн ихчамлиги, лўндалиги ҳамда серқатламлилигини таъминлаб, тил ва асар компонентлари уйғунлашувига замин ҳозирлайди. Муаллиф нутқи, қахрамон нутқи, икки овозли баён категориялари асар тузилишида баён қилинган вокелик, қахрамонлар ҳаракати, уларнинг руҳий оламини турфа ракурслардан кузатиш, умумлаштириш ҳамда баҳолашга кенг йўл очади.

1. Қорақалпоқ романчилиги сўнгги паллада тубдан янгиланди. Ҳаёт ҳақиқатини бадий ифодага айлантиришда тасвир ташқи шамойилидан ички моҳиятга ўтишга мойиллик кучайди. Пластик шакл – роман жанри ижодий сарҳадларини кенгайтириш ҳамда теранлаштириш муайян адибнинг тил материалдан фойдаланиш маҳоратига бориб тақалади.

2. Ёзувчи китобхонга етказмоқчи бўлган бадий мушоҳадани соф муаллиф баёнида ёки қахрамон феъл-атвори, мулоқоти, қарашлари шаклида тасвирламасдан, ўрни-ўрни билан иштирокчи персонаж воситасида ҳам ифодалаш мумкин. Бинобарин, насрий баёнда учрайдиган жорий ривоя шакли мавжуд матнда икки овозли бадий нутқ динамикасини ҳосил қилади.

3. Бадий асар ҳар бир қахрамони ҳаётда ўз ўрнига эга бўлган инсон шахси бадий ифодаси ҳисобланади. Икки овозли нутқ типиди персонаж ҳаракати ва ҳолатини яхлит тасаввур қилишга йўл очади. Эпик талқинда икки овозли нутқни соф муаллиф баёнидан тафовутини тадқиқ қилиш муҳим назарий аҳамият касб этади. Шу боисдан, тарқоқ тарзда илмий изланишларда икки овозли нутқ шакли адабиёт ҳажмида адиб ижоди тағматнида тадқиқот объекти вазифасини бажариши қабариб кўринади.

4. Агарда, бадий асар структурасини текширишда икки овозли нутқ шаклларига илмий-назарий жиҳатдан эътибор қаратилмаса, эпик талқинда тасвир объекти ва идрок

субъекти аралашиб кетади. Жорий ҳолатда, персонаж нуктаи назари ва ҳаёт ҳақиқати монологик характер касб этади. Шу маънода, икки овозли нутқни муаллиф баёнидан ажратган йўсинда ўрганиш, биринчидан, ҳар битта ёзувчи шахсий услуб хусниҳатини тўлароқ очиб бериш имконини туғдирса, иккинчидан, ривоя техникаси бадий тил қонуниятлари ҳамда услубият такомилени кузатишга замин ҳозирлайди.

5. Асосан, миллий адабиётимиз тарихида ўз мавқеига эга ёзувчиларнинг адабий маҳоратини ўрганишда икки овозли нутқни мустақил муаммо сифатида ўрганиш масала моҳиятини ойдинлаштиришга хизмат қилади. Муаллиф баёнида жамулжам икки овозли нутқ кўринишлари ҳам ҳар бир адиб мақсад-муддаосига мувофиқ равишда услубий тафовутга эришади.

Фойдаланилган адабиётлар руйҳати

1. Ахмедов Н. Баён қилиш ва индивидуал услуб масаласи. Номзод.дисс. Тошкент, 1973.
2. Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Художественная литература. 1972. http://www.philosophy.ru/library/bahtin/01/p_6.html (дата обращения: 15.10.2013).
3. Бекбергенова З. У. Двуголосое слово как основной компонент речи прозаических произведений Т.Каипбергенова // Вестник Челябинского гос. педуниверситета. – Челябинск, 2013. – №8; Бекбергенова З. Эдебиятганыў илиминде еки ҳаўазлы сөздин үйренилиў мәселеси // Амударья. – Нукус, 2013. – №6; Бекбергенова З. Прозалық шығармалардың тилинде қос үнли сөздин көркемлик хызмети мәселеси // Билим булағы. – Нукус, 2012. – №3; Бекбергенова З.К.Мәмбетовтың «Посқан ел» роман эпопеясы контекстинде еки ҳаўазлы сөздин көркем-стилистикалық хызмети мәселеси // ЎЗР ФА Қорақалпоғистон бўлими ахборотномаси. – Нукус, 2014. – №4; Бекбергенова З.У. Қарақалпақ романларында көркем сөз поэтикасы. – Нөкис: Илим, 2016.
4. Жанпейисов Е. Қазақ прозасының тілі. – Алматы: Ғылым, 1968.
5. Закиев А.З. Хәзерге татар әдеби теле синтаксисе хәм пунктуациясе. – Казань: 1984.
6. Имомова Г. Типик миллий характерлар яратишда нутқнинг роли. Номз.дисс. – Тошкент, 1993.
7. Каримов Х. Қанатты тил. – Алматы. Санат. 1995.
8. Кожин В. Происхождение романа. Москва: 196.
9. Кожевникова А. Типы повествование в советской прозе. // Вопросы языка в современной русской литературы». – Москва: 1971.
10. Қайыпбергенов Т. Көздин қарашығы. – Нөкис. Қарақалпақстан. 1986.
11. Қурононов Д. Муталаа ва идрок машқлари. – Тошкент: Академнашр. 2013.
12. Мамажанов С. Ғафур Ғулам прозаси. – Тошкент: ФАН. 1966.
13. Мирвалиев С. Ҳамза прозаси // Ўзбек тили ва адабиёти. №2. 1979.
14. Нуржанов П. Дәўир талабы хәм көркем әдебиат. – Нөкис. Билим. 1993.
15. Орлова Е.И. Образ автора в литературном произведении. Учебное пособие. – М.: 2008.
16. Солижанов Й. XX асрнинг 80-90-йиллар ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Докт.дисс. Тошкент, 2002.
17. Солижонов И. Нутқ ва услуб. – Тошкент: «Чулпон», 2002.
18. Соколова Л.А. Несобственно-авторская речь как стилистическая категория. – Томск. Изд. Томского университета. 1968.
19. Сыздық Р. Сөз күдіреті. – Алматы: Атамура. 2005.
20. Хәзирги қарақалпақ тили Синтаксис. – Нөкис. Қарақалпақстан. 1986.
21. Фёдоров А. Язык и стиль художественного произведения. – М.-Л., 1963,
22. Чувакин А.А. Категория образа автора как инструмент интерпретации художественного текста // Межбуз.сб.науч.тр. Новосибирск. 2001.

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

G'aniyeva Dildora Azizovna
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Farg'ona filiali dotsenti, f.f.n.,
Turdiyeva Gulmira Akramjonovna
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

HIS-HAYAJONNI IFODALOVCHI BIRLIKLAR MILLIY XARAKTER VA MILLIY MENTALITET MAHSULI SIFATIDA

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-2-91>

ANNOTATSIYA

So'zlovchining turli xususiyatlarini o'zida mujassam ettiruvchi til milliy xarakter va milliy mentalitet tushunchalarini ham gavdalantiradi. Milliy madaniyati bir-biridan farq qiluvchi xalqlar milliy xarakterini til birliklari yordamida qiyoslasak, bir qator qiziqarli va takrorlanmas ifoda uslublarining guvohi bo'lamiz. Inson ruhiy kechinmalari, xarakteri ham tilning ana shu "xizmati" tufayli ro'yobga chiqadi va ma'lum bir lisoniy ko'rinishlarga kiradi. Turli madaniyat vakillariga xos ruhiy holatlar, ichki kechinmalar va milliy xarakterni lisoniy voqelantirish turli tillarda bir-biridan farqlidir. Mazkur maqolada ham his-hayajonni ifodalovchi birliklar milliy xarakter va milliy mentalitet mahsuli sifatida keng yoritib berilgan. Ushbu yo'nalishda ish olib borgan ko'plab tilshunos olimlarning qarashlari tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: til, his-hayajon, milliy xarakter, milliy mentalitet, millat, urf-odat.

Ганиева Дилдора Азизовна
Доцент Ферганского филиала
Ташкентского университета информационных технологий, к.ф.н.,
Турдиева Гульмира Акрамжоновна
Преподаватель Ферганского государственного университета

ЕДИНИЦЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ЭМОЦИИ, КАК ПРОДУКТ НАЦИОНАЛЬНОГО ХАРАКТЕРА И НАЦИОНАЛЬНОГО МЕНТАЛИТЕТА

АННОТАЦИЯ

Язык, который воплощает в себе разные качества говорящего, он также воплощает концепции национального характера и национального менталитета. Если мы сравним национальный характер народов с разными национальными культурами с использованием языковых единиц, мы станем свидетелями ряда интересных и уникальных способов выражения. Духовное переживания и поведение человека также возникают из-за этой «службы» языка и принимают определенный лингвистический вид. В этой статье также широко рассматриваются единицы, выражающие эмоции, как продукт национального характера и национального менталитета. Тема анализируется на основе взглядов многих ученых-лингвистов, работающих в этой области.

Ключевые слова: язык, эмоция, национальный характер, национальный менталитет, нация, традиция.

Ganieva Dildora Azizovna

Docent of Fergana Branch of Tashkent University of
Information Technologies, PhD

Turdieva Gulmira Akramjonovna

Teacher of Fergana State University

LANGUAGE UNITS EXPRESSING EMOTIONS AS A PRODUCT OF NATIONAL CHARACTER AND NATIONAL MENTALITY

ANNOTATION

Language embodying different characteristics of a speaker, it represents the concepts of national character and national mentality as well. If we compare the national character of people with national customs using linguistic units, we can witness many interesting and unique ways of expression. Human mental experiences and character are also realized due to this function of language and become a certain linguistic appearance. The moods, inner experiences, and national character of representatives of various cultures differ in linguistic expression. This article also presents the language units expressing emotions as a product of national character and national mentality. The issue is analyzed on the basis of the views of many linguists investigated in this field.

Key words: language, emotion, national character, national mentality, nation, tradition.

Til hech qachon insoniyatdan xoli mavjud bo'la olmaydi va, albatta, insoniyat ham uning yordamisiz taraqqiy eta olmaydi. Chunki til va inson tushunchalari bir-biridan ajratib bo'lmaz hodisadir. Tilda bizni o'rab turgan atrof-muhit o'z ifodasini topadi, shuningdek, u biz yaratgan madaniyatni ham o'zida aks ettiradi, saqlaydi va kelajak avlodlarga qoldiradi. Shuning uchun tilni madaniyat tashuvchisi desak ham bo'ladi. U shunday kuchga egaki, go'yo insoniyat uning oldida ixtiyorsiz qulga aylanadi. Chunki biz dunyoga kelar ekanmiz, o'z ona tilimizning ta'siri ostida borliqni idrok etamiz, tilimiz asragan madaniyatni qabul qilamiz va unga ergashamiz. E.M. Vereshagin aytganidek: "Odamzot rus yoki nemis yoxud yapon bo'lib tug'ilmaydi, balki unga mos ijtimoiy guruh doirasida o'sha millat kishisiga aylanadi"[1,61]. Shunday ekan, biz o'z tilimiz va u ichiga olgan madaniyatning mahsulimiz.

Til o'z so'zlashuvchilarini aks ettiradi, shu bilan birga ular tashkil etgan jamiyatning milliy xarakteri va mentaliteti ham unda o'z ifodasini topadi. "Mentalitet" tushunchasi tilshunoslik sohasiga kiritilganiga hali ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, hozirda juda keng doirada qo'llanilmoqda. Tor ma'noda mentalitet "fikrlash doirasi, dunyoqarash" mazmunida foydalanilsa, keng ma'noda esa xalqning axloqi, tarbiyasi va tasavvuri sifatida tushuniladi. Mentalitet tushunchasini tilshunos V. fon Gumboldt qarashlarida ko'rishimiz mumkin. Uning fikricha, mentalitet – bu xalqning nafaqat tilida, balki adabiyoti, dini va boshqa ma'naviy jabhalarida ham o'z aksini topgan xarakteridir. Shunday ekan, tadqiqot ob'yektimiz bo'lgan his-hayajonni ifodalovchi til vositalari xalqning urf-odatlarini, ijtimoiy qatlami, turmush tarzi, siyosati, tarixi, geografik o'rni va hatto dini bilan ham chambarchas bog'liq [2,285]. Mentalitet bu individ yoki ijtimoiy guruhning, millatning dunyoni ma'lum bir tarzda tushunish va harakat qilishga tayyorligi, moyilligidir. Jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur tarzi, ma'naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati, jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti, o'ziga xos an'analari, rasm-rusumlari, urf-odatlarini, diniy e'tiqod va irimlarini ham qamrab oladi. Jamiyat, millat, elat, yoki shaxsning mentalitetini o'rganish va aniqlash nihoyatda katta ehtiyotkorlikni hamda jiddiy yondashuvni talab qiladi. Mentalitetni faqat millatning soni, tarixining boy yoki qashshoqligi, millatning qaram yoki tobebo'lishi yoki kapitalistik formatsiyaga mansub emasligi bilangina aniqlashga urinish jiddiy xatolarga olib kelishi mumkin. Uni aniqlash uchun juda ko'p omillar e'tiborga olinishi va boshqa millatlardan farqlay

olish, ayni paytda qiyoslash, ushbu millatda yashab o'tgan shaxslar, turli shart-sharoitlar, tarixiy davrlar, millat ruhiyati va boshqa qator jihatlarni o'rganish lozim.

Yuqorida mentalitet so'zi lotinchadan tarjima qilinganda aql, fahm, zehn, idrok ma'nolarini anglatishini ta'kidlab o'tgan edik. Har bir millatning aqli, idroki, fahm-farosati uning yashab turgan shart-sharoitlari, tarixi, qanday xalqlar qurshovida istiqomat qilishi, ijtimoiy faolligi va boshqa omillar bilan bog'liq. Milliy xarakter tushunchasi o'rganish obyekti sifatida murakkab, ammo o'rganish mumkin bo'lgan ijtimoiy leksik hodisadir. U millat hayotidagi tarixiy kategoriya bo'lib, uni o'rganish, tushuntirib berish uchun bevosita o'sha millat tilini, tarixini, ruhiyatini, hayotini, madaniyatini ham yaxshi bilish zarur.

Har bir xalq butun xususiyatlari bilan olingandagina betakror bo'lib ko'rinishi mumkin, uning har bir etnik xususiyati alohida olib ko'rilsa, mutloq noyob xususiyat bo'la olmaydi. "Emotsional holatlatni ifodalovchi til birliklarini o'rganishdagi murakkablik va chalkashliklar, - deb ko'rsatadi I.S.Kon, - ko'pincha millatlardagi umumiylik va xususiylilik, mushtaraklik va alohidalikni tushunmaslik natijasida vujudga keladi". Uning ta'kidlashicha, bu milliy xarakter bilan uzviy bog'liq bo'lib, milliy xarakterning u yoki bu xususiyatini ko'rsatganda, albatta u nisbatan olib o'rganilishi kerak. "Rus milliy xarakteriga bag'ishlangan ishlarda, - deb yozadi I.Kon, - ko'pincha ularda emotsional vazminlik, deb ataladigan xislat ko'rsatiladi. Agar italyanlar bilan taqqoslanganda to'g'ri, qo'shilaman. Lekin faqat finlar yoki estonlar bilan taqqoslaganda emas"[3, 215].

Emotsional til biliklarini o'rganuvchilar, milliy xarakterda keltirilgan emotsional holatlarning qaysi biri birorta xalqda yoki millatda mavjud emas, deb savol qo'yishadi. Bu sohani o'rganishda tadqiqotchilar uchraydigan qiyinchilik ham mana shunda. Darhaqiqat, emotsional holatlarning qaysi bir xususiyatini olib ko'rmaylik, albatta u barcha xalqlar va millatlarda ham mavjud ekanligini ko'ramiz. Xo'sh, millat o'zi nima? Millat-arabcha (xalq) kishilarning yagona tilda so'zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatiga ega bo'lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi. Millatning tili esa uning madaniyatini aks ettiruvchi ko'zgu hisoblanadi. Tilshunos Ter-Minasova takidlaganidek, tilni va insoniyatni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Bularning ikkisi ham bir-birisiz mavjud bo'la olmaydigan tushunchalardir [4, 264]. Demakki, insoniyatni ham, u yaratgan madaniyatni ham tildan xoli ravishda o'rgana olmas ekanmiz. Til bizni o'rab turgan olamni o'zida aks ettiradi, biz yaratayotgan madaniyatni ko'rsatib beradi va uni ajdodardan avlodlarga o'tishini ta'minlayi. Demak, u insoniyat tafakkuri, mentaliteti, dunyoqarashi, milliy xarakterini o'zida mujassam etgan madaniyat yaratuvchisi ekan. Umumiy turmush tarziga ega, bir tilda so'zlashuvchi odamlar majmuini xalq deb, odamlarning o'zini insonlar sifatida anglab, muayyan maqsadlar atrofida ongli uyushgan holatini esa millat deb ataladi. Millat so'zining mohiyatida e'tiqod yo'lida birlashganlar maslagi, g'oyasi yakdil fidoiylar degan mazmun mujassamdir. Xalq millatga nisbatan tarqoq tushuncha bo'lib, ko'proq o'zini etnik jihatdan himoya qilishga intiladi va shu ko'lamlarda uning faollik darajasi cheklanadi. Millatga aylangan xalq esa o'z-o'zini siyosiy, ma'naviy, axloqiy, intellektual, mafkuraviy jihatlardan himoya qiladi. Millatga aylangan xalq tarkibidagi insonlar ozod va shijoatkor, doimiy o'sish, o'zgarishlar ishtirokida yashaydi.

XIX asrda milliy xarakterni tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Bu borada qator izlanishlar olib borgan etnopsixolog olimlar o'z asarlarida milliy xarakterning real voqelik sifatida mavjudligini e'tirof etgan. E.From Angliya tarixini o'rganar ekan, fransuz va nemislarda bo'lmagan o'ziga xos mustaqillik, o'ziga ishonch xususiyatlari inglizlarda rivojlanganini ko'rsatib beradi. Ingliz milliy xakteri nemislarnikidan ham, shuningdek fransuzlarnikidan ham keskin farqlanadi, - deb yozgan edi u [5,85]. Ammo buni inkor etuvchilar milliy xarakter mavjud emas degan fikrni olg'a suradilar va qardosh xalqlar orasida tafovut bo'lmaydi, ularning milliy xarakterida farqni ko'rsatib beringchi, deyishadi.

Diqqat qilib o'rganish va tekshirish jarayonida hamma xalqlarning milliy xarakterida bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlar borligini payqab olish mumkin. Milliy xarakterdagi bu farqlarni hatto kundalik hayotimizda ham ko'p uchratamiz. Xalqlarning turlicha xarakter xislatlariga ega bo'lishligi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy tajribasi, tarixiy taraqqiyoti va tabiiy yashash sharoitlari bilan belgilanadi. Bunda ijtimoiy munosabatlar milliy xarakter rivojlanishida yetakchi o'rinni

egallaydi. Har bir tarixiy davr, shu davrdagi ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida milliy mafkura manfaatlariga mos bo'lib tushadigan o'z milliy xarakter idealini yaratadi. Shu davrdagi xarakter tipi, ruhiy holatlar kishilarning yashash tarzini aks ettiradi. Xalqning butun tarixi davomida orttirgan har bir xarakter hislatlarining vujudga kelishi kishilar ruhiyatiga atrofda voqeliklarning uzoq vaqt davomida ta'sir etib turishi bilan bog'liqdir. Milliy xarakterga qanday ruhiy xislat va sifatlarni kiritish mumkin? Shuni ta'kidlash kerakki, "milliy xarakter" tushunchasi haqida hali ham umumiy bo'lgan bir xil qarash mavjud bo'lmasada, lekin unga kiruvchi xislatlar to'g'risida umumiy bo'lgan fikrlar mavjud. Ko'p tadqiqotchilar milliy xarakterga, mehnatga munosabat (mehnatsevarlik), vatanparvarlik, erksevarlik, jangovorlik, dovyuraklik kabi xislatlarni kiritishadi. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi xislat va sifatlar bilan bir qatorda milliy xarakter tarkibiga yana millatning boshqa xalqlarga bo'lgan munosabati va shu millat vakillarining o'zaro munosabatlarini belgilovchi xususiyatlar ham kiradi. Bu esa bevosita shu xalqning tilida, boy madaniy merosida o'z aksini topadi. Milliy xarakterni tadqiq etishdagi asosiy qiyinchilik shundaki, bir xalqqa yoki millatga xos bo'lgan xislatlar boshqa millat vakillarida ham uchrashi mumkin.

Darhaqiqat, hissiy holatlarning qaysi bir xususiyatini olib ko'rmaylik, albatta u barcha xalqlar va millatlarda ham mavjud ekanligini ko'ramiz. Masalan, baxt, quvonch, kulgu, tabassum, sog'inch, sevgi-muhabbat kabi hissiy holatlar hamma xalqlarga xos bo'lgan xususiyat bo'lgani holda, bular o'zining namoyon bo'lishi, tuzilishi jihatdan barcha xalqlarda bir xil kechmaydi. Zero, xarakter xislatlarini keltirib chiqaruvchi yashash tarzi, tarixiy taraqqiyot va faoliyat sharoitlari aynan bir xil bo'lmaganligi sababli, yuqoridagi emotsional holatlarning namoyon bo'lishi ham ularda aynan bir xil bo'lolmaydi. Masalan, Kavkazdagi tog'li xalqlarni o'rgangan tadqiqotchilar ularda jangovorlik, mag'rurlik, jizzakilik kabi his-hayajon holatlarining kuchli ekanini e'tirof etishadi. Ulardagi bu xaraktertog'li xalqlarning tashvishli va xavf-xatarga to'la hayotiga moslashish zaruriyati natijasidir. Demak, insoniyat ruhiyatining shakllanishida, avvalo, yashash sharoitining ham ta'siri kuchli ekan. Bunga yana misol sifatida Gollandiya xalqlarini olaylik. Ularning yashash sharoiti doimiy mehnatni va yerga ishlov berishni talab qiladi, shu sababli, ularning milliy xarakterida tirishqoqlik va sabot bilan mehnat qilish xislatlari birinchi o'rinda turadi. Gollandlar o'z farzandlarini ham shu ruhda tarbiyalashga alohida e'tibor qaratar ekanlar va bolalariga kaftlaridagi egri-bugri chiziqlarni ko'rsatib, "M" man - odam, "W" work - mehnat deb yoshligidanoq uqtirar ekanlar. Qarangki, bizning o'zbek xalqimiz ham mehnatsevarlik xislatini juda ulug'laydi. Chunki qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz dehqonchilik, chorvachilik, mirishkorlik bilan shug'ullanib kelganlar va bu mehnatkashlik bizning qonimizda ham saqlanib qolgan xarakterimizning bir qismidir. Yana shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, har bir xalqning mehnatsevarligi turli ko'rinishda kechadi. Masalan, o'zbeklar ham, qozoqlar ham, ikkalasi mehnatkash xalq. Lekin ularning mehnatsevarligi faoliyatining turli sohalarida turlicha namoyon bo'ladi. O'zbeklarda u dehqonchilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanish jarayonida namoyon bo'lsa, qozoqlarda esa chorvachilik bilan bog'liq mehnatlarda ko'rinadi. Bir necha asrlar davomida o'zbeklar dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan, shu boisdan ularda mahsulot ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lgan yerga nisbatan ehtiyotkor, tejamkorona munosabatda bo'lish, unga bo'lgan mehr-muhabbat xususiyatlari vujudga kelgan. Shu boisdan, o'zbek nutqida ona-yer, ona-tuproq, ona-zamin kabi yerni ulug'lovchi iboralarga ko'plab duch kelamiz. Bu o'zbek milliy xarakterining lisonda aks etgan bir namunasi, xolos. Agar biz millatga xos hissiy holat va mentalitetni tildagi aksini chuqurroq tahlil qilib o'rgansak, bundanda ko'proq namunalariga duch kelamiz. Yer yuzidagi har bir xalq o'ziga xos ruhiy holatlarni namoyon etadi. Ammo, bu milliy xarakterni mutloqlashtirib yuborish kerak degani emas. Boshqa xalqlarda va millatlarda uchramaydigan, faqat bir xalqqagina hos bo'lgan sof emotsional holatlar umuman uchramaydi. Milliy xarakterga oddiy shaxslar xarakterining yig'indisi deb qarash ham noto'g'ri. U ommaviy fenomen sifatida, individual xarakterlarning umumiy bo'lgan xislatlari ijtimoiy jihatidan qayta ishlanib, yangi, maxsus sifatga aylangan vaqtda tarkib topib namoyon bo'ladi. Masalan, xor ovozi hech bir xor qatnashchisining ovozigacha o'xshamagandek, milliy xarakter ham birorta millat vakilining xarakteriga o'xshamaydi, yoki millat xakteri hech bir millat vakilida tugalligicha aks etmaydi. Milliy xarakter o'zgaras, turg'un narsa ham emas. U tarix mahsuli. Shuning uchun ham uni vujudga keltirgan tarixiy, ijtimoiy,

iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi bilan u ham ma'lum darajada o'zgaradi, xatto bir ijtimoiy tizimning o'zida ham u ayrim xislatlarni yo'qotib, yangi xislatlarni paydo qilib turishi mumkin. Shuningdek, har bir xalq boshqa xalq bilan yaqin ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarga kirishganda undan o'zida yo'q narsalarni oladi va o'zidan ham ularda bo'lmagan narsalarni beradi. Lekin boshqa xalqlardan olingan bu xarakter xislatlari, millat vakillari tomonidan o'zlashtirilganda, aynan, o'zgarishsiz ko'chira olmay, o'ziga xos milliy ifodani oladi. Ma'lumki, har bir inson shaxs sifatida shakllanar ekan, faqat o'zi yashab turgan davrdagi ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida bo'lib qolmasdan, shuningdek, tarixiy tajribalar, ajdodlar tomonidan yaratilgan, to'plangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy meroslar, milliy qadriyatlar ta'siri ostida ham shakllanadi. Urf-odatlar va rasm-rusumlar — kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor, qoidalar va ko'nikmalar. Urf-odatlar va rasm-rusumlar har bir millatning o'ziga xos tizimini tashkil qiladi. Millat tomonidan turmush tarzining zaruriy sharti deb qabul qilingan. Urf-odat va rasm-rusumlarga befarq kishi o'zini o'z millatidan ajratib qo'yadi. Bunda, ayniqsa, har bir xalqqa xos bo'lgan milliy urf-odat va an'analarning roli kattadir. Shunday ekan, lingvokulturologiyaning asosiy o'rganish ob'ektlaridan bo'lgan milliy xarakterning tildagi ifodasini aynan o'sha urf-odat, an'ana, udum va turli marosimlarni atroflicha o'rganish, ularni vujudga kelishi, namoyon bo'lishi, saqlanishi va o'zgaruvchanligi kabi qonuniyatlarini ochib berish va tahlil qilish yordamidagina chuqurroq va batafsil o'rganish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, lingvokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni, o'zaro aloqalarni tadqiq etadi. Uning tadqiqot doirasidagi til barcha madaniyatlar uchun xizmat qiladi, madaniy-ma'naviy boyliklar, axborot manbalarini saqlaydi, ularni avloddan avlodga yetkazish hamda stereotip va etalon namunalarni shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. Tadqiqot doiramizdagi milliy xarakter ham tilning ana shu "xizmati" tufayli ro'yobga chiqadi va ma'lum bir lisoniy ko'rinishlarga kiradi. Biz madaniy xususiyatlarni, voqeliklarni, xarakterlarni tilning yordamisiz tahlil qila olmaymiz. Chunki inson va voqelik munosabatida til o'ziga xos bog'lovchi, vositachi rolini o'ynaydi. Til o'zida voqelikni aks ettiradi, madaniyat esa ushbu voqelikning ajralmas qismidir. Voqelikning o'zini ham milliy deb atash mumkin va bu milliylik lisonda dunyoni o'ziga xos "ko'rish", uni idrok etish natijasida o'z aksini topadi. Turli xalqlarga xos emotsional holatlar esa o'sha xalq vakillarining tafakkur jarayonida o'ziga xos madaniy senariylarni yuzaga keltiradi. Shu sababli ham turli madaniyat vakillariga xos "emotsional holatlar" lisoniy voqelantirishda bir-biridan farqlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Верецагин Е. М. Костомаров В. Г. Лингвострановедческая теория слова. – М., 1980, 61 с
2. Гумбольдт В. Язык и философия культуры / В. Гумбольдт. М., Прогресс, 1985, 285 с
3. Кон И. С. Национальный характер – миф или реальность? // Иностранная литература. 1968. № 9. С. 215-229
4. Тер Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация // С. Г. Тер Минасова. – М., 2000. 264 с
5. Фром Э. Душа Человека. М, 1992
6. Foolen A. The expressive function of language: Towards a cognitive semantic approach // The Language of Emotions. Conceptualization, Expression, and Theoretical Foundation. Amsterdam/Philadelphia, 1997. – P.15
7. Shakhovskiy V., Zhura V. Deixis in Emotive Speech // Questions of General Linguistics. – 2002. – № 5. – P. 38-57.
8. Shakhovskiy V. Types of Emotive Vocabulary // Questions of General Linguistics. – 1994. – № 1. – P. 20-25.
9. Wierzbicka A. Emotions across language and cultures: diversity and universals. – Cambridge University Press, 1999. – P. 345

10. Wierzbicka A. *Semantics, Culture and Cognition. Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations* / Anna Wierzbicka. – New York : Oxford : Oxford University Press, 1992. – 487

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Мусаева Шахло Қудратовна

Навоий давлат педагогика институти, докторанти

ye-mail:musaeva.shaxlo@mail.ru

ЁНДОШ ПРОТОТИП ОБРАЗ АСОСИДА ЯРАТИЛГАН ҚИССА



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-2-92>

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Носир Фозиловнинг “Қуш қаноти билан” қиссасининг асосий қаҳрамони “Ўзбек шоиралари” асарининг муаллифи, ўзбек адабиёти учун керагича жон фидо қилган шахс Тўхтасин Жалоловнинг ҳаёт йўли асносида прототип асосида бадий образ яратиш бағишланган. Шеърятда ранг-баранглик яққол сезилиб туради, насрда буни англаш, сезиш учун асарни моҳиятан тушуниш зарурдир. Насрда ўқувчининг ёдида қоладиган, уни ҳаяжонлантирадиган, керак бўлса, мутолаа эгасини ҳаёт олаmidан бадий оламга олиб кира оладиган восита бу - асар қаҳрамони, адабиётшуносликда “ижобий” ва “салбий” деб номланадиган образлардир. Келтирилган мақоламиз билан биз ҳаёти ибрат бўла оладиган образ билан ўқувчини таништирамиз.

Таянч сўзлар: Образ, адабиёт, прототип образ, чизик, тарихий, автобиографик, ижобий, салбий, бадий асар, композицияси.

Musaeva Shaxlo Qudratovna

Navoi State Pedagogical

Institute, doctoral student

A STORY CREATED ON THE BASIS OF A PROTOTYPE IMAGE

ANNOTATION

This article is dedicated to the creation of an artistic image based on a prototype in the life of Tokhtasin Jalolov, the author of the work "Uzbek poets", the protagonist of Nosir Fozilov's story "With the wings of a bird", a man who gave his life for Uzbek literature. Variety is evident in poetry, and in prose it is necessary to understand the essence of the work in order to understand it. In prose, the protagonist, the so-called "positive" and "negative" images in literary criticism, are the means by which the reader can remember, excite, and, if necessary, take the reader from the world of life to the world of art.

Keywords: Image, literature, prototype image, line, historical, autobiographical, positive, negative, work of art, composition.

Мусаева Шахло Қудратовна
Навоийский государственный
педагогический институт, докторант

ИСТОРИЯ СОЗДАНА НА ОСНОВЕ ПРОТОТИПА ОБРАЗА

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена созданию художественного образа по прототипу из жизни Тохтасина Джалолова, автора основного произведения повести Носира Фозилова «С крыльями птицы» «Узбекские поэты», человека, подарившего жизнь для узбекской литературы. В стихах очевидно разнообразие, а в прозе необходимо понимать суть произведения, чтобы понять его. В прозе главный герой, так называемые «положительные» и «отрицательные» образы в литературной критике, являются средством, с помощью которого читатель может вспомнить, взволновать и, при необходимости, увести читателя из мира жизни в мир, искусства.

Ключевые слова: Образ, литература, образ-прототип, линия, исторический, автобиографический, позитив, негатив, произведение искусства, композиция.

Адабиёт улкан бир маънавий хазинадир. Ушбу хазинадан бахра олиш қалбимизда энг соф инсоний фазилатларни кучайтиради, онгимизга таъсир қилиб, шахс сифатида шаклланишга ундайди. XX аср сўнгида бадий йўналишларнинг шиддат билан ўзгариши ва янгиланиши жараёни кўзга ташланади. Адабиёт изланишлар палласига кирди, янги аср адабиёти бугунги мураккаб даврда яшаётган инсоннинг ҳаётини енгиллаштирадиган, унга мазмун бахш этадиган концепсия ахтармоқда. Инсон ва дунё ҳақидаги қарашлар хилма-хиллиги адабий йўналишларнинг ранг-баранглигини ҳам белгилайди. Шеърятда бу ранг-баранглик яққол сезилиб туради, насрда буни англаш, сезиш учун асарни моҳиятан тушуниш зарурдир. Насрда ўқувчининг ёдида қоладиган, уни ҳаяжонлантирадиган, керак бўлса, мутолаа эгасини ҳаёт оламидан бадий оламга олиб кира оладиган восита бу - асар қахрамони, адабиётшуносликда “ижобий” ва “салбий” деб номланадиган образлардир.

Маълумки, «образ» атамаси «раз» («чизик») сўзидан олинган бўлиб, «раз» сўзидан «разит» («чизмоқ, ёнмоқ, ўймоқ») ва ундан «образит» («чизиб, ўйиб, йўниб шакл ясамоқ») сўзи ясалган. «Образит»дан «образ» («муман олинган тасвир») вужудга келган. «Аслида «образ» славян тилларига хос сўз бўлиб, у воқеа-ҳодисаларнинг ҳаёлда намоён бўладиган манзарасини билдиради. Славянлар «образ» деганда, аввало, одамзодни азоб-уқубатлардан сақлаб қолиш учун Аллоҳ томонидан юборилган Иисус Христос (Исо пайғамбар)нинг рассомлар, ҳайкалтарошлар тасвирлаган қиёфасини тушунишган»[2,33- бет].

Одамларнинг ҳисларини кўзгатиш, «туйғуларимиздаги тўлкинларни» уйғотмоқ орқали ҳаяжонлантириш, яъни эстетик таъсирдорлик адабиётнинг вазифаси экан, демак, бадий образ мағзи тўқ, ҳаётий, умрбоқий бўлгандагина бадий қийматга эга бўлади, образ яратишга ўтади: ундан ҳаяжонланиб ўртак оламиз ёки нафратланамиз, ҳис-туйғуларимизнинг яхшилари (ижобийлари)га «озик» берамиз, ёмонлари (салбийлари)ни етти қават чуқурга кўмамиз. Қалбнинг самимий тасвиридан таъсирланиб баъзан йиғлаймиз, енгиллашамиз, тозаланамиз.

Образ «бадий тўқима ёрдамида яратилган, эстетик қиймат касб этган инсон ҳаётининг умумлашма ва айни чоғда, аниқ манзарасидир»[2,34-бет]. Демак, образ кенг маънодаги тушунча бўлиб, бадий асардаги ўқувчининг асосий суҳбатдоши ҳисобланади. Биз ушбу мақолада персонажларга хос прототип образ ҳақида сўз юритамиз.

Прототип асосида бадий образ яратиш. Прототип (юнон. протос — илк, дастлабки; тупос — намуна, нишона) — бадий образ учун асос, нуқта бўлади. Ҳаётда мавжуд бўлган тарихий ёки замондош шахсга таяниб ёзувчи образ яратар экан, албатта, юқорида таъкидланган образ яратишнинг барча унсурларидан фойдаланади. «Агар бадий образни жонли организм деб фараз қилинадиган бўлса, прототип — шу организмнинг

скелети, бадий тўқима — унинг эти, эстетик идеал эса қони-жони. Тирик организмнинг этини скелетидан, скелетини қони-жонидан ажратиб бўлмаганидек, бадий образ «организми»даги прототип бадий тўқимадан, бадий тўқимани эстетик идеалдан узиб олиб бўлмайди. Улар бир-бирларига пайвандлашиб, қўшилиб-чатишиб кетади». «Зайнаб ва Омон»даги Зайнаб, «Ўткан кунлар»даги Мусулмонқул чўлок, «Навоий» романидаги Алишер Навоий, «Юлдузли тунлар»даги Бобур каби қатор образлар ана шу йўналишнинг ихтироларидир»[1,53-бет].

Прототип асосида образ яратиш асосан тарихий ва автобиографик асарларда яққол кўзга ташланади. Масалан П.Қодировнинг “Юлдузли тунлар”, “Авлодлар довони” романлари, Ойбекнинг “Болалик” қиссаси шундай асарларнинг ёрқин намуналари бўлиб, бу асарлардаги Бобур, Хумоюн, Шайбонийхон, Гулбадамбегим, Муса, Дадақўзи, Аъзам... каби қаҳрамонларнинг ҳар бири ҳаётда яшаган тарихий шахслардир. Бу асарларни ўқиганингизда яққол тарих билан бевосита қаҳрамонлар кўз олдингизда гавдаланади. Ўқувчи бу қаҳрамонларни асарни ўқиш жараёнида яшаб ўтганлигини билиб туради. Аммо биз сўз юритмоқчи бўлган “Қуш қаноти билан” қиссасидаги прототип асосида яратилган образни ўқувчи бир қараганда англай олмайди, чунки ушбу образ айнан ҳаётини номи билан берилмаган. Н.Фозиловнинг “Қуш қаноти билан” қиссасининг қаҳрамони Акмал.

Акмал ака: - Бошидан гапириб бермасам тушунмайсиз, муллака, - деди-да, Акмал ака жойлашиб ўтириб чойдан бир ҳўблаб, гапида давом этди. - Мен ҳали айтганимдек, катта мактабда адабиётдан дарс берардим. Ориф деган бир бола ўзини менга жуда яқин тутиб юрарди. Ўнинчи синфни ҳам ўз қўлимда тугатди...

- Қамашдими-я! - деди Пўлат амаким, гўё Акмал акамнинг турмадан бўшаб келаётганини унутгандек. - Шунақа-я?...[4,243-бет]

Қиссадан олинган парчада гувоҳи бўлганингиз Акмал ака ҳаётда яшаб умргузаронлик қилган бу қаҳрамон аслида, ўзбекнинг ҳақиқий ўғлонларидан бири, “Ўзбек шоирлари” асарининг муаллифи, навоийшунос, “Хамса” талқинлари”, “Паҳлавон Маҳмуд”, “Олтин қафас”, “Яшасин табассум” каби асарларни ёзган ижодкор Тўхтасин Жалолов эди. Тўхтасин Жалолов ўзбек адабиёти учун керагича жон фидо қилган шахслардан биридир. Носир Фозилов қиссада Тўхтасин Жалолов қиёфасини Акмал ака образи орқали ёрқин очиб берган. Асар айнан Тўхтасин Жалоловга бағишланганини Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, таржимон Низом Комил “Носир Фозилов замондошлар хотирасида” хотиралар китобида шундай эслайди:

“-Ўтиринг, Гратсио,- деди Носир ака. - Бу одамни танийсизми?

- Йў-йўк... Танимай турибман...

- Тўхтасин Жалолов!

Ёппирай! Тўхтасин Жалолов шу одам экан-да....

“Ўзбек шоирлари”дан мутаассир бўлиб, муаллиф билан танишиш орзусида юрган кезларим эди.

Сўрашган бўлдик.

Домла бошига тушган кулфатларни Носир акага сўзлаб бераётган экан. Гап шундаки, Тўхтасин домла қатағон йиллари йигирма беш йил муддатга собиқ Иттифокнинг энг совуқ ўлкаларидан бири Магаданга бадарға қилинади... Айтмоқчиманки, Тўхтасин Жалолов билан танишувимга Носир ака сабабчи бўлган. Ҳа, айтгандай, Носир аканинг “Қуш қаноти билан” деган қиссаси Тўхтасин домланинг кечмишларига бағишланган”[3,27-28 бет].деб эслайди Низом Комил.

Бадий асарнинг жозибаси шундаки, ундаги иккинчи ёки учинчи даражадаги образларнинг ҳам ўз ўрни бўлади ва улар қайсидир жиҳати билан ўқувчининг ёдида қолади. Китобхон баъзан ўша образлар устида ҳам фикр юритади. “Қуш қаноти билан” қиссасидаги Акмал ака образини ана шундай китобхоннинг ёдидан чиқмайдиган образлар силсиласига киргизамиз.

Амеркалик машҳур ёзувчи Марио Пьюзонинг “Чўқинтирган ота” ва ўзбек ёзувчиси Тоҳир Маликнинг “Шайтанат” асарлари композицион қурулмасида муҳим ўрин тутувчи

ёндош образлар мавжуд “Чўқинтирган ота”даги дафн идорасининг бошлиғи Америго Бонасера ва “Шайтанат”даги кўшиқчи элчинлар ана шундай образлар сирасига киради. Уларнинг эса қоладиган жиҳати шуки, улар ор-номус ва инсоний ғурур учун курашдек юксак ахлоқий тушунчаларга боғлаб бадий талқин этилади.[6,85-бет]

Носир Фозилов Акмал акани ҳам ана шундай ёндош бўлиб китобхонни ёдидан чиқмайдиган қилиб тасвирлаган. Ёзувчининг ҳаётга ёндашуви, нуқтаи назари, турмушга, адабиётга, даврга, одамларга бўлган қарашлари у яратган асарлар ва қаҳрамонлар табиатида у ёки бу тарзда намоён бўлади. Носир Фозилов адабий суҳбатлари, турли муносабатлар билан ёзган хотиралари, публицистик чиқишларида ҳаёт, адабиёт, давр ва қаҳрамон муаммоларига кўп бор эътибор берган. Шулар асосида ёзувчи ижодига биографик метод тамойилларига мувофиқ ёндашиш ушбу тадқиқотимизга бой материал бера олди.

Асар мутолааси давомида китобхон бир муҳим ғояни, яъни ижтимоий ва ахлоқий чекловлар, қонун-қоидага риоя қилиб, унинг доирасида иш кўриш, одамларга, атрофдагиларга нисбатан самимий ва дўстона муносабатда бўлиш ҳар бир инсон учун туғма, табиий хусусият эмас, балки у инсонларнинг турмуш давомида ортирган энг олий хулқи эканлигини ёзувчи моҳирона акс эттира олган мана шу прототип образ(Акмал ака) орқали англаб етади.

Жамлаш ва прототип асосида яратилган образларнинг жамини адабиётшунослик фани шартли равишда хилма-хил гуруҳларга ажратиб ўрганади. «Одамлар дарёдек гап: ҳаммасининг суви бир хил, ҳамма жойда ўша сув, лекин дарё гоҳ кенг бўлади, гоҳ тор, гоҳ тез оқади, гоҳ секин, суви гоҳ тиниқ бўлади, гоҳ лойқа, гоҳ совуқ, гоҳ илиқ болади. Одамлар ҳам шундай...»[5,20-бет] (Л. Толстой). Шу сабабли бадий образлар ҳам жудаям ранг-баранг, турфа хилдир. Бадийлик деганда, воқеликни ҳаётий, жонли картиналарда, ўқувчида эстетик завқ, жонли тасаввур уйғотадиган қилиб тасвирлаш даражаси тушунилади ва у бадий асар композицияси, сюжет, ғоя, образлар, характер ва турли бадий воситалар каби тушунчалар билан боғлиқ.

Хулоса шуки Носир Фозиловнинг “Қуш қаноти билан” қиссаси адиб Тўхтасин Жалоловга бағишланганлигини адабиётшунослар билиши мумкин, аммо айрим китобхонларимиз билмайди. Биз ушбу мақола орқали “Қуш қаноти билан” қиссасида бош қаҳрамондан бири Акмал ака образининг адабиётимиздаги ёндош прототип образнинг ёрқин намунаси эканлигини китобхонлар оmmasига маълум қилдик.

Бинобарин, бадий асар моҳиятини тушунганимиздагина, биз муаллифнинг эстетик оламига кириб, бадий асар завқидан тўла баҳраманд бўламиз. “Қуш қаноти билан” қиссаси орқали биз анашундай завқни туямиз.

Адабиётлар

1. Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш курси бўйича ўқув-методик қўланма. – Тошкент: Ўқитувчи нашриёти. 1999.
2. Умурув Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Халқ мероси, 2004.
3. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. -Т.: Ўзбекистон, 1995
4. Носир Фозилов замондошлар хотирасида. – Тошкент: Машхур-пресс, 2019.
5. Фозилов Н. Саратон. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2006.
6. Жаҳон адабиёти. Тошкент: 2005-йил. №1
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. А-Бешбалиқ.-
8. Мўминова Н. Адабиёт назариясидан илк қўлланма // Ўзбек тили ва адабиёти. -1999.-№4.-
9. Ўзбек тили ва адабиёти. Ўзбекистон Фанлар Академияси Ўзбек тили, адабиёти ва фолклори институти. Тошкент: 2015-йил. №1
10. <https://ziyouz.uz/uzbek-nasri/nosir-fozilov/>

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Axmedov Umidjon Usubovich
Qo`qon davlat pedagogika institut

НОМИНАСИЯ ЖАРАЁНИНГ ҲОЗИРГИ ТИЛШУНОСЛИҚДАГИ ТАЛҚИНИ МАСАЛАСИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-2-93>

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Номинасия жараёнинг ҳозирги тилшуносликдаги талқини масаласи ёритиб берилган. Бундан ташқари фаннинг объекти бўлган лингвокультуремалар сифатида антропонимлар ва иборалар, ўзбек тилидаги ўхшатиш ва метафораларни таҳлил ва тадқиқ қилишга ҳаракат қиланади. Номинасия жараёнинг ҳозирги тилшуносликдаги талқини семантик хусусиятига кўра ўзаро адекват (ўхшаш), уларнинг айримлари мазмун жиҳатидангина эмас, ташқи тузилиши, шакли бўйича ҳам мутаносиб келиш ҳолатлари паремиологлар томонидан тадқиқ қилинади.

Калит сўзлар: лингвокультурология, паремиология, антропоним, адекват,

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается вопрос современной лингвистической интерпретации процесса выдвигения. Кроме того, делается попытка проанализировать и изучить антропонимы и поговорки, аналогии и метафоры в узбекском языке как лингвокультуры, являющиеся объектом науки. Интерпретация номинативного процесса в современной лингвистике семантически адекватна (подобна), некоторые из них пропорциональны не только по содержанию, но также по структуре и форме.

Ключевые слова: лингвокультурология, паремиология, антропоним, адекват,

ANNOTATION

This article addresses the issue of modern linguistic interpretation of the Nomination process. In addition, an attempt is made to analyze and study anthroponyms and sayings, analogies and metaphors in the Uzbek language as lingvocultures that are the object of science. The interpretation of the nominative process in modern linguistics is semantically adequate (similar), some of which are proportional not only in content but also in structure and form.

Key words: linguoculturology, paremiology, anthroponym, adequate,

Борлиқни ҳар қандай ходиса у тирик шахс бўладими, турли ижтимоий гуруҳ вакилларими, ижтимоий ёки шахсий ҳаётда воқеа ва муносабатлар, фикр ва хис ҳаяжони, кечинлалар, табиат манзаралар ва ҳаёлотга яратилган образлар, бадий тасвирлар бўлиши мумкин.

Мавзу билан бирга рассомнинг қизиқиши билиши орқали яратган умумийлашмаларни ва ғоявий баҳосини предмети бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Номлаш жараёни реал бирликдаги барча ҳодисаларни дихотомик равишда қарама-қарши ва уларнинг диалектикасини кишилиқ тафаккуридаги тушунчалар билан муносабатни ўрганиш фаолияти бўлиб унинг бевосита натижаси орқали икки асосий тафаккур актлар оппосиясини фарқлаш мумкин:

1. Борликдаги нарса ва ҳодисалар орасидаги фарқланиш конкретлаш акти атрибутивне констуксиялар ва сўз бирикмаларига кўринади

2. Борликдаги нарса ва ҳодисалар орасидаги интегратсия, умумииабстракция акти тилдаги предикатсияда, яъни предикатив констуксияларда, аниқроғи, гапларда акс этади.

Сиз, сўз бирикмалари ва гаплар барча кишилиқ жамиятидаги тилларда жуда умумий ва универсал константалар билан ажралиб туради. Лекин бу конкрет тилларда структура жиҳатидан кўпгина ҳар хил тип, кўриниш ва вариантларда содир бўлади.

Умуминсоний мантиққа асосланган ҳолда қариндош тиллар группасинг тарихий-типологик грамматикаси, асосан, барча кишилиқ учун умумий бўлган шу тил ёки бир группа тиллардаги категорияларининг тафаккур категориялари билан муносабати бир хил, лекин тилдаги формалари жиҳатидан, умумий типологик белгилари бўлишига қарамай, ҳар хил бўлган тафаккур категорияларининг ўзаро боғлиқлиги ва бири иккинчисисиз мавжуд бўлмаслигини тушуниб олишга ёрдам беради.

Яқин қариндош бўлган ва қариндош бўлмаган тилларни ўрганиш тарихий-типологик планда барча сўз бирикмалари ва гаплар моделларини ўрганиш улардаги номинасиялар табиати уларнинг асосий типлари, кўринишлари, кичик кўринишлари ва алоҳида конкрет моделларини аниқлаш (икки асосий тафаккур актлари моделларининг ҳар хил ишлатилиши), уларнинг барча конкрет тилларда ҳар хил кўринишда, ҳар хил ҳолатда ва ҳар хил даврларда намоён бўлишини кенг кўламда ўрганиш вазибалари турибди.

Мустакиллик йилларида Ўзбекистон Республикасида илмий-тадқиқот фаолиятини ташкил, этиш, бошқариш ва молиялаштиришнинг барқарор тизими яратилди. Мамлакатда салоҳиятли илмий мактаблар, илмий лаборатория ва кафедралар, олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасалари, вазирлик ва идоралар ҳамда республика миқёсидаги илмий-техник ва эксперт кенгашлари шаклидаги кўп тармоқли илмий-ташкилий инфратузилма фаолият юритмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентини Шавкат Мирзиёевнинг "Фанлар академияси фаолияти, илмий-тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тутрисида"ги қарори ушбу йўналишдаги ишларнинг мантикий давоми бўлиб, соҳадаги мавжуд муаммоларни ҳал этишда муҳим босқични бошлаб бермоқда,

Таркиббанддаги биринчи бандининг мўжазгина тадқиқи ва таҳлилидан кўриниб турибдики, шоирнинг фалсафий ва ижтимоий фикрлари замонга муносиб тадрижий ривожланиб, юксалиб, шоирнинг ҳаёт воқеаларига ёндашишлари ва қарашлари нисбатан ўзгарган. Шу жиҳатдан таркиббанднинг мазмун моҳияти реал ҳаётга мутаносиб ва уйғунликда келтирилган. Шоирнинг мақсади хорижий мамлакатларнинг маданияти ва халқ тамаддунининг ҳолатини ва Шарқда Исломиё аҳлининг бидъат ва хурофотларга берилиши оқибатида турғунлик ва маънавий қоқоқлик юзага келганлигини бир-бирига қиёслаш ва кўрсатишдир. Шу маънода, Эрон шоири Маликушшуаро Баҳорнинг ижодида «Аз мост, ки бар мост» номли мустахзода мавжуд бўлиб, унинг биринчи қисм қуйидагича:

Ин дуди сияҳфом, ки аз бобми Ватан хест,
 аз мост, ки бар мост,
 В–ин шўълаи сўзон, ки даромад ба чапу рост,
 аз мост, ки бар мост,
 Жон гар ба лаби мо расид, аз ғайр нанодем,
 бо кас насигодем,
 Аз хеш бинодем, ки жони сухан ин жост,
 аз мост, ки бар мост. [4,16–17]

Дарҳақиқат, баъзи адабиётшунос олимлар янги шеър манбаини мустаҳзод жанрига мутааллиқ деб ҳисоблайдилар. Аммо бу икки шеърнинг ўхшашлиги уларнинг мазмун ва ғоясида. Баҳор: “аз хеш бинолем, ки жони сухан ин жост” (ўзимиздан нолийлик, сўзнинг жони шу ерда) деганида, Ажзий ҳам худди шу маънода биз тараққиёт ниҳоли илдизига болта урдик ва илму маърифат ўчоғини йўқ қилишга ҳаракат қилдик деб очиқ тарзда тан олади. Ажзий махсус киноялар асосида ижтимоий нуқсонларни таъқиб қилиш орқали, ҳаётнинг маънавий жиҳатларининг қулашини тасвир қилишга қарор қилган. Бир сўз билан айтганда, шоир миллатни қутқариш йўлини (мусулмон миллати назарда тутилган), илм–фан ва маданиятни ўрганишдан излаб, унинг асл омилини маънавий юксалишга интилишда кўради. Бу таркиббандда ҳам мавзунинг янгилиги, ватан меҳри, табиатнинг жозибаторлиги ўзгача маънога эга, аммо шоирнинг мақсади фақат мамлакат ободлигидир. Бундай ўзига хослик–анъанавий шеърятнинг қолабий жанр хусусиятларидан воз кечишни Фитратнинг “Маснавий” деб номланган қитъасида кўриш мумкин.

Таржеот ёки таржеъбанд жанри ушбу давр шоирлари ижодида энг машҳур ва муҳим жанрлардан бири ҳисобланади. Давр шоирлари ижодиётидаги кўпгина таржеъбандлар анъанавий йўналишда яратилган. Уларда мумтоз адабиётнинг анъанавий мавзу ва мазмунлари устуворлик касб этган. Истисно тариқасида, «Тоҷик адабиёти намунаси»да ота–боболари аслида Ҳисордан бўлган Саидмахмудхўжаи Бухорой ибн Аминхўжанинг бир таржеъбанд мусаддаси келтирилган. Устоз Айний уни «бу мусаддас узун эди, шунчасига кониқиш ҳосил қилдик» деб, тўрт бандини иқтибос келтиради ва аён бўладики, бу шеър мусаддаси таржеъбанд қолипида ёзилган экан. Худди шу тарздаги таржеъбандни шоирлар мухаммаслари таҳлили жараёнида келтирилган эдик. Ушбу таржеъбандда энг муҳими жиҳат ундаги мавзу ва мазмуннинг янгилиги ва даврнинг реал ижтимоий ҳолатини акс эттирадиган васила байтидир. Қуйида иқтибос тарзда ушбу таржеъбанднинг иккита бандини келтирдик:

Намудан ошён дар Қофи узлат ҳамчу анқо бех,
Фикандан рахти ҳастии жаҳон дар қаъри дарё бех.
Густан аз тааллуқҳои даврон чун Масеҳо бех,
Чу Юсуф зери чоҳ аз ихтилоти аҳли дунё бех.
Агар ҳожатраво халқанд, мурдан дар таманно бех,
Зи чини абрӯи ин ноҳудоён мавжи дарё бех.

Ба худ вомонда аз жўши таҳайюр ҳамчу тасвирам,
Зи абнои замони бемурувват саҳт дилгирам.
Намуд азбаски хотирдории ин нокасон пирам,
Ба дашти ноумедий бех, ки аз беҳосилий мирам,
Агар ҳожатраво халқанд, мурдан дар таманно бех,
Зи чини абрӯи ин ноҳудоён мавжи дарё бех. [5, 328]

Ушбу таржеъбандда ритм, оҳанг ва қофияларнинг қисман риюя қилинмаганига қарамай, лирик қаҳрамон руҳиятида замон амалдорларининг адолатсизлиги, ижтимоий, сиёсий воқеалар ва ҳаётини ҳодисаларга нисбатан норозилик ҳисси мавжуд. Шоир таъсирли талмеҳлар орқали бу жаҳолатманд жамиятда яшашдан кўра Юсуф каби чоҳда маҳбус бўлишни афзал кўради ва агар “халқ ҳожатини чиқарувчилар” (ҳожатравои халқ) бу жоҳил ва масъулиятсиз тоифа бўлса, ундан ўлим афзалроқ эканлигини таъкидлайди. Ҳукумат тизимини “дашти ноумидий” (умидсиз чўл), “ҳасони бесамар” (самарасиз сомон), “мардумони бебасар” (кўр бўлган халқ) мажозлари воситасида танқид қилади. Шу тариқа, янги жадид адабиёти ғояларининг пайдо бўлиши турли лирик жанрларнинг мазмуни ва ғоявий мундарижасидаги ўзгаришларга сабаб бўлган.

Қитъа жанри бу давр адабиётининг энг сермаҳсул жанрларидан бири бўлиб, у даврнинг деярли ҳар бир адиби ижодида қўлланилган. Бироқ, шаклланиш тамойили ва ғоявий мундарижани янгилаш, даврнинг энг муҳим ижтимоий–ҳаётини масалаларини ёритиш нуқтаи назаридан ушбу адабий жанр бутунлай ўтмиш анъаналарига таъсиридан чиқмаган. Ушбу қадимий адабиёт жанри шакл, мазмун ва ҳажм жиҳатидан ўзгармаган. Шоирларнинг

хужжатларга асосланган қитъаларининг кўп қисмлари ҳаётларида содир бўлган турли кичик ва катта воқеаларга бағишланган. Қитъаларнинг мазмуни даврнинг тарихий ҳаётининг турли воқеалари билан боғлиқ: бир қитъада ижтимоий ёки сиёсий ҳаёт воқеалари, бошқасида маданий ҳаёт ҳодисаси тасвирланган. Қитъаларда биз жуда кўп фойдали маълумотларни, хусусан, даврнинг маданий, илмий ва адабий ҳаёти, масалан, сарой, масжид ва мадрасалар қурилиши, зодагонлар мадҳу таърифи, тўй ва турли тантанали маросимларни ўтказиш ёки таниқли шахсларнинг ўлимида мотам тутиш ва бошқаларни кўраимиз. Умуман олганда, қитъаларда ҳар хил воқеа–ҳодисалар тавсифи ва ўз даврининг турли жабҳаларига оид хужжатлар мавжуд.

Ушбу давр адабиётининг барча қитъалари, худди сўнгги икки ёки уч асрларда расмиятга киргани каби ўзларининг анъанавий функцияларини бевосита сақлаб қолишди, яъни уларнинг аксарияти ахлоқий, таълимий, фалсафий ва тарихий мавзуларини қамраб олган. Бу ҳолатни даврнинг энг ишончли тазкиралари ва шоирларнинг адабий мероси мундарижасидан пайцаш қийин эмас. Масалан, Шоҳин қуллиётида 7 та қитъа бор, улардан биттаси тарихий, учтаси ишқий ва яна учтаси фалсафий–ахлоқий, Возеҳнинг ижодиётида биронта алоўида қитъа мавжуд эмас. Асирийнинг бадий меросида 25 та қитъа бор, улардан бештаси ҳажм жиҳатдан катта бўлиб, биринчи қисм “Қитъа дар мадҳи роқим ул Асирий” (25 байт) таржумаи ҳол қитъаси, иккинчи қитъа «Абёт» (18 байт) деб номланган бўлиб, Анбар Бухорой шەърига жавоб тариқасида ёзилган, учинчи қитъа “Таърихи итмоми манори масжиди Шайх Мулахутдин” (15 байт) таърихий қитъа, тўртинчи қитъа “Таърихи тавваллуди Сатторхон” (15 байт) – «Сатторхон» нинг туғилиш тарихига бағишланган мавлуд қитъаси ва бешинчи қитъа “Марсияи калхот” (17 байт) ҳажвий қитъа ҳисобланиб, халқона мотивларга мувофиқ тарзда яратилган яна йигирма битта катта ва кичик таржимаи ҳол, танқидий, тарихий, ҳажвий ва марсиявий характерга эга бўлган қитъалари мавжуд. Садриддин Айний қуллиётининг саккизинчи жилдида ҳам мавзулар ва ғоявий мазмун жиҳатидан хилма–хил бўлган 25 та қитъа келтирилган.

Юқоридаги мулоҳазалар асосида хулоса қилиш мумкинки, мазкур давр адабиётида шەърлар туркуми ғоявий мазмуни, мавзуси, янги услуби, адабий жараёнга ижодкорнинг ўзгача ёндашуви, шоир нутқининг моҳияти ва мақсади жиҳатдан XX асрнинг бошларидан бошланиб тадрижий тарзда такомиллашиб борган. Ушбу тасниф замон ўтиши ва адабиётнинг ўзига хослиги билан аста–секин ўсиб борди ва жиддий илмий ва назарий тенденциялар асосида янада такомиллаштирилди. Ушбу даврда биринчи навбатда мафкуравий жиҳатдан барқарор бўлган бир қатор шەърлар жумладан илм–фан, ирфон, мактаб ва таълимни тарғиб қилиш, муҳаббат, миллий мазмун, Ватанни мадҳ этиш ва табиат манзараларини тасвирлаш, миллий ва тарихий ўзликни англашни тарғиб қилиш, миллий манфаатларни ҳимоя қилиш, танқид, реалистик воқеалар тавсифи каби масалаларига оид бўлган шەърлар муҳим аҳамият касб этган.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Фитрат Абдуррауф. Тавофи ватан” (Бо пешгуфтор ва таҳияи луғатнома ва тавзеҳоти Муҳаммадусуф Имомов ва Масрур Абдуллоев). – Душанбе: Шарқи Озод, 2013. – 46 с.
2. Табаров С. Чаҳони андешаҳои Абдуррауфи Фитрат. Ҷилди I – Душанбе: Дониш, 2008. – 714 с.
3. Мирзозода Х. Осиеи осмон то чанд гардонам ба сар. (Назаре ба аҳвол ва шەърияи шоир ва омўзгор Сиддиқи Аҷзӣ). // Омўзгор. № 7. Август соли 1990. С.8–9.
4. Муҳаммадқӣ Маликушшуаро Баҳор. Девони ашъор. – Техрон: Илм. 1381 ҳ.ш. –1200 саҳ.
5. Айни С. Намунаи адабиёти тоҷик. – Душанбе: Адиб. – 2010. – 414 саҳ.
6. Амиркулов С. Нигоҳе ба инкишофи таърихи адабиёти тоҷик дар Мовароуннаҳр (Қарни XIX) (Мунтахаби мақолаҳо). – Душанбе: Ирфон, 2010. – 232 с.
7. Афоқова Н. Жаид шەърияи поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2005. 140 б.

8. Раҳмонов Ш. Таҳқиқ ва нақд. – Душанбе: Адиб, 2005. – 258 с.
9. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. 46.бет
10. Мирзо Сирожи Ҳаким. Ёд бод! //Ойина. – Самарқанд: 1913, № 2. – С. 3.; Рӯзномаи «Омӯзгор», 14 августи соли 1990.
11. Ахтарони адаб. Жилди 38. Ғазалистон. – Душанбе: Адиб, 2018. – 480 с.
12. Ражабӣ М. Таърихи танқид ва адабиётшиносӣ. Душанбе, 1997. 206 с.

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Otayorova Umida Bolibek qizi

Samarqand davlat universiteti
Filologiya fakulteti adabiyotshunoslik
yoʻnalishi 2-kurs magistranti
umida.bolibekovna@gmail.com

Ilmiy rahbar: M.Muhiddinov
Filologiya fanlari doktori, Professor

“SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI HIKOYATLARNING ORIFONA TALQINI

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-2-96>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi sujetni dalillash maqsadida keltirilgan hikoyatlarning mazmun-mohiyati, maʼrifiy ahamiyati, badiiy talqini va bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilingan. Hikoyatlar mazmun jihatidan tarixiy va muallif fantaziyasi hamda xalq ogʻzaki ijodiyotiga mansub boʻlib, tarixiy shaxslarga oid hikoyatlar orqali ularning xatosini takrorlamaslik, yaxshi ishlaridan ibrat olish lozimligi, podshohlar adolat bilan davlatni boshqarsagina unday mamlakatning xalqi boy, davlat chegaralari daxlsiz boʻlishi mumkinligi haqidagi Navoiyning fikrlari; xayoliy va xalq ogʻzaki ijodiga mansub hikoyatlar orqali ijodkorning saxovat, odamiylik, oqibat, toʻgʻriloʻzlik, mehr-u vafo haqidagi gʻoyalari; ilm oʻrganishning fazilati, safarning foydalari, doʻstga sodiqlik, vatanparvarlik, mehmon kutish odobi xususidagi fikrlari haqida soʻz yuritilgan.

Kalit soʻzlar: tarixiy hikoyatlar, adolat, saxovat, safar, vatanparvarlik, mehmon kutish odobi

Otayorova Umida Bolibek qizi

Samarkand State University
Faculty of Philology, Literary Studies
2nd year master's degree
umida.bolibekovna@gmail.com

Supervisor: Doctor of Philological Sciences,
Professor M.Muhiddinov

EDUCATIONAL INTERPRETATION OF STORIES IN THE EPIC “SADDI ISKANDARIY”

ANNOTATION

This article analyzes the content, enlightenment, artistic interpretation and current significance of the stories cited to prove the plot of Alisher Navoi's epic "Saddi Iskandariy". Stories belong to historical and authorial fantasies and folklore, and it is important not to repeat the mistakes of historical figures, to learn from their good deeds. Navoi's thoughts on; the artist's ideas of generosity, humanity, consequence, honesty, kindness and fidelity through imaginary and folk

tales; the virtues of learning science, the benefits of travel, loyalty to a friend, patriotism, hospitality.

Key words: historical stories, justice, generosity, travelling, patriotism, hospitality

Отаёрова Умида Болибек кизи

Самаркандский Государственный Университет

Факультет филологии, литературоведения

2-й курс магистратуры

umida.bolibekovna@gmail.com

Научный руководитель: Доктор филологических

наук, профессор М.Муҳиддинов

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИСТОРИЙ В ЭПОСЕ «САДДИ ИСКАНДАРИЙ»

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется содержание, просветительская, художественная интерпретация и актуальное значение представленных рассказов с целью обоснования сюжета эпоса Алишера Навои «Садди Искандарий». Рассказы принадлежат историческим и авторским фантазиям и фольклору, и важно не повторять их ошибок и извлекать уроки из их добрых дел через рассказы об исторических личностях. идеи художника о щедрости, человечности, последовательности, честности, доброте и верности через воображаемые и народные сказки; достоинства изучения науки, польза путешествий, верность другу, патриотизм, гостеприимство.

Ключевые слова: исторические рассказы, справедливость, щедрость, путешествие, патриотизм, гостеприимство

Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq [4]. Alishr Navoiyning hayoti, amalga oshirgan ishlari yoshlar uchun bir maktab bo'lsa, yozgan asarlari, ulardagi ta'limiy va tarbiyaviy g'oyalar yana bir katta maktabdir. "Saddi Iskandariy" dostoni ham o'z g'oyasi bilan nafaqat o'z davri uchun, balki hozirgi davr uchun ham nihoyatda muhim dasturulamal vazifasini o'taydi. Dostonda Iskandar sujeti bilan birga biror bir fikrni tasdiqlash maqsadida hikoyatlar keltirilgan. Navoiy dostonining 21, 29, 50, 54, 78-boblari tarixiy shaxslar hayotiga doir hikoyatlardir. Dostonda tarixiy shaxslar hayotiga oid hikoyatlarning keltirilishi asarning ishonchliligini oshirishga xizmat qilgan. Boisi faqat afsonaviy qahramonlar haqida yozilganda edi asarning ishonchlik darajasi pasayib, bu asardan ibrat olish qiyin bo'lib, bular afsonaviy qahramon, o'xshashlik mahol, degan xulosa kelib chiqar edi. Shu bois hazrat Navoiy dostonida ibrat bo'lsin, deya shu yo'ldan boradi.

Biz bilamizki, "Saddi Iskandariy" tuzilishi jihatidan to'rt qismga bo'lingan. Shu bois yigirmanchi bob nazariy masalga bag'ishlangan bo'lib, adolat xususida so'z yuritiladi va Navoiy uning martabasi juda yuqori ekanligini ta'kidlaydi. Jumladan, Anushervoni odil mazhabda musulmon bo'lmasa ham, lekin adolat bobida mashhur edi. Garchi kofirning o'rni do'zax bo'lsa ham, odillik sifati uni arofatga dalolat qildi. Agar kofirligi uni jannat sari yo'latmagan bo'lsa, adolatligi do'zax sari qo'ymadi. Uning o'lib ketganiga ming yillar bo'lsa-da nomi hamon yashaydi, deya adolatning martabasini ko'rsatadi. Navoiy bu bilan temuriylarni adolatli bo'lishga chorlaydi. Payg'ambarimiz s.a.v. hadislaridan ham namunalar keltirib, "Adolat bilan o'tgan bir soat inson-u jin xaylining toat-ibodatidan afzaldir", - deb yozadi. Payg'ambarimizning shu xususida yana bir hadisi mavjud: "Agar obod mamlakatga qaralmasa, u kufr aro qoladi, agar u vayronalikka yuz tutgan bo'lsa, bu zulm o'tkazganlikning natijasidir". Hazrat Navoiy mazkur bobda adolat va zulmni qiyoslab, unisining foydalarini va bunisining zararlarini sanab o'tadi. Xalqqa zulm qilish avvalo o'z-o'ziga zulm qilishdir. Chunki adolatli bo'lmagan shohni Olloh ham xushlamaydi, xalq

ham qarq'aydi. Shu bois shoh uchun mustahkam bog'ich bu adolatdir. Shoir fikrining isboti sifatida 21-bobda "Mahmud hikoyatikim, ajal og'ir uyqusig'a borg'ondan so'ngra Mas'udning tushiga kirdi va adolat aynin paydo qilur uchun anga pandlar berdi va nasihat zilolidin aning yuziga bir suv urdikim, ani g'aflat uyqusidin seskantirdi" [2.92b] nomli hikoyat keltiradi. Unga ko'ra Mahmud vafot etayotganda o'z o'rniga valiahd qilib o'gli Mas'udni o'tqizib, bu foniy dunyoni tark etadi. Otasi vafotidan so'ng Mas'ud ancha vaqt nola-fayod chekib yurdi (Iskandar kabi). Kunlarning birida tushiga otasi kirib, o'g'liga nasihat qiladi. Tushida otasi boshdan oyoq nurga burkangan holda ajoyib bir bog'da turar emish. Unga dam-badam xursandchilik yuzlanib, shodligi ortar emish. Oldida vasfining tavsifi uchun so'z ojizlik qiladigan zumradrang hovuz bo'lib, uning darvozasi xuddi ko'k gumbazidek, suvning rangi va tusi esa xuddi jannat bulog'ining suviga monand emish. Hovuzning qirg'og'ida xuddi baxt singari soya solib turgan bir daraxt bor edi. Uning qaddi oldida "to'biy" daraxti ham past bo'lib ko'rinar, soyasi esa butun gulbog' sahnini egallagan edi. Buning go'zalligidan ko'z ravshan, hididan dimog' muattar bo'lar edi. Shoh Mas'ud bu ajoyib holni ko'rgach, otasidan sababini so'raydi:

Ki: "Sultonlig'ing ichra netting ekin
Ki bu nav' manzilg'a yetting ekin"[2.93]

Otasi shunday javob beradi: "Jahondorlik vaqtimda faqat adolat qilish haqida o'yladim. Hindistonga qo'shin tortganimda, shu mamlakatni manzilgoh qilgan edim va aytgan edimki, xalq askarlardan, ular tomonidan yetkazilishi mumkin bo'lgan jabr-u jafolardan xavotirda bo'lmasin". Jarchi tomonidan e'lon qilingan bu so'zlardan xalq xabar topib tinchigach, menda sayr qilishga moyillik tug'ildi. O'rmonning har tomonini sayr qilib yurar ekanman, nogoh ko'zim odamlar yashaydigan bir orolga tushdi. U yerda bir necha oila holsizlik va bechoralik bilan kun ko'rar edi. Yog'och va qamishdan yasalgan boshpanani ular zar bilan hal berib, xush isli sandaldan bino qilingandek xayol qilar edilar. Uy ichidagi bo'yra go'yo gilam-u, bog'-u bo'ston ularga buzuq vayronadek edi. Bu holga nazar tashlab o'tar ekanman, qulog'imga nogoh jabrdiyda bir odamning ovozi eshitildi. Otim jilovini shu tomonga burdim, qarasam bir notavon ayol kishi ekan. Tund, xayoli buzuq askarboshilardan biri uning holvlisi chetanini buzib kirib, bir necha shox o'tinini, to'rva to'la somon va yashil sopoldan yasalgan may idishini olib, chiqib ketayotgan ekan, nogoh menga ro'baro' kelib qoldi. Uning bosqinchi, buzg'unchi ekani aniq edi. Lekin shunga qaramay adolat talab qiluvchi dodxoh bilan tortishib bir necha guvoh boshlab keldi.

Qo'lidagi ashyolarni olib, jafokash egasiga qaytardim, hovlisini qamish bilan o'rab, yiqilay deb turgan chiyalarini bir-biriga tutashtirib bog'ladim. So'ng zolimning qo'llarini mahkam bog'lab, bo'g'zidan shu uy oldiga osib qo'ydim. G'amboda kampir hamma narsalarini olgach, qo'shinim sari otimni yeldirib ketdim. Men bu dunyoni tark etganim zamon mazkur shodlik uyi mening makonim bo'ldi. Mening gunohlarim sanoqsiz edi, lekin adolat bilan qilgan mana shu ishim menga panoh bo'ldi. Menga nido keldiki, "ey saroy gunohkori, sen umringda boshqa gunoh qilganing yo'q. Lekin haddan ortiq gunohkor bo'lsang, albatta, do'zax yolqiniga sazovor bo'lasan. Ammo sening vujudingdan adolat joy oldi. Shu sabab qanday gunohing bo'lsa hammasi kechirildi. Sening beg'araz qilgan har bir ishing birma-bir o'z mukofotini oldi. Chunonchi sen u jafokash kampirning hovlisini tuzatib berding, bu sening fe'lingda ikkiyuzlamachilik yo'qligidan dalolatdir. Sen ko'rib turgan shamoli mushk tarqatuvchi, gardi anbardek xushbo'y bo'lgan bog'lar ana shu ezgu ishingning evazidir. Kampirga qaytarganing ikki shox o'tin badali mana shu to'biysifat daraxt, yashil idishning evazi esa zumurradrang hovuzdir. Kampir olgan bir etak somon – za'faron rangli xushbo'y o'simliklardir. Zolim shumni qatl etganing – xasta mazlumlarni qutqarganingdir. Bu yaxshiliklarning evaziga sen abadiy hayotga sazovor bo'lding. Mas'ud uyqusidan uyg'onganida xotiri turli qayg'ulardan forig' bo'lgan edi. U otasining aytganlaridan xulosa chiqarib, o'ziga adolat yo'lini – to'g'ri va haq yo'lini tanladi. Qaysi shoh Mas'uddek adolat yo'lini tutsa, Mahmuddek izzat-ikromga sazovor bo'ladi". Biz adolatning natijasini Fariddin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarida ham ko'rishimiz mumkin. Asarda Uvays Qaraniy haqida ma'lumot mavjud. Payg'ambarimiz s.a.v.ning u kishi xususida bashorat qiladilar. Sahobalar "U kishi sizni ko'rganmi?" deb so'raganlarida "Zohir ko'zi bilan ko'rgani yo'q" deydilar. Ular yana "Biz u kishini ko'ramizmi?" deganlarida "Foruq va Murtazo ko'rishi mumkin" deydilar. Ya'na bir suhbatda

“Sizning muraqqangizni kimga beraylik?” deb so‘raganlarida Uvays Qaraniyga berishni vasiyat qiladilar. Payg‘ambarimiz s.a.v. vafotlaridan so‘ng sahobalaridan hazrati Umar va hazrati Foruq Uvays Qaraniyni izlab Ko‘faga boradilar. U kishi bilan bo‘lgan suhbatdan so‘ng hazrati Umar sahobalikni tashlab, darvesh bo‘lmoqchi bo‘ladi. Bu gapni eshitib sahobalar faryod ko‘tarishadi: “Ey Foruq, barcha musulmonlarning ishini zoye qilib bo‘lmas. Bir soat qilgan adulating yetmish yillik toat-ibodatdan yaxshiroq. Rasululloh hadislarining mazmuni shunday”[7.32]. Demak, bundan ma‘lum bo‘ladiki adolatning mezoni juda yuqori. Mas‘ud ham bir adolati uchun shunday darajaga yetishdi.

Bundan tashqari dostonda 29-bob “Sulton Abu Said Ko‘ragon hikoyatikim, royi uqdashoyi bila ko‘p mamlakat oldi va tig‘i umrfarsoyi bila ko‘p elga oshub soldi va lekin sipohi rozi emas erkandin ish vaqti borcha o‘zg‘oldi va o‘zi a‘do aro mahlakaga qoldi, balki xasm ul sarafrozning tig‘i kin bila bo‘ynin choldi” deb nomlangan Abu Said Ko‘ragoniy haqidagi hikoyat bo‘lib, bu shoh askarlariga mehrbon bo‘lmagani bois jangda askarlari uni qo‘llab-quvvatlamaydilar. Natijada shoh asirga tushadi.

50-bob Ardasher podshohning tadbirliligi haqida bo‘lib, dushmanni tig‘ bilan emas, tadbir bilan ham yengish mumkin, degan xulosa chiqariladi:

“Ki, a‘do soridin necha pahlavon:
Falonu falonu falonu falon
Ki, bu xayl erur asli ko‘shish chog‘i,
Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy
Nechukkim, bilursiz muni siz dog‘i.
Bo‘lub Ardavondin bori tiyarroy,
Manga aylab o‘zni tazallumnamoy.
Bu so‘zga qilib ahdu misoq etib,
Yibormishdururlar manga xat bitib
Ki, tonglaki el bo‘lsa vodiynavard,
Tuzulsa iki sori saffi nabard.
Ne yerdaki turg‘on esa Ardavon,
Chopib boshig‘a bir necha pahlavon.
Anga yetkurub zulm podoshini,
Sanga keltururbiz aning boshini” [2.290].

Ardasher bu gaplarni bekorga aytmaydi. Uning maslahatchilari safida bir sotqin bo‘lib, u haqida yaqin kishilari ogohlantirgan, ammo podshoh arqonni uzun tashlab, hech qanday chora ko‘rmagan edi. Bu sabrliligi Ardasherga qo‘l keladi. Mana shu lahzada sotqin albatta kengash haqida Ardavonga yetkazishini biladi va bu hiyla ish berib, Ardavon Ardasher bilan sulh tuzishga majbur bo‘ladi. Bu hikoyat orqali inson aql bilan ish tutishi lozimligi ilgari surilgan. Keyingi bob Iskandarning to‘g‘ri fikrlashning mavqeyi qanaqa va xatoning kishi uchun nuqsonligiga sabab nimaligini ustoz Arastudan so‘raganligi haqida bo‘lib, ustoz javoban “Xalq yaratilishda bir xil bo‘lgani bilan na bilimda va na ko‘rish, tushunishda bir xil emas. Haq taolloning sifatleri behisobdir, odamlarning har biri esa shu sifatlarining bir ko‘rinishidir. Modomiki, shunday ekan odamlarning biri fahm-farosatli bo‘lgani holda, ikkinchisi aqldan bebahra bo‘lishi ajablanarli emas. Hatto aqlli odamning fikri to‘g‘ri va o‘tkir bo‘lgani holda goho sust bo‘lishi ham tabiiydir. Chunki odam doim bir holatda bo‘lmas, u goho hud, gohi behuddir. Agar biro damning hamma fikri to‘g‘ri bo‘lsa, demak, aql unga doim rahnamolik qilar ekan. Ammo aql qancha o‘tkir bo‘lsa ham g‘ayb ilmidan bexabardir. U ertangi kunda nima bo‘lishini, kishi boshiga qanday kun tushishini bilmaydi. Barkamol aqlga ega bo‘lmish kishilar goho xato qiladi, yanglishadi. Lekin bu bilan ularning fazl-u kamoloti kamaymaydi, bunga Xudo guvohtir”, deydi. Ardasher mana shu to‘g‘ri fikr evaziga jangning oldini oldi. Bu hikoyat dostonning umumiy sujetiga uyg‘un bo‘lib, Chin hoqoni va Hind royi urushning oldini olish uchun Iskandar bilan sulh tuzadilar va buning natijasida minglab begunoh odamlarning o‘lib ketishi va shaharlarning vayron bo‘lishining oldi olinadi. Zero Navoiy ham butun umri davomida temuriylarni shunday yo‘l tutishga rag‘abtlantirib kelgan. Buning birgina

misoli Husayn Boyqaro va Badiuzzamon o'rtasidagi jangning oldi olinishida Navoiyning behad xizmati kattaligidan tarix guvohlik beradi.

54-bob Bahrom go'r va uch olachiq eli haqidagi hikoyat bo'lib, Navoiy bu hikoyatda mehmonnavozlik haqida fikr yuritadi. Bahrom go'r tarxiiy shaxs bo'lib, Eronning sostoniy podshohlaridan biri hisoblanadi. U Chyaxran V (420— 438 hukmronligi) nomi bilan (Varaxran — dariycha Bahrom) mashhur bo'lgan. U go'r— qulon oviga o'chligi uchun Bahrom Go'r nomi bilan mashhur. Afsonani yozma adabiyotga, dastlab Firdavsiy "Shohnoma" asari orqali olib kirgan. So'ng Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, Navoiy "Xamsa" tarkibidagi to'rtinchi dostonni shu mavzuga bag'ishlaganlar. Alisher Navoiy bu obrazni "Saddi Iskandariy" dostoniga mazmun talabi bilan olib kirgan. Mehmonnavozlik dabdaba-yu as'asada emas, balki mehmonning ko'nglini olib, uning qornini to'yg'izmoqlikdadir, degan g'oyani ilgari surgan. Keyingi bobda asarning asosiy sujeti – Chin xoqonining Iskandarni mehmon qilgani keltiriladi.

Asarning 78-bobi Luqmoni hakim haqida bo'lib, uning vayronada kun kechirishi va buning sababini so'rashganida dunyoga xirs qo'ygan bilan, mol-dunyo yig'gan bilan baribir u dunyoga quruq qo'l bilan qaytadi, bu kajraftor dunyo shu vayronamni ham tortib oladi. Shunday ekan, boylik yig'ishdan nima naf?

"...Chu oxir adam sori qo'yg'um qadam,
Manga bordur ortug' bu vayrona ham.
Jahondin necha el haroson erur,
Aning ranjiddin maxlas oson erur".[2.415]

Ya'ni kim dunyoga hirs qo'yimas ekan, jahonning ranj-mashaqqatidan xalos bo'lishi osonroqdir.

Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining 25-bobi ikki do'stning bir-biriga sadoqati va uning ijobiy natijasiga bag'ishlangan. Bu sujetni yaratishda xalq og'zaki ijodiga mansub og'izidan og'izga o'tib yurgan hikoyatdan foydalangan. Shu sababli Navoiyning o'zi ham hikoyatni "Eshitishimcha" so'zi bilan boshlaydi:

Eshittimki, Chingiz-u Xorazmshoh,
Adovatqa chun bo'ldilar kinaxoh.
Buzuldi jahon ulcha maqdur erur,
Netay sharhin aytib, chu mashhur erur.
Hamonoki Chingiz topib zafar,
Aning mulkini qildi zeru zabar.
Ne kishvar arokim maqom ayladi,
Chekib tig'i kin, qatli om ayladi.
Tushub mavjg'a bahri jabborliq,
Ayon aylabon mavji qahhorliq.
Ato o'g'lig'a yig'labon: hoy-hoy!
Qizig'a ano tortibon: voy-voy!
Hayot uyiga marg solib xalal,

Amon raxnasin mahkam aylab ajal.[2.119]

Chingizxon va Xorazmshoh urushi haqiqatan ham tarixda yuz bergan bo'lib, mo'g'ullar shahar-u qishloqlarni vayronaga aylantirib, xalqni ommaviy qir'gin qilishadi. Mo'g'ullarning Movarounnahr, Xuroson va Xorazmgga qilingan yurishiga shaxsan Chingizxonning o'zi boshchilik qildi. Chingizxon 1218 yili qoraxitoy Kuchluk davlatini tugatgach, uning davlati chegaralari bevosita Xorazmshohlar davlati bilan tutashdi. Urushning asosiy bahonasi 1218-yili mo'g'ullar savdo karvonining O'trorda talanib, 400 nafar savdogar (yoki josus)ning qatl etilishi edi. O'tror, Buxoro, Samarqand, Sig'noq, Binkat, Xo'jandni bosib olib, vayronaga aylantirgach, 1220-yil oxirlarida Urganch qamalini boshladi. Besh oy davom etgan qamal va tinimsiz janglardan so'ng shahar istilo qilindi. Mo'g'ullarga qarshi janglarning birida 72 yoshli Shayx Najmiddin Kubro shahid bo'ldi. Mo'g'ullar qonxo'rliklarini bu yerda ham isbotlashdi. Aholining bir qismi qulga aylantirildi, Urganch esa suvga bostirildi) [9]. O'sha vaqtda Shom mamlakatida ikki do'st bir kofir qo'liga bandi bo'lib qolishadi. Boyagi kishi ularni o'ldirmoqchi bo'lganida birinchisi "avval meni

o'ldir", desa ikkinchisi "yo'q, avval mening bo'ynimga tig' sol, keyin uni choparsan", deydi. Bularning har biri o'z do'sti uchun qayg'uda ekanida Chingiz uyquda bo'lib, yuqoridagi voqea uning tushiga kirdi. Shunda voqea guvohi bo'lgan bir kishi Chingizga:

Ki: "Kechgil xaloyiqqa ozordin,

Vafo o'rgan ushbu iki yordin.

Sanga kinavar bo'lsa Xorazmshoh,

Ul ishtin jahon ahlig'a ne gunohg'"[2.120]

Bu damda uyqudan uyg'ongan Chingizxon shu zahoti elga omonlik berdi. Ikki do'st bilan qotil o'rtasida bo'lgan bu mojaro el o'rtasida yaxshilik timsoli bo'lib qoldi. Bu xabar kofirning qulog'iga yetib, ko'ngli yumshadi-da, ozor berishdan qo'l silkib, ikki do'stning oyoq-qo'lini yechib, ularni ozod qildi. Chingizxonday vaxshiyning elga omonlik berishi haqiqatdan yiroq bo'lsa-da, bu temuriylarni bir-biri bilan jang qilib, qirg'inbarot qilmasligi uchun bir nasihat edi.

Bu hikoyat sujeti keyinchalik badiiy adabiyotda keng tarqalib ketadi. Xalq og'zaki ijodidaga mansub bo'lmish "Kuntug'mish" dostonida Kuntug'mishning o'g'illari Shahri Zangar yurtining mol va yilqilarini haydab, No'g'ay yurtiga ketishayotganlarida ularni ortiga qaytarib, tutib kelishadi. Mohiboy va Go'rkiboyni zamon podshohi Kuntug'mish (o'z farzandlarini tanimay) o'limga hukm qiladi. Go'rkiboy jallodga "Men kattaman, avval meni o'ldir", desa Mohiboy "Yo'q, bu ishni men qildim, avval meni o'ldir", deb nola qiladi.

Yozma adabiyotda esa Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim" asarida dengizda cho'kayotgan ikki do'st hikoyati ko'rinishida aks etadi. Keyingi davr ijodkorlaridan Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida ham Bo'ri polvon va Nasimning kelajakda yaxshi va sodiq do'st bo'lishlarini tilab, ularning otalari tomonidan shunga o'xshash hikoyat kiritilgan. Ya'ni ikki do'stni o'g'irlikda gumon qilishib, tutib keltirishganida ikkalasi ham aybi yo'qligi uchun o'g'irilmaganini aytishadi. Shunda podshoh ujarrog'ini osmoqchi bo'lganda ikkinchisi meni o'ldiring, deb yolvorsa, birinchisi "Avval meni o'ldir, do'stimning ozor chekkanini ko'rmay", deya faryod ko'taradi. Alqissa podshoh ikkalasini qo'yib yuboradi.

Alisher Navoiy bu hikoyatni Iskandar va Doro jangi oldidan ibrat bo'lsin deb keltiradi. Janjal, araz har qachon va qanday ko'rinishda bo'lmasin, yomon oqibatlariga olib kelishini aytib o'tadi va insoniyat haqida fikr yuritib: "Bu davr kishilarni hech bir-birlarini ko'rolmaydilar", deydi. Gadoning dushmani gado, deganlaridek, hamma toifaning ham o'z dushmani bor. Lekin bu mojaro oliy tabaqali sultonlar orasiga tushsa bormi, buni go'yo jahon ichiga tushgan to'fon deyaver, zero, bundan jahon ahli vayron bo'lur. Bu paytda hatto dasht va tog' ustida bo'lgan qavmlar ham qilich dengizining suviga g'arq bo'ladilar, jahondagi mamlakatlardan osoyishtalik yo'qoladi. Bu mamlakat xalqlari tinch-omonlikdan mahrum bo'lib qoladilar, deya fikini davom ettiradi.

Hazrat Navoiy 36-bobda safar haqida fikr yuritib, 37-bobda ikki do'stning safar sababli saodatga erishganini bayon qiladi. Ikki xurosonlik do'st bo'lib, ular bir-birlariga juda mehribon edilar. Hayot hodisalari bularning ishlariga shikast yetkazib, tirikchilikdan qiynalib qoladilar. Biri uy-ro'zg'ori va diyorida diydor uzolmay, hech qayerga ketmaydi, ikkinchisi safarga otlanadi. O'z yurtida qolgani juda ko'p qiynchiliklarni boshidan o'tkazadi. Musofirlikni bo'yniga olib, safarga otlangani safarda bag'oyat ajib narsalarni ko'rar, nasiba uni har tarafga tortar edi. Oxiri uning yo'li Yunon tarafga tushdi-yu, u yerda ilm olish payiga tushdi. Fan ahllari bilan suhbatlashib, sa'y-harakat qilishi natijasida bir qancha ilm kasb etdi. Ko'p bilimlarni egallab, ilm-hikmat bobida jahonga mashhur faylasuf bo'ldi. U safar sharofati bilan ham ko'pgina bilimlarni qo'lga kiritdi, ammo bir joyda turmay sayr-u sayohatni davom ettirdi. Endi u Hind mamlakatlariga tomon sayr qildi. Bu paytda Hind shohining ko'zi ojiz bo'lib qolgan edi, shoh agar kim ko'zimni davolasa, qizimni uning nikohiga beraman, deb ahd qilgan edi. Yigit fursatdan foydalanib, shohni davolaydi va malikaga uylanadi. Vaqti yetib Hind shohi vafot etgach, uning o'rnini egallab, davlatni boshqaradi. Bundan xabar topgan faqir do'sti ham safarga otlanib, uning huzuriga keladi va podshoh o'z do'stini vazirlik martabasiga ko'taradi. Kimki, o'z mamlakatidan safarga chiqib, mashaqqat cheksa, tangri uni yorlaqaydi. Bunda ikki g'oya bor: birinchisi, safarning foydalari, ikkinchisi safarda ham umrini bekor o'tkazmay, ilm o'rganish.

Hazrat Navoiy barcha asarlarida insonlarni ilm olishga, safarga chiqib, zehni oshirishga da'vat etadi. Jumladan, "Mahbub ul qulub" asarining 108-tanbehi ham Safarning foydalari to'g'risida bo'lib, uni hayotiy dalillar asosida isbotlab bergan. Turg'un yer qayda-yu, aylanuvchi osmon qayda? Bir joyda turgan tuproq qayda-yu, sayr etib yuruvchi yulduz qayda? Biri qimirlamay turgani uchun kishilar oyog'i ostida poyandoz bo'ldi; ikkinchisi esa, harakatda bo'lgani tufayli yuksaklarning yuksagi bo'ldi. Safar – erituvchi va kuydiruvchi ko'radir. U erish-kuyish esa er kishining vujud oltinini toblab xom gil(loy)dan tozalovchidir.

Safar – ayriliqqa uchraganlarni maqsadiga yetkazuvchi va mahrumlarni murod uyiga olib kiruvchidir. Safar – xom odamlarni pishiruvchi va taomlarni singdiruvchidir. Safar kishilarni olam ajoyibotlaridan bahramand qiladi, g'aroyibotlar dunyosidan xabardor qiladi. Aziz kishilarning mozorlarini ziyorat qilish fayziga musharraf va mukarram bo'lmoq ham safardan; fayzli, ulug' zotlar xizmatida izzat va hurmat topmoq ham safardan. Yo'lovchining yurishiga quvvat beruvchi ham safar va ko'ngliga har tomonga borish zavqini soluvchi ham safar. Musofirni turli joy va manzillar bilan tanishtiruvchi ham u; dunyoni kezish yo'liga soluvchi ham u. Issiq-sovuqda jonga orom beruvchi ham u; achchiq-chuchukdan ko'ngilni ogohlantiruvchi ham u. Safar vodiysida musofirning oyog'iga ko'p dard-u balo tikanlari sanchiladi, lekin har qadalgan tikandan bir maqsad guli ochiladi. Yo'l mashaqqati zarbidan kishining a'zoyi badani qaqshaydi; vujudi yo'lovchilar oyog'i bilan toptaladi va har a'zosi u oyoqlar ostida ushaladi. Ammo ko'nglining vayronligi tuzaladi va ruhi ko'zguna ravshan tortib, jilo topadi. Har o'lkaning go'zalligi, har manzilning osoyishtaligini safarda yuruvchilardan so'ra va musofirlardan eshit. Safar qilmagan orom olish farog'atini qaydan bilsin? Musofirlik azobini chekmagan vatandagi hayotning qadrini qaydan anglasin? Oqmaydigan dengiz suvini ichsa bo'ladimi? Oqar daryoning zilol suvlaridan ichishni tark etsa bo'ladimi? Odam uchun doim harakatda bo'lish hayotlikdan asardir; jonsiz mavjudotlar tiriklik nishonasidan bexabardir[8], deydi Hazrat Navoiy. Demak, safarning foydalari ko'p. Shu bois ham "Ikki do'st hikoyati"dagi safarga chiqqani safar davomida mashaqqat chekdi, ilm o'rgandi va ilmi evaziga shohni davolab, o'zi ham shoh bo'ldi. Bularning bari safardan. O'z Vatanini tark etolmagani esa xorlik va zorlik azobini tortdi, eldan malomatlar eshitib, qashshoqlikda yashadi, do'stining huzuriga safar qilib borgandagina ulug' martabaga erishdi.

Ammo Vatanni tark etish oson ish emas, tabiatda Oллоh yaratgan barcha jonli mavjudot borki, Vatanini sevib, olis yurtga chiqsa, unga talpinib yashaydi. Buning isbotini "Podshoh qasridan qutulib, o'z vayronasida farog'at topgan kabutar hikoyati" (70)da ko'rishimiz mumkin. Bir xat tashuvchi kaptar bo'lib, u shohninng tuzog'iga tushib, qanot-quyrug'iga ko'p shikast yetadi. Falakning gardishi unga zulm qilib, uzoq yillar qafasda saqlandi. Bir kuni u mahbus qush qafasdan qutulib, shod-u xurramlik bilan havoga ko'tarilib, osmonga chiqib, har tomonga sinchikovlik bilan boqib, o'z diyori tomon yo'l tutdi. Bu baxtiyor qush g'ayrat bilan uchib, necha kunlik yo'lni oz fursatda bosib o'tdi. Ammo zamon zulmi ko'p o'zgarishlar yasab, u turadigan uyni xarob qilgan edi. Kaptar u yerga yetgach, uyini topolmasa ham, o'sha atrofnii aylanib, uchaverdi. Ko'pgina kishilar tomga don sochib, kaptar uchirib, uni ushlab olmoqchi bo'ldilar. Kaptar bu narsalarga hech e'tibor bermay o'z tomini izlab qanot qoqardi. Ko'p aylangach, nihoyat o'z vayronasini topdi-da murodiga yetdi.

Ki, ma'nus erur garchi vayronadur,
Netay shoh qasrinki, begonadur.
Yerur qushqa xushroq chu boqsang ayon,
Murassa' qafasdan tikan oshyon. [2.377]

Shoh qasrini nima qilsin, o'z uying – o'lan tushaging, degan gap bor xalqimizda. Navoiyning mashhur

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulga tikondek oshiyon bo'lmas emish.
Rubiysi ham aynan mazkur mavzunining asl mohiyatini ochib beradi.

Tariximizda safar qilib saodatga erishgan mashhur shaxslardan biri bu shoh va shoir buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburdir. Bobur Hindistonda garchi buyuk imperiya tashkil qilgan bo'lsa-da bir umr Vatan sog'inchi bilan yashaganini "Boburnoma" asari, g'azal hamda ruboiylari orqali yaxshi bilamiz. Masalan, ruboiylaridan birida yarim hazil, yarim chin bilan yozadi:

Hajringda bu tun ko'ngulda qayg'u erdi,
Vaslingga yetishmadim, jihat bu erdi:
Ko'zim yoshi bilan ohim tutunidin
Yo'l balchiq erdi, kecha qorong'u erdi.

Vataniga yeta olmaganiga sabab oh uraverganidan butun olam tuman bo'lib, kecha qorong'u, ko'z yoshi selidan yo'llar balchiqqa aylangan.

Xullas, asrlar ohsa-da Navoiy asarlarining badiiy qimmatini va tarbiyaviy ahamiyati yo'qolmaydi, yoshlar tarbiyasida muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. – Т: Ғафур Ғулум номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1995;
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006
3. Бертельс Е.Э. Навоий. Монография (И.К.Мирзаев таржимаси). Т.: Тафаккур қаноти.2015.
4. www.edu.uz.Mirziyoyev Sh. 2020-yil 1-oktabrda so'zlagan nutqi.
5. Эркинов А. Алишер Навоий «Хамса»си талқини манбалари. – Т.: Тамаддун, 2018.
6. Тоҳиров С.Қ. Алишер Навоийнинг «Садди Искандарий» достони архитектураси ҳақида. Темурийлар даврида яратилган «Хамса»ларнинг компаративистик тадқиқи ва уларнинг шарқ адабиёти тараққиётидаги ўрни мавзуидаги халқаро илмий-назарий анжуман (6-7 ноябрь 2020й)
7. Фаридуддин Аттор. Тазирад ул-авлиё. Т: Ғафур Ғулум номидаги бадиий адабиёт нашриёти,2013.
8. www.Ziyouz.com. kutubxonasi
9. www.xorazmiy.uz

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Kodirova Shaxnoza Abdurahmonovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” fakulteti o’qituvchisi

shaxnoza-90-77@mail.ru

MADANIYATLARARO MULOQOT JARAYONIDA MULOQOTNING NOVERBAL VOSITALARNING GENDER XUSUSIYATLARI TALQINI (YAPON TILI MISOLIDA)

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-2-97>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada madaniyatlararo muloqot jarayonida muloqotning noverbal vositalarining gender xususiyatlari muammolari ko’rsatilgan. Mazkur vositalar yordamida hatto til vositalari yordamida ifodalab bo’lmaydigan kechinmalarni ifodalash mumkin. Yapon tilida ana shu vositalarning gender jihatdan farqlanishi ya’ni, erkak va ayollar tomonidan turlicha ko’rinishlarda ishlatilishi salomlashish, xayrlashish, uzr so’rash, rad qilish va boshqalarning noverbal vositalardagi ifodalari misollar yordamida ko’rsatib berilgan. Oddiygina tuyuladigan salomlashish va xayrlashish paytida amalga oshiriladigan ta’zimning egilish graduslari mavjudligi, egilish paytida erkak va ayolning qo’l holatidagi farqlanishlar ham alohida ahamiyat kasb etishi, noverbal munosabatlarni o’rganishga ehtiyoj borligidan dalolat beradi. Madaniyatlararo munosabatlar jarayonida erkak va ayol nutqlari nafaqat verbal (til ishtirokida), balki, noverbal (til ishtirokisiz) jihatdan ham farqlanadi. Boshqa millat vakillariga bu sezilmasligi mumkin, lekin yapon tilida ana shu farqlar o’z o’rnida qo’llanilmasa, erkaklar nozik harakatlarni, ayollar esa qo’pol harakatlarni ifodalab, nutq jarayonida noqulayliklarga olib kelishi mumkin.

Kalit so’zlar: madaniyatlararo muloqot, verbal va noverbal munosabatlar, erkak va ayol nutqlari.

Kodirova Shakhnoza Abdurahmonovna

Samarkand state institute of foreign languages

Faculty of Translation theory and practice, Teacher.

shaxnoza-90-77@mail.ru

INTERPRETATION OF GENDER CHARACTERISTICS OF NONVERBAL MEANS OF COMMUNICATION IN THE PROCESS OF INTERCULTURAL COMMUNICATION (IN JAPANESE)

ANNOTATION

This article focuses on the nonverbal relationships encountered in the process of intercultural communication in Japanese. These tools can be used to express experiences that cannot be expressed even in language. In Japanese, the non-verbal expressions of greetings, goodbyes, apologies, rejections, etc., which are used differently by men and women, are illustrated by gender differences. The presence of degrees of flexion with a simple bow and parting, differences in the

position of the hands of men and women during flexion, the need to study non-verbal relationships are also significant. In the process of intercultural communication, male and female speech differ not only verbally (with the participation of language), but also non-verbally (without the participation of language). This may not be visible to people of other nationalities, but if these differences are not applied in their proper place in Japanese, men may express subtle gestures, and women may express rude gestures, causing discomfort in the speech process.

Key words: intercultural communications, verbal and nonverbal communications, male and female speech,

Кодирова Шахноза Абдурахмоновна

Самаркандский государственный институт
иностранных языков Преподаватель факультета
теории и практики перевода
shaxnoza-90-77@mail.ru

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК НЕВЕРБАЛЬНЫХ СРЕДСТВ КОММУНИКАЦИИ В ПРОЦЕССЕ МЕЖКУЛЬТУРНОГО ОБЩЕНИЯ. (НА ПРИМЕРАХ ЯПОНСКОГО ЯЗЫКА)

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются гендерные проблемы невербального общения в межкультурном отношении. Эти средства можно использовать для выражения переживаний, которые невозможно выразить даже языком. В японском языке невербальные выражения приветствий, прощаний, извинений, отказов и т. д., которые используются мужчинами и женщинами по разному, имеют свои гендерные различия. Также значимы наличие степеней сгибания при простом поклоне и прощании, различия в положении рук мужчин и женщин при сгибании, показывает необходимость изучения невербальных взаимоотношений. В процессе межкультурного общения мужская и женская речь различаются не только вербально (с участием языка), но и невербально (без участия языка). Это может быть незаметно для людей других национальностей, но если эти различия не применяются в их надлежащем месте в японском языке, мужчины могут выражать тонкие жесты, а женщины могут выражать грубые жесты, вызывая дискомфорт в речевом процессе.

Ключевые слова: межкультурные общение, вербальные и невербальные отношение, женская и мужская речь.

Turli xalqlar, tillar hamda madaniyatlar tobora yaqinlashib borayotgan bugungi hayotimizda, xorijiy tillarni o'rganish bilan bir qatorda, o'zga millat madaniyatini o'rganishga ham qiziqish tobora ortib bormoqda. Kundan kunga madaniyatlararo muloqot masalalari umume'tiborini tortmoqda. Madaniyatlararo muloqot masalalari ustida tadqiqot olib borayotgan olimlarning ta'kidlashishicha, o'zga millat vakillari bilan muloqot jarayonida leksik, grammatik yoki uslubiy xato va kamchiliklarga ko'z yumish mumkin. Bunga sabab, til bilimlaridagi kamchiliklari deb qabul qilinadi. Lekin muloqot jarayonida madaniy – ijtimoiy me'yorlarning, odob – ahloq normalarining buzilishi kechirilmaydi va tomonlar o'rtasida tushunmovchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Ya'ni, mananiyatlararo tushunmovchiliklar ma'lum madaniyat vakillarining haqoratlanishi yoki kamsitilishiga sabab bo'lishi, kommunikativ xatolar shaxslararo va millatlararo muloqotning muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga, hattoki, jiddiy to'qnashuv, geosiyosiy oqibatlariga olib kelishi ham mumkin. Mazkur vaziyatdan kelib chiqqan holda, madaniyatlar aralashuvi, standartlashuv, globallashuv, integratsiyalashuv yuz berayotgan bugungi dunyomizda, madaniyatlararo muloqot muammolari, masalalarini tadqiq qilish, ularni o'rganish dolzarb masalalardan biri bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda til bilishning o'zi kommunikatsiya ishtirokchilari bir – birlarini tushunishlari uchun etarli bo'lolmaydi. O'zga madaniyat vakillari munosabatlari jarayoni samarali va muvaffaqiyatli bo'lishi uchun nutq ishtirok etgan va etmagan muloqotning milliy madaniy xususiyatlari, ijtimoiy – madaniy me'yorlar, odob – axloq qoidalari, kommunikatsiyadagi ustuvor


xususiyatlar va xushmuomalalikning milliy tizimi haqidagi bilimlarga ega bo'lish kerak bo'ladi. Madaniyat – madaniyatlararo muloqotning asosiy tushunchalaridan biridir. Shuning uchun madaniyatning ontologiyasini, uning semiotik va boshqa xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. [7]

Albatta, lingvomadaniy jihatidan har bir til o'z leksik va morfologik tuzilishiga ko'ra bir – biriga yaqin va ayni vaqtda individualdir. Tillarda turli (grammatik, leksik, hurmat, kamtarlik va boshqa) kategoriyalar mavjud va madaniyatlararo muloqot jarayonida mazkur kategoriyalar pragmatikasi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyatlararo muloqot, mohiyatan maxsus vaziyatdagi shaxslararo kommunikatsiya bo'lib, u bir ishtirokchi boshqa ishtirokchining madaniy farqini sezganda yuzaga chiqadi. Bunday muloqot turli madaniyatlardagi har qanday insonga xos bo'lgan farqli jihatlar bilan bog'liq ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Madaniyatlararo muloqot madaniyat farqlari ko'rinib turgan individlar va guruhlar orasidagi ramziy o'zaro munosabat jarayoniga asoslanadi. Ushbu farqlarning qabul qilinishi va ularga munosabat bildirilishi, muloqotning ko'rinishi, shakli va natijasiga ta'sir ko'rsatadi. Madaniyatlararo muloqot jarayoniga madaniyat farqlari bilan birga, muloqotchilarning jinsi, kasbi, yoshi, ijtimoiy maqomi, bundan tashqari, uning uddaburonligi, sabr-bardoshi va shaxsiy tajribasi ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mazkur ta'riflarga asoslanib, madaniyatlararo muloqot turli madaniyat vakillari orasidagi o'zaro aloqa, muloqot degan xulosaga kelishimiz mumkin. Madaniyatlararo muloqot kommunikativ aktning farqli madaniyatlarga tegishli bo'lgan ikki ishtirokchisining o'zaro bir-birini tushunishidir. [6]

“Madaniyatlararo muloqot” tushunchasi birinchi marta 1954-yilda G.Trager va E.Hollning “Madaniyat va kommunikatsiya. Tahlil modeli” nomli asarida ilmiy muomalaga kiritilgan. Mazkur asarda “madaniyatlararo muloqot” insonning o'z istaklari yo'lida intilishi lozim bo'lgan ideal maqsadi, uni o'rab turgan tashqi dunyoga yaxshiroq va samaraliroq moslashishi sifatida talqin qilindi. Shuningdek, asarda madaniyat va kommunikatsiyani o'rganishning yangi usullari ishlab chiqildi. Shu tariqa, madaniyatlararo muloqot yo'nalishi shakllantirildi va u hozirgi kunda tadqiqotchilar tomonidan nazariy jihatdan etarli darajada rivojlantirilib kelinmoqda.

Madaniyatlararo muloqot jarayonida tilshunoslar tomonidan alohida qiziqish bildirilayotgan jihat, kommunikatsiyaning noverbal jihatlaridir. Tilshunoslar noverbal muloqot ham xuddi til singari madaniyatga bog'liq bo'ladi, degan xulosaga kelganlar. Madaniyat va kommunikatsiya tadqiqining asoschilari bo'lgan T. Hallning “The silent language” (“Sukut tili”) (1959) va “YAshirin jihat” – The hidden demonsion(1966) kabi asarlari yangi yo'nalishning shakllanishiga asos bo'lgan.

Noverbal (til ishtirokisiz, nutqsiz, so'zsiz) kommunikatsiya, muloqot qilayotgan individlarning bir-biriga o'zaro ta'siri va emotsional holati haqida xabar, signal beruvchi muloqot shaklidir. Mazkur vositalar yordamida hatto til vositalari yordamida ifodalab bo'lmaydigan kechinmalarni ifodalash mumkin. Odatda noverbal xabar g'ayriixtiyoriy va o'z - o'zidan yuzaga keladi. Odamlar o'z xohish – istaklarini, maqsadlarini atrofda gilardan yashirish uchun nutqlarini nazorat qilishlari mumkin, ammo ular o'zlarining noverbal xatti-harakatlarini nazorat qila olmaydilar. Haqiqatdan ham, inson o'z emotsional harakatlardan o'zini tiyib turishi juda qiyin vaziyatdir. Albatta, noverbal muloqotlar noverbal vositalar yordamida amalga oshiriladi. Noverbal vositalar deganda imo-ishoralar (mimika), jestlar (tana va qo'l harakatlari), tegish (quchoqlash, qo'l tegizish, silash, o'pish va boshqalar), tana holati, kishilar orasidagi masofa kabilar tushuniladi. Bizga ma'lumki, Yapon tilining lingvomadaniy asoslari jihatidan jestlarga muloqot jarayonida inson nutqining



Puc. 10

bosh, qo'l yoki barmoqlar, tana harakatlari bilan birga parallel tarzda kechadigan, kishining bevosita suhbatdoshiga nisbatan munosabatini ifodalaydigan xatti – harakatlar yig'indisi kabi ta'rif keltiriladi. Bu esa o'z navbatida, yapon va turli madaniyatlarda turlicha ma'no anglatadi. Tana harakatlari bilan ifodalanadigan eng keng tarqalgan madaniyat namunalari albatta, turli madaniyat vakillarining SALOM va XAYRLASHUVida o'z aksini topadi. Masalan, Indoneziyaning Bali orolida ikki sevishgan bir-birini pishillab salomlashi mumkin. Birma, Mo'g'iliston va Laplandiyaliklar salomlashish tariqasida bir-birini hidlashi, eskimoslar notanish kishining boshiga va elkasiga mushtlashi mumkin. Amazonka xalqi o'zaro elkaga qoqish orqali, Polineziya xalqi esa suhbatdoshini quchoqlab, elkasini silash orqali o'zining salomini ifodalaydi [6]. O'zbek va yapon xalqlarining salomlashish odati esa yoshga, jinsga, sharoitga, mavqe'ga, va marosimlarga ko'ra turli shakllarda ijro etiladi. Jumladan, o'zbeklar salomlashish paytida qo'lini ko'ksiga qo'yish, qo'l qovushtirish kabi harakatlardan foydalansalar, qo'llarini yonga qilgan holatda egilib, ta'zim qilib salomlashish yapon madaniyatiga xos noverbal madaniyat vositasi hisoblanadi. O'z navbatida mazkur "ta'zim qilish" xarakati suhbatdoshning mavqeiga qarab bir necha ko'rinishlarga ega. Yapon madaniyatida salomlashish ierarxik munosabatlarni qamragan 15, 30, 45, 90 darajali ta'zim qilish vositasida ifodalanadi [1]. Ta'zimning darajasi qarshidagi kishining yoshiga, jinsiga, mansabiga, mavqeyiga, shuningdek, salomlashish joyiga qarab farqlanadi. 1) 15° – faqat qo'lda uchragan tanishlarga mo'ljallangan engil ta'zim,. 2) 45° – mavqeyi va mansabi yuqori bo'lgan shaxslar, o'qituvchilar va boshqa rasmiy shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan o'rtacha ta'zim. 3) 90° – jiddiy iltimos bilan murojaat qilinganda, turli marosimlar chog'ida yuksak martabali mehmonlarga, shuningdek, ijro etiladigan yuksak ehtiromli ta'zim. Xuddi shu o'rinda, salomlashish jarayonida erkak va ayollarning ta'zim qilish ko'rinishi noverbal munosabatlarning yaqqol ko'rinishi hisoblanadi [5]. Bundan tashqari, do'stlar bilan salomlashish jarayonida ayollarda qo'l silkitish, erkaklarda esa bosh kiyimini yechish holatlari ham kuzatiladi.



Madaniyatlararo muloqot jarayonidagi tillarda "gender" tushunchasi mavjud bo'lib, mazkur tushuncha uchramaydigan tillarda tarjima jarayonida biroz qiyinchilik yuzaga keladi. Bu tushuncha yapon tilida ham mavjud bo'lib, yapon madaniyatida erkaklar do'stlari bilan xayrlashish chog'ida o'ng qo'lini ko'ksiga ko'tarib, keyin tezda pastga tushirishadi. Shuningdek, bir qo'lni elgaga qadar pastdan yuqoriga ko'tarib ham xayrlashiladi. Xuddi salomlashishda bo'lgani kabi, xayrlashuv jarayonida xam ikki madaniyat o'rtasidagi tafovutlarni ko'rishimiz mumkin. Bizning o'zbek madaniyatimizda mavqei yuqori bo'lgan va yoshi katta shaxslarga qo'lni ko'ksiga qo'yib, yapon madaniyatlarida esa xuddi salomlashgandagidek ta'zim qilib xayrlashiladi. O'zbek noverbal muloqotida "xayr" ishorasi yoshi teng yoki kichik bo'lgan suhbatdoshlarga, shuningdek, sinfdosh, kursdosh hamda kasbdoshlarga nisbatan qo'lni ko'tarib, kaftini yuqoridan pastga silkitilsa, yapon noverbal muloqotida esa, qo'lni ko'tarib, chapdan o'ngga silkitib xayrlashiladi.

Yapon tilining lingvomadaniy asoslari jihatidan Noverbal muloqotning yana bir elementi, ma'lum bir fikrni TASDIQLASH yoki INKOR QILISH, ya'ni, suhbatdoshning fikriga rozilik yoki qarshilik bildirishdagi harakatlardir.



Ma'lumki, rozilikni ifodalash va biror fikrni tasdiqlash, ma'nosida boshni vertikal (yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga), qarshilikni ifodalashda esa boshni gorizontal yo'nalishda (o'ngdan chapga va chapdan o'ngga) bir yoki bir necha marta silkitish harakati, deyarli barcha xalqlarning noverbal muloqotida kuzatiladi, jumladan o'zbek madaniyatimizda ham.

Ammo, boshqa madaniyatlardan biroz ajralib turadigan Yapon madaniyatida "rozilik" yuqoridagi usulga qo'shimcha tarzda, ayollarda: bir yoki bir necha marta chapak chalish, erkaklarda esa, qo'llarni bosh uzra ko'tarib halqa hosil qilish harakatlari vositasida ham ifodalanadi.

Bundan tashqari, bosh irg'itish vositasida ba'zan yaponlar suhbat chog'ida o'zlarini xuddi "xo'p" degan tinglovchidek tutishlari qarshidagi suhbatdoshda "hamma narsani tasdiqlayapti" degan taassurot qoldirishi mumkin. Aslida, mutlaqo teskarisi bo'lishi ham mumkin. Yapon madaniyatida inkor ma'nosini odatdagidek, bosh chayqash bilan birga, yuzning oldida bir qo'lni o'ngdan chapga harakat qildirib, bosh chayqash orqali ham ifodalanadi. Yapon madaniyatiga xos yana bir inkor ko'rsatkichi bu, bilaklarni yuqoriga va pastga harakatlantirishdir. Bu holat ham yuqorida keltirib o'tgan gender tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, odatda ushbu qo'l harakati katta yoshli ayollar tomonidan ularga xushomad qilinganda ijro etiladi. Ikki qo'lning ko'rsatkich barmoqlarini kesishtirib (krest) qilib ko'ksiga qo'yish bilan yaponlar biror bir ish - harakatni bajarishga "taqiq", "biron ishni bekor qilish" yoki "rozi bo'lmaslik" xolatlarni anglatadilar.



Umuman olganda, suhbatdoshining iltimosiga yoki fikriga inkor ma'nosida javob berishda yapon madaniyatida "Yo'q" javobini to'g'ridan to'g'ri ishlatish madaniyatsizlik hisoblanadi. Uning o'rniga

ちよっと ... (chotto) haligi

...ですか、... はちよっと (... desuka, ... wa chotto)

— 今晚本を借りてもいいですか。Kechqurun kitobingizni olib tursam

maylimi?

— ちよっと ... Haligi ...

yoki

— 本ですか、本はちよっと... Kitobmi? Kitobim haligi...

kabi ko'rinishda ifodalanadi. Albatta, bunda noverbal yuz ifodalari namoyon bo'ladi. Yapon madaniyatidan bexabar kishilar inkor javobni rozilik alomati sifatida tushunishlari ma'lum kelishmovchiliklarga olib kelishi mumkin. SHuning uchun yaponlar bilan muloqot chog'ida ular bilan uyg'un munosabatda bo'lish, bahslardan qochish hamda ularning tuyg'ularni ifodalash tarzini tushunishga harakat qilish maqsadga muvofiqdir.

Noverbal vositalar haqida gapirar ekanmiz, kundalik hayotimizda uchraydigan minnatdorchilik bildirish, uzr so'rash, ovqatlanish odobi va boshqa elementlarga to'xtalib o'tmasdan ilojimiz yo'q. Yapon xalqi o'zining mulozamatliligi, bir - biriga va boshqa millat vakillariga hurmat ko'rsatishi bilan dunyo xalqlari madaniyatida o'z o'rni va ahamiyatini yillar davomida saqlab kelmoqda. Jumladan, yaponlar minnatdorchilik bildirishda xuddi

salomlashayotgandek ta'zim qilish harakatini bajarishadi. Lekin minnatdorchilik bildirilayotgan holatga yoki suhbatdoshning mavqeiga qarab, minnatdorchilik so'zlari turli ko'rinishga ega. Masalan, yoshi yoki mavqei yuqori bo'lgan suhbatdoshga どうも ありがとう ございます – doumo arigatou gozaimasu (minnatdorman) tengdoshlarga shunchaki どうもdoumo ・ ありがとう arigatou yoki ありがとう ございます arigatou gozaimasu kabi ishlatish mumkin.

Hattoki kechirimni ifodalaydigan すみません sumimasen ・ どうもすみません doumo sumimasen so'zlari ham ba'zi vaziyatlarda “raxmat”ni ifodalaydi. Bunda shaxs suhbatdoshiga “sizni ovora qilganim uchun uzr, men uchun vaqtingizni ayamaganligiz uchun raxmat” ma'nolarini ifodalaydi. Albatta, mazkur verbal vositalarni qo'llashda yuqorida keltirib o'tilgan ta'zimdagi egilish burchaklari ham ahamiyatlidir. すみません (sumimasen) minnatdorchilikni ifodalashdi qo'llanilishi uning kechirim so'rashdagi ahamiyatini kamaytira olmaydi. Yapon madaniyatida kechirim so'raning bir necha noverbal vositalari mavjud bo'lib, ular,

- 1) kechirimning ta'zim vositasida ifodalanishi
- 2) kaftlarni birlashtirish
- 3) bir qo'lni ko'ksiga ko'tarib, keyin uni xuddi biron nima kesayotgandek ikki yoki uch marta oldinga harakatlantirish
- 4) qo'llarini boshi uzra ko'tarib, kaftlarni birlashtirish
- 5) peshanasiga bir necha marta urish kabi qo'l harakatlari vositasida kulimsirab amalga oshiriladi [5]. Yapon madaniyatida o'z qayg'usiga birovni sherik qilmay, suhbatdoshini ham ham qayg'uga solmaslik uchun domo kulimsirash holati mavjud. Hatto , o'z yaqin jgaridan ayrilganda ham, keyingi kunlarda ishga yoki biror tadbirlarga borganda yuzida qayg'u alomatlarini umuman sezdirmaydi. Tadbir ishtirokchilarining kayfiyatini o'z qayg'usi bilan tushirmaslik yuzasidan amalga oshiriladigan mazkur tabassum ham noverbal vositalardan biri hisoblanadi. Lekin o'zbek madaniyatida ta'ziyali kishilarning kulib yurishi, atrofdagilarda biroz salbiy fikrlar uyg'otishi mumkin.

Turli jestlar - imo ishoralarni Madaniyatlararo lakunalar qatoriga lakunalarning katta qismini kiritish mumkin. Jumladan, gavda holatini turlicha tutish, emotsional holatni bildiruvchi mimikalar turli madaniyatlarda turlicha ma'nolarni anglatadi. Masalan o'zbeklarda qulni musht qilib bosh barmoqni tik qilish «ishlar besh», o'ng qulini ko'ksiga qo'yish, hurmat izhori, «xo'p bo'ladi!» «salom», shu ma'noda koreyslarda bosh egib engilgina ta'zim qilish kabi ma'nolarni anglatadi. Turli halqlar madaniyatidagi tushunilishi qiyin bo'lgan bu kabi kinetik lakunalarni aniqlash nafaqat muloqot jarayonidagi o'zaro tushunishni qiyinlashtiradi, balki matn tarjimasida ham qo'pol xatolarga olib kelishi mumkin.

Muloqot jarayonida har ikkala jins vakillari uchun ham umumiy hisoblangan jest, harakat va mimikalar kabi noverbal vositalar mavjud bo'lib, ular nutq jarayonida qo'l, yelka, bosh, yuz va boshqa tana a'zolarining ishtirok etishi hisoblanadi. Lekin erkak va ayollardagi tana harakatlari tartib jihatdan farqlanishi olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. E'tiborli jihati shundaki, noverbal muloqot jarayonida, ko'z harakati erkaklarga nisbatan ayollarda ko'proq uchraydi.

Ularning fikricha muloqot jarayonida erkak va ayollarning noverbal harakatlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Erkaklar	Ayollar
Qo'l harakatlari → mimika (yuz, kulgu) →yelka harakati → bosh harakati	Mimika (yuz ifodasi, kulgu, ko'zlar,) → bosh harakati → qo'l harakati → yelka harakati

Turli jins vakillari o'rtasidagi muloqot jarayonida aloqalar noverbal vositalar yordamida amalga oshirilsa, bir necha farqli jihatlarga duch kelinadi. Erkak va ayollar tabiatan bir-birlaridan nafaqat jismoniy va fiziologik jihatdan, balkim, muloqot, psixologik, yuz tuzilish va boshqa ko'plab holatlar bunga sabab bo'ladi. Yapon tilida boshqa tillarga qaraganda, noverbal nutq vositalarining erkak va ayollar tomonidan qo'llanilishiga doir holatlar juda ko'p uchraydi. Bundan tashqari, nutqning yosh, ijtimoiy mavqe' va hattoki, ana shu jihatlarda ham gender xususiyatiga ko'ra

bo'linish holatlari ham uchraydi. Keyingi maqolalarda nutqning anashunday ko'rinishlariga doir olib borayotgan tadqiqotlarni yoritish rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kirillova O.V. Vujskie I jenskie jesti I mimika: obshee i razlichnoe
2. Rogoznaya N.N., Matsura Aki. Yaponskie neverbalnie sredstva obsheniya // Yazik, soznanie, kommunikatsiya: Sb. statey / Otv. red. V. V. Krasnix, A. I. Izotov. –M.: MAKS Press, 2001.
3. Saidova M., Qo'ziev U. Lingvokulturologiya. Uslubiy qo'llanma. Namangan – 2017. 127 b
4. Tumarkin P.S. Jest i mimika v obshenii yaponsev. Lingvostronovedenicheskiy slovar-spravochnik – M.: Rus.yaz. 2001 – 64 str.
5. Usmanova SH. Madaniyatlararo muloqotda noverbal vositalarning ahamiyati // Madaniyatlararo muloqot masalalari: til, matn, tarjima. Ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: TOSHDSHI, 2016.
6. Usmanova SH., Rixsiev G. Madaniyatlararo muloqot. O'quv qo'llanma – T.: TDSHU, 2017.
7. Поваляева М.А., Рутер О.А. РНевербальные средство общения. Ростон - на –Дону; Феникс 2004. – 352 с.
8. Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. -77 с.
9. 井出 幸子、かわなり 巫女 「日本の女性語と世界の女性語」 Г.С. 1984, №3
10. 言語学百料辞典 (Genngoaku hyakka jiten) Лингвистическая энциклопедия, 1999
11. みんなの日本語初級2 (Minna no nihongo sekkyu 2) Перевод и грамматический комментарий на русском языке, 2007
12. <https://klex.ru/csz>
13. <http://www.linguistic.ru>
14. <http://www.twprx.ru>

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Самиева Сайёра Нейматовна

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети,
Инглиз тили назарий аспекти кафедраси катта ўқитувчиси

ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ГРАММАТИК КОМПЕТЕНЦИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАЪЗИ ТИЛЛАРАРО ҚИЙИНЧИЛИКЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ УСУЛЛАРИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-2-98>

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада муаллиф талабаларни инглиз тилини ўқитишда грамматик компетенцияни ривожлантириш жараёнида грамматик ходисаларни ўзлаштиришда пайдо бўладиган баъзи тиллараро қийинчиликлар (аниқ ва ноаниқ артиклар, феъл замонлари, there is (are) ва to be going to do конструкциялари мисолида), уларнинг келиб чиқиш сабаблари ва бу қийинчиликларни бартараф этиш усуллари ёритган. Муаллиф талабаларнинг артикларни, феъл замонларини, there is (are) ва to be going to do конструкцияларини ишлатишларида келиб чиқадиган қийинчиликларни енгиш учун мўлжалланган тил (лисоний) ва нутқий (коммуникатив) машқларни таклиф қилган.

Калит сўзлар: тиллараро интерференция, қийинчиликлар, артикль, тил ва нутқий машқлар, грамматика, бартараф этиш.

Самиева Сайёра Нейматовна

Узбекский государственный университет мировых языков,
Старший преподаватель кафедры теоретических аспектов английского языка,

НЕКОТОРЫЕ МЕЖЪЯЗЫКОВЫЕ ТРУДНОСТИ ПРИ РАЗВИТИИ ГРАММАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА И СПОСОБЫ ИХ УСТРАНЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В этой статье автор обсуждает некоторые межъязыковые трудности при развитии грамматической компетенции, которые возникают у студентов при усвоении грамматических явлений при обучении английскому языку (на примере определенных и неопределенных артиклей, времен глаголов, конструкций there is (are) и to be going to do), показаны причины интерференции и пути преодоления этих трудностей. Автор предлагает языковые (лингвистические) и речевые (коммуникативные) упражнения, предназначенные для преодоления трудностей, с которыми сталкиваются студенты при употреблении артиклей, времен глаголов, конструкций there is (are) и to be going to do.

Ключевые слова: межъязыковая интерференция, трудности, артикль, языковые и речевые упражнения, грамматика, преодоление.

Samiyeva Sayyora Nematovna
Uzbek State World Languages University,
Senior teacher of the Department of Theoretical
Aspects of the English Language

SOME INTERLINGUAL DIFFICULTIES IN DEVELOPING GRAMMATICAL COMPETENCE WHILE LEARNING ENGLISH AND THE WAYS OF OVERCOMING THEM

ANNOTATION

In this article, the author discusses some interlingual difficulties that students might encounter in the process of acquisition grammatical phenomena (in the example of definite and indefinite articles, verb tenses, constructions there is (are) and to be going to do), its causes and the ways of resolving the problems have been shown. The author suggested language (linguistic) and speech (communicative) exercises designed to resolve the problems encountered by students in using articles, verb tenses, there is (are) and to be going to do constructions.

Key words: interlingual interference, problems, article, language and speech exercises, grammar, resolve.

Грамматик қийинчиликлар таснифида тиллараро ва тилички интерференциялари мавжуд. Ўрганилаётган чет тилидаги грамматик шакл ва конструкциялар орасидаги тафовутлар тил грамматика тизими ичидаги интерференцияни келтириб чиқаради. Чет тили ва она тили грамматика тизими ўртасидаги тафовутлардан тиллараро интерференция пайдо бўлади. Хар иккала интерференция ходисаларини ҳисобга олиш ва уларни бартараф қилиш йўллари изламок ўқитувчининг диққат марказида бўлиши лозим [1. 178].

Ўзбек аудиториясида чет тил грамматикасини ўргатиш муаммолари Т.Қ.Сатторов, Т.Этминов, Р.Н.Кремер, И.Э.Тарсина, Л.Р.Беньяминов, Ў.Хошимов, А.Парпиев, М.М.Мамажонова, Ю.Э.Темиров, Н.Бақоев, Ш.Ю.Бегалиев, Ҳ.Бойқўзиев, Ю.М.Гулькаров, М.И. Димент, Ҳ.Т.Мустафаева, Ш.С.Алимов ва М.Ю.Солиеваларнинг номзодлик диссертацияларида ёритилган. Охирги йилларда М.А.Абдуллаева, Д.А.Курбанбаев, И.А.Ҳакимов ва А.А.Исоқовлар ўз илмий-тадқиқот ишларида талаба/ўқувчиларга инглиз тили грамматикасини ўқитиш муаммоларини кўриб чиққанлар.

Т.Қ.Сатторовнинг номзодлик диссертациясида ўқувчилар оғзаки нутқида қийинчилик туғдирадиган инглиз тили грамматик ходисаларининг таснифи, инглиз, ўзбек ва рус тилларида ўхшаш (транспозицион) ва фарқ қилувчи (интерференцион) грамматик ходисаларнинг қийинчилик даражаси аниқланган [2].

Чет тил пассив грамматик ходисаларини алгоритмик усул билан ўргатиш масалалари И.Э.Тарсинанинг илмий тадқиқотида таҳлил этилган [3].

М.А.Абдуллаеванинг тадқиқотида талабаларга Present continuous ва Present Perfect шакллари ўргатиш масалалари ёритилган [4].

А.А.Исоқов ўз илмий ишида академик лицей ўқувчиларининг инглиз тилида грамматик кўникмаларини такомиллаштириш масалаларини ёритган [5].

Д.А. Курбанбаев талабаларга амалий грамматикани ўқитишда назорат объектлари, турлари, шакллари ва назоратга қўйиладиган талаблар масалаларини кўриб чиққан. Талабалар нутқ омилкорлигини грамматик жиҳатдан назорат қилишда инновацион усуллар (компьютер тести, ролли ўйинлар)дан фойдаланишнинг самарадорлиги аниқланди [6].

Ўзбек методисти профессор Ж.Жалолов грамматикани методик тайёрлаш, ўқувчиларда грамматик кўникмаларни шакллантириш масалаларини кўриб чиққан (Грамматик машқлардан намуналарни кўрсатган) [7. 194].

Рус методистлари: Ю.А.Ситнов, Е.А.Рублева, А.В.Гулякин, П.Г.Курбанова, А.С.Шимичев, Л.А.Митчелл, Е.Д.Байкалова, М.Н.Игнатова, Е.М.Прибыльнова, Р.Ш.Чермокина, Т.В.Румянцева, Н.А.Спичко, И.В.Чернецкая, О.А.Протасова, М.В.Лебедева ва бошқалар рус

аудиториясида чет тил грамматикасини коммуникатив ўргатиш масалаларини кўриб чиққанлар.

Биз ушбу мақоламизда ўзбек аудиториясида инглиз тилини ўрганишда баъзи тиллараро қийинчиликлар ва уларни бартараф этиш масалалари устида тўхталмоқчимиз. Тиллараро қийинчиликларни, масалан, феъл замонларида, инглиз тилидаги гапнинг икки таркиблилиги, феъл ишлатилиш шартлиги, сўз тартибининг турғунлиги, феъл шаклларининг ясалиши, ўзбек тилида (ёки инглиз тилида) йўқ грамматик ходисаларда (аниқ артикль: the ва ноаниқ артикль: a (an), предлогларда излаш мумкин. Ундан ташқари, инглиз тилидаги баъзи конструкцияларда, масалан: there is (are) конструкциясида ёки келаси замондаги олдиндан режа қилинган иш-ҳаракатни ифодалаш учун to be going to do конструкциясининг Present continuous билан адаштириш ҳолатлари, олмошларнинг хато ишлатилиши, модал феълларнинг хато танланиши, If шарт эргаш гапли қўшма гаплардаги хатоликлар ҳам кўп учрайди.

Ушбу мақоламизда талабаларнинг артикларни ва феъл замонларини ишлатишдаги йўл кўядиган хатолари ва бу хатоларнинг сабаблари ҳақида сўз юритмоқчимиз. Ўзбек аудиторияси талабалари артикларни ўрганишда катта қийинчиликларга дуч келадилар, чунки ўзбек тилида артиклар мавжуд эмас. Аниқ артикларнинг отлар олдида ишлатилишининг ўзига хос хусусиятлари мавжуд. **The** артиклининг ишлатилиш қоидалари кўп. Уларнинг баъзиларини, яъни талабалар учун кўпроқ қийинчилик келтириб чиқарадиган ҳолатларни кўрсатиб ўтмоқчимиз:

<p>Инглиз тилида баъзан артикларнинг отлар олдида ишлатилмаслик ҳолатлари талабаларни яна ҳам чалкаштиради. Баъзи ҳолатларда аниқ артикль ўрнига эгалик олмошлари ишлатилиши мумкин: This is my home – Бу менинг уйим. I know your address – Мен сизнинг яшаш манзилингизни биламан. His sister is a teacher – Унинг опаси ўқитувчи.</p>	<p>Баъзи бир қотиб қолган иборалар олдида/билан а артикли ишлатилади: a few – бир нечта a great deal of – жуда кўп a little – кўп эмас as a rule – қоидага кўра as a result – натижада</p>
<p>Атоқли отлар олдида: New York – Нью-Йорк, James Green – Джеймс Грин, Russia – Россия ва ҳ.к.</p>	<p>Дунёдаги якка ягона нарсалар олдида the аниқ артикли ишлатилади: the Sun – қуёш, the Moon – ой, the Earth – ер</p>
<p>Фасллар, ойлар ва ҳафта кунлари олдида хам ҳеч қандай артикль ишлатилмайди: in winter – қишда in July – июльда on Tuesday – сешанба кунда to have breakfast/dinner/lunch – нонушта/тушлик/иккинчи нонушта қилмоқ</p>	<p>The аниқ артикли дунё томонлари олдида ишлатилади: the East - шарқ the West – ғарб the North – шимол the South – жануб</p>
<p>Баъзи бир қотиб қолган иборалар олдида/билан ҳеч қандай артикль ишлатилмайди: all day/night long – кун бўйи/кечаси билан day after day – кун сайин night after night – ҳар кеча day in, day out – вақти вақти билан Бироқ баъзи бир қотиб қолган иборалар</p>	<p>The аниқ артикли океан, денгиз, дарё ва тоғ тизмалари олдида ишлатилади: the Atlantic Ocean – Атлантика океани the North Sea – Шимолий денгиз the Thames – Темза дарёси the Alps – Альп тоғлари</p>

<p>олдидан/билан the артикли ишлатилади: the day after tomorrow – эртадан кейин/индинга the day before yesterday – ўтган куни/кечадан аввал in the morning (evening, afternoon) – эрталаб (кечқурун, кундузи) on the whole – умуман олганда</p>	
<p>Касаллик номлари олдидан ҳеч қандай артикль ишлатилмайди. Чунки улар саналмайдиган отлар қаторига киради: anaemia – анемия appendicitis – аппендицит bronchitis – бронхит chicken pox (chickenpox) – сувчечак</p>	<p>Истисно тариқасида, баъзи мамлакат ва шаҳарлар олдидан the аниқ артикли ишлатилади: the United States of America – Америка Қўшма Штатлари the Russian Federation – Россия Федерацияси the Crimea – Қрим</p>

Ўзбек талабалари учун инглиз тилидаги баъзи феъл замонларини ўрганиш ҳам қийинчилик туғдиради: давом замонлари: Present Continuous tense, Past Continuous tense, Future Continuous tense, Perfect замонлари: Present Perfect, Present Perfect Continuous, Past Perfect tense, Past Perfect Continuous tense, Future Perfect tense, Future Perfect Continuous tense. Чунки ўзбек тилида юқорида кўрсатилган замонлар шаклан мавжуд эмас. Бироқ уларнинг баъзилари маъно жиҳатидан ўзбек тилида ишлатилади. Шу сабабли инглиз тили ўрганаётган ўзбек талабалари Past perfect замонининг ўрнига Past simple ни, Present perfect замонининг ўрнига Past simple ни, Future continuous ўрнига Future simple замонини ишлатишлари табиий ҳолдир. Масалан, Present Continuous tense – ҳозирги давом замони ўзбек тилида маъно жиҳатидан мавжуд, бироқ шаклан мос келмайди. Инглиз тилида бу замонни ясалишида to be ёрдамчи феъли ишлатилади. Ўзбек тилида эса феълнинг ўзак-негизига -япман, - япти, , - яптилар, -япмиз қўшимчалари қўшиш орқали ясалади ва ҳ.к. Қуйидаги жадвалда биз инглиз ва ўзбек тилидаги баъзи феъл замонларининг ясалиши ва маъносидаги фарқларни ажратиб олишимиз мумкин:

Инглиз тилида	Ўзбек тилида
<p>Present Continuous tense I am reading the book at the moment.</p>	<p>Мен ҳозир китоб ўқияпман. (Ҳозирги давом замони).</p>
<p>Past Continuous tense I was reading the book when my girl-friend called.</p>	<p>Менинг дугонам кўнғироқ қилганида мен китоб ўқиётган эдим. (Ўтган замон).</p>
<p>Future Continuous tense I shall be reading the book at 2 o'clock tomorrow.</p>	<p>Мен эртага соат 2 да китоб ўқиётган бўламан. (Келаси замон).</p>
<p>Present Perfect tense I have already read the book.</p>	<p>Мен китобни аллақачон ўқиб бўлдим. (Ўтган замон).</p>
<p>Present Perfect Continuous tense I have been reading the book for two hours already.</p>	<p>Мен 2 соатдан бери китоб ўқияпман. (ҳозирги замон давом феъли)</p>
<p>Past Perfect tense I had read the book before my brother came.</p>	<p>Мен китобни акам келгунича ўқидим. (Ўтган замон)</p>
<p>Past Perfect Continuous tense I had been reading the book for two hours already when my mother came.</p>	<p>Онам келганида мен 2 соатдан бери китоб ўқиётган эдим. (Ўтган давом замони).</p>

Future Perfect tense I shall have read the book by 5 PM.	Соат 2 га қадар мен китобни ўқиб бўламан. (келаси замон феъли)
Future Perfect Continuous tense I shall have been reading the book for 2 hours by the time she arrives.	У қайтиб келганида мен 2 соатдан бери китоб ўқиётган бўламан. (келаси замон феъли)

Фикримизча, юқоридаги кўрсатиб ўтилган қийинчиликларни енгиш учун талабаларга тил (лисоний) ва нутқий (коммуникатив) машқларни бажариш ёрдам беради. Қуйида биз тил (лисоний) ва нутқий (коммуникатив) машқларнинг баъзиларини келтириб ўтмоқчимиз:

тил (лисоний) машқлари:

1-машқ. Ноаниқ артикльнинг мос шаклини қўйиб ёзинг:

_____ table, _____ apple, _____ pen, _____ pencil, _____ elephant, _____ girl, _____ boy, _____ orange, _____ cat, _____ flat, _____ umbrella, _____ engineer, _____ teacher, _____ iron, _____ car, _____ owl, _____ doctor, _____ room, _____ desk, _____ sofa, _____ window, _____ aunt, _____ uncle, _____ wolf, _____ evening, _____ tree, _____ flower, _____ eagle, _____ exercise, _____ chair, _____ plane [8].

2-машқ. Хатоларни тўғирланг:

1. a ball 2. an dolls 3. an house 4. a school 5. a TV	6. a water 7. a coffee 8. the Russia. 9. a teachers 10. an advice.
a) The your car is nice. b) We saw Eiffel Tower. c) He is a Russian gymnast. d) Dan worked all a Saturday.	e) I don't watch TV. f) I sent Anna a email. g) There are six new people. h) Do you have pencil? i) Weather is good a today.

3-машқ. Керакли артикльни қўйиб гапларни тўлдилинг:

1. I planted ... tree in ... my garden ... last year. ... tree has now grown big.
2. ... Today I saw ... my doctor. ... doctor said that I should stay ... at home for ... week.
3. She has ... very beautiful daughter. ... daughter is 16.
4. I viewed ... your video. ... video is interesting.
5. I have ... cat. ... cat is black.
6. What did Kate buy? She bought ... new dress [9].

4-машқ. **There's / There're** конструкциясини ишлатиб, гапларни тўлдилинг:

1 _____ some sandwiches in the fridge.
2 _____ a biscuit on the plate.
3 _____ some jam on the table.
4 _____ some cornflakes in the cupboard.
5 _____ some sugar in the glass.
6 _____ two cups of tea on the table.

Нутқий машқлар:

1-машқ. Нукталар ўрнига режаларингизни ёзинг: **be going to** конструкциясини ва **Present Continuous** замонини ишлатинг.

A: Are you doing anything on Saturday evening?

B:..... Are you free on Saturday afternoon?

A:..... What about Sunday evening?

B: Good idea. Where shall we go?

2-машқ. Эртага дам олиш кунингизда/таътилда: қаерда, соат нечада нима қилишингиз хақида сўзлаб беринг/ёзинг. **Future Continuous** замонини ишлатинг. Масалан: at 10.00 I will be lying on a beach in a chaiselongue. As it's boring just to lie, I will be reading an exciting book...

at 10.00 a.m.

at 12.00 a.m.

at 2 p.m.

at 5 p.m.

at 8 p.m.

at 11 p.m.? Tell me more about each action.

3-машқ. Қуйидаги феълларни ишлатиб, “Мен кутган ўзгаришлар” мавзусида Future Perfect замонини ишлатиб, ўз фикрларингизни сўзлаб беринг/ёзинг.


What changes do you expect by the end of the 21st century? For example, Scientists will have found a cure for cancer.

Here are some verbs to help you: develop, discover, become, invent, build, learn.


4-машқ. Қуйидаги гапларни инглиз тилига таржима қилинг. Артикларни ишлатиш ёки ишлатилмаслик сабабларини тушунтиринг:

1. Шоҳиста онасига ёрдам беради. 2. Бу атиргуллар жуда чиройли. 3. Мен уй сотиб олмоқчиман. 4. У кеча стадионга борди. 5. Биз келаси ҳафта Самарқандга бормоқчимиз.

5-машқ. Расмга қаранг, ҳар бир исмнинг эгасини топиб чизик билан чизиб кўрсатинг ва бу болалар нима қилаётганларини айтинг. Артикларни ишлатишни унутманг [10].



6-машқ. Қуйидаги расмларнинг фарқини айтинг. There's / There're конструкциясини ишлатинг [11]:



Хулоса қилиб айтганда, биз ушбу мақолада ўзбек аудиториясида талабаларни инглиз тили грамматикасини ўқитишда баъзи тиллараро интерференцияси муаммолари ва уларни

бартараф қилиш усулларини кўрсатишга ҳаракат қилдик. Шунини айтиш жоизки, ушбу қийинчиликларни енгиш борасида айнан ўша қийинчиликларни бартараф этишга мўлжалланган рецептив, репродуктив ҳамда продуктив машқлардан фойдаланиш тилларо интерференцияни енгишда муҳим ўрин тутди.

Адабиётлар:

1. Ж. Жалолов. Чет тил ўқитиш методикаси. “Ўқитувчи” нашриёти, Матбаа ижодий уйи. - Т., 2012. 178 б.
2. Сатторов Т.Қ. Методическое содержание обучения активной грамматике английского языка в узбекской средней школе: Автореф. дис. ...канд. пед. наук. – М.,1982. – 18 с.
3. Тарсина И.Э. Пути преодоления структурно- грамматических трудностей при чтении на немецком языке в старших классах узбекской школы: Автореф дис.канд. пед. наук. – М.,1978. – 18 с.
4. Абдуллаева М.А. Коммуникативная методика обучения иноязычной грамматике на начальном этапе языкового факультета (на материале Present continuous, Present Perfect английского глагола). канд.дисс. - Автореф. дис.канд. пед. наук. – Т., 2004. – 20 с.
5. А.А.Исоқов. Академик лицей ўқувчиларнинг инглиз тилида грамматик кўникмаларини такомиллаштириш технологияси. - Пед.фанлар номзоди. дисс. – Т., 2008.
6. Д.А. Курбанбаев. Бўлажак чет тили ўқитувчилари нутқ омилкорлигини назорат қилиш методикаси: Пед.фанлар номзоди. дисс. – Т., 2011.
7. Ж. Жалолов. Чет тил ўқитиш методикаси. “Ўқитувчи” нашриёти, Матбаа ижодий уйи. - Т., 2012. 194 б.
8. <https://englishweb.ru/grammar/artikl>
9. <http://www.enggames.eu/definite-indefinite-articles/>
10. <https://www.teach-this.com/parts-of-speech-activities-worksheets/articles>
11. <http://grammar-tei.com/there-is-there-are-uprazhneniya>

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Berdibayev Ulug‘bek Soatboy o‘g‘li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası o‘qituvchisi
Berdibayevuz@gmail.com

IBROYIM YUSUPOV IJODIDA LIRIK QAHRAMON KECHINMALARINING BADIY AKSI

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-2-99>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ibroyim Yusupov ijodiga mansub bo‘lgan ba‘zi she‘rlardagi lirik qahramon kechinmalarining badiiyatdagi aksi nechog‘lik talqin qilinganligi tahlilga tortilgan. Tahlillar jarayonida shoir ijodining o‘ziga xos jihatlari, she‘riyatidagi maftunkor qirralari, shoir mahorati sirlari aynan milliy va xalqona uslubda ekanligi takidlab o‘tilgan. She‘rlardagi milliy o‘zlik, qoraqalpoq xalqiga xos bo‘lgan an‘ana va qadriyatlar haqida ham so‘z yuritilgan. Shuningdek maqolada Ibroyim Yusupovning “Shuhrat aravasi” deb nomlangan she‘ri to‘lig‘icha tahlil qilingan va asarda majozlar o‘rinli va asosli ravishda qo‘llanganligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: she‘riyat, kechinma, tuyg‘u, qahramon, tahlil, talqin, qofiya, mahorat, iste‘dod, qadriyat, milliy o‘zlik, jarayon.

Бердибаев Улуғбек соатбой ўғли

Бердахский Каракалпакский государственный университет,
Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы
Berdibayevuz@gmail.com

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ИЗОБРАЖЕНИЕ ПЕРЕЖИВАНИЙ ЛИРИЧЕСКОГО ГЕРОЯ В ТВОРЧЕСТВЕ ИБРАИМА ЮСУПОВА

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется, как переживания лирического героя некоторых стихотворений Ибрагима Юсупова интерпретируются в искусстве. В ходе анализа были подчеркнуты особенности поэта и увлекательные стороны его поэзии. В стихах также говорится о национальной самобытности, традициях и ценностях каракалпакского народа. В статье также анализируется стихотворение Ибраима Юсупова «Вагон славы» и выясняется, что метафоры в пьесе уместны и обоснованы.

Ключевые слова: поэзия, опыт, эмоция, герой, анализ, интерпретация, рифма, мастерство, талант, ценность, национальная идентичность, процесс.

Berdibaev Ulug‘bek Soatboy o‘g‘li

Berdakh Karakalpak State University,
Teacher of the Uzbek language and literature department
Berdibayevuz@gmail.com

ARTICTIC LTPICITION OF THE EXPERIENCES OF THE LIRICAL HERO IN WORKS OF IBRAYIM YUSUPOV

ANNOTATION

The article analyzes how the experiences of the lyric hero of some of Ibragim Yusupov's poems are interpreted in art. The analysis highlighted the features of the poet and the fascinating aspects of his poetry. The verses also talk about the national identity, traditions and values of the Karakalpak people. Also, there analyzed Ibraim Yusupov's poem "Glory cart" completely and illustrated the using of the tropes in the work appropriately and factly, in this article.

Keywords: poetry, experience, emotion, hero, analysis, interpretation, rhyme, skill, talent, value, national identity, process.

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni, Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat madhiyasi muallifi Ibroyim Yusupov chinakam ma‘nodagi iste‘dod egasi edi. Uning turfa xil mavzularda bitgan she‘rlari va ulardagi betakror tashbehtar, so‘z o‘yinlar, mubolag‘ayu, o‘xshatishlarning oharli ekanligi bilan o‘quvchi qalbidan chuqur joy egallagan. Shoirning favqulotda iste‘dodi bo‘layotgan voqelikni she‘rga solishda ko‘rinadi. Kechinmaning xotira yo‘li orqali ya‘ni xotira lirik kechinma orqali bitayotgan she‘rlarida esa ma‘no mazmunning kuchaygan variantini ko‘rishimiz, uni dastlabki bor o‘qiganimizdanoq ilg‘ab olishimiz mumkin. Shoirning quyidagi majoziy tasvirlarga boy bo‘lgan she‘rini tahlil qilishga kirishmasdan oldin majoz haqida quyidagi so‘zlarni eslab o‘tsak. “Majozlar adabiy asarda, ayniqsa, she‘rlarda juda ko‘p qo‘llaniladi. Yozuvchilar majozlardan shunchaki oddiy bezak sifatida emas, zarurat tug‘ilgandagina foydalanadilar. Adabiy asarda majozlar o‘rinli va asosli ravishda qo‘llangandagina ijobiy samara beradi. Yirik san‘atkorlar majozlardan tasvirlanayotgan narsa-hodisalarning asosiy tomonlarini aniq va yorqin ko‘rsatish maqsadidagina foydalanadilar.” Yuqoridagi iqtibosda majozning she‘riyada juda ko‘p qo‘llanishi takidlanmoqda bu haqiqat. Ibroyim Yusupov she‘riyatida ham ramziy, majoziy o‘xshatishlar talaygina. Masalan shoirning 1979-yili nashr qilingan “Rahmat senga, zamonim” to‘plamiga kiritilgan “Shuhrat aravasi” deb nomlangan quyidagi she‘rining dastlabki bandlaridanoq majoziy tasvirga duch kelamiz.

Shuhrat aravasin tilla gupchagi,
Egari kunushdan yasalgan, bashing.
Shuhrat jilovi zar, zar tugunchagi,
Ammo yurolmas u chang-to‘zon osha.

Oyoqni qiymalar tikan va toshlar,
Tog‘ sari o‘rmalab chiqqaning sayin,
Yomon yo‘l tinkani qurita boshlar,
Tog‘dan qirov tushar boshingga mayin.

Har kim qaysidir manzilga yetish niyatida yo‘lga chiqadi. Bu manzil sari eltuvchi yo‘l olis, mashaqqatli va qiyinchiliklarga boy bo‘lishi aniq. Har zamonning o‘z markabi bo‘lgani aniq. Ota bobolar zamonida ot, ulov manzilga yetkazuvchi vosita bo‘lsa bugungi kunda turli rusimdagi avtomabillar xizmat qilmoqda. Shon – shuhrat, martaba, lavozim, obro e‘tibor manziliga yetish uchun ming yillardan beri turli xil so‘qmoqlar, yo‘llar har xil shakllarda bo‘lgan. Kimdir halol mehnat mashaqqat yo‘lini tutsa, yana kimdir rostgo‘ylik adaolat va saxovat yo‘lidan boradi, yana kimdir esa bu yo‘llarda kimlarningdir yordami, muruvvati va himmati bilan o‘zlari orzu qilgan manzilga yetishi mumkin. Martabayu Shon shuhratga yetish yo‘lida shuhrat aravasiga minganlar haqida shoir go‘zal o‘xshatish, ramziy majoziy qochirimlar qilish bilan she‘rning badiiyatini baquvvat, o‘qishligini tasirdor qilganligi ko‘rinib turibdi. Ayniqsa o‘quvchini ta‘sirlantiradigan qatorlar ikkinchi badda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Yomon yo‘l tinkani qurita boshlar,
Tog‘dan qirov tushar boshingga mayin.

Odiy, shunchaki holatda ya‘ni baland tog‘ning eng baland nuqtasiga chiqishga hozirlangan odam cho‘qqiga yaqinlagan sari uning boshiga qor uchqunlari tushishi mumkin. Bu holat cho‘qqi

joylashgan geografik hududning o'ziga xos jihatlaridan biri bo'lishi tabiiy, albatta. Shoir bu ko'rinishni hayotiy jarayonga ko'chirganda chiroyli, ohorli bir tashbeh yuzaga keladi. Masalan qaysidir o'rin, qandaydir manasabga erishish yo'lida kimlardir umri o'tganligini, sochlariga oq oralaganligini sezmay ham qolishi mumkin. Insonning sochlari sekin, asta oqarishini shoir badiiy bo'yoqdorlik bilan "Tog'dan qirov tushar boshingga mayin" deya jarayonning sekin kechishini urg'ulab o'tadi. She'rning davomi ham arginal o'xshatishlarga boyligi bilan ham takidga zasovor.

Yarim yo'ldan qaytar kimlar yengilib,
Ammo sen qaytmading, yo'ldan qolmading,
Pastga ham boqmading birrov egilib,
Eng yuksak cho'qqiga yetting, tolmading.

Poyingga bosh urib ag'nar bulutlar,
Yerning saratoni bunda sira yo'q,
Tushib kelayotirsan mamnun, ko'ngli to'q,
Toliqqan oyog'ing omonat turar.

Hayotiy o'xshatishlar bilan boshlangan she'rning dastlabgi bandlariga monand davom etgan holda keyingi bandlarda ham bandlar va misralar mantiqan bir birini to'ldirib, boyitib boradi. Intilgan, izlangan murodiga etishi xalq maqolida aytilgani kabi "Intilganga tole yor"ligi she'rda ham takror takidlanadi. Bir dam maqsaddan og'ishmaslik, yo'lda to'xtamaslik, sobitqadamlilik buning barcha barchasi manzilga yetishda yordam beruvchi insonning o'zi tarfdan qo'llanadigan vositalardan biri hisoblanadi. She'rda lirik qahramonga muallif tarfdan mubolag'ali gaplar ham aytiladi. "Poyingga bosh urib ag'anar bulutlar" Bulutlar hamisha boshimiz uzra suzib yuruvchi jism sifatida qaraladi. Demak bulutlar ham qachondir insoniyatning poyiga bosh urishi mumkinligi shoir tomonidan takidlanmoqda. Cho'qqiga yetgan odamning poyi ostida bulut bo'lish, tubandagi odamning boshi uzra bulutning suzib yurishi kabi xayollarni she'rni mutolaa qiluvchining ongiga sezdirmasdan kirgizib yuborishi shoirning mahoratidan darak beradi. Qaysidir manzilga yetgandan keyin ortda qolgan makonning qiyinchiligi sedan ko'tarilishi mumkin. Shoir shu yoddan ko'tarilishi mumkin bo'lgan holatni lirik qahramonga uqtirib qo'ymoqchidek nazarimizda. "Yerning saratoni bunda sira yo'q". Keyingi misralarda esa har narsaning iptidosi bo'lganidek intihosi ham bo'lishiga bir ishora.

"Tushib kelayotirsan mamnun, ko'ngli to'q.
Toliqqan oyog'ing omonat turar"

Manzilga yetkach odam o'zida mamnunlikni his qilishi tabiiy holat hisoblanadi. U har qanday qiyinchilgu mashaqqatlarni kechib o'tgani faqat yo'lovchining o'ziga ayon. Boshqalar esa bunda faqat qisman xabardor bo'lishi mumkin, xalos. Omonatgina turgan oyoqlarga ishoraning sababini esa o'quvchi uchun sir holatda saqlanadi. Buni keyingi band va misralardan axtarishga harakat qilamiz.

Tushib kelayapsan yuksakdan tanho,
Manzilga yetishga juda qoldi oz.
Zarur emas senga na ot, na ulov,
Shuhrat aravasi chopadi peshvoz.

Shov-shuv bilan borar arava shahdam,
Yo'llari toladi uzun, ingichka.
Yasalgan maqto'vning mo'rt yog'ochidan
Arava yaramas serzahmat ishga.

Ba'zi bir odamlar buni bilsa-da,
Uni haydayverar horib-tinmagan.
Pushkin yo'l aravasin yollab minsa-da,
Shuhrat aravasin yo'lga minmagan.

“Lirik kechinma baʼzan oniy ruhiy holat sifatida kechib, estetik qimmat kasb etuvchi mahsul beradi va yoʻqoladi. Baʼzan esa u muayyan tugallikka, estetik qimmat kasb etuvchi asar sifatida shakllana olmay, ijodkor qalbida, shuurida uzoq vaqtlar saqlanib yuradi. Mana shundan kelib chiqib aytish mumkinki, lirik kechinma voqea boʻlishi va tugal estetik qimmatga ega boʻlgan asar sifatida shakllanishiga qarab ikki xilga boʻlinadi. 1. Oniy lirik kechinma; 2. Xotira lirik kechinma.”

Yasalgan maqtoovning moʻrt yogʻ ochidan
Arava yaramas serzahmat ishga.

Xalq maqollarida hayotimizga tadbiiq qilishimiz mumkin boʻlga juda koʻplab oʻrinlar borligi haqiqat. Masalan yoʻgʻonning umri qisqa deyishadi. Xuddi shu soʻz, hikmatli soʻz, xalq maqoliga aylangan soʻz sheʼrga oxirli bir bezak boʻlib kirmoqda. “Yasalgan maqtoovning moʻrt yogʻ ochidan” Maqtoovning poʻlatdan emasligining oʻziyoq uning sohtaligiga ishora boʻlsa uning moʻrtligi soxtaligiga qoʻshilgan holda yasama ekanligidan ham darak beradi.

Baʼzi bir odamlar buni bilsa-da,
Uni haydayverar horib-tinmagan.
Pushkin yoʻl aravasin yollab minsa-da,
Shuhrat aravsin yoʻlga minmagan.

Sheʼrning oxirgi bandida sheʼr kuliminatsiyasi bordek bizningcha. Negaki bu yerda shoir meni atrofida qilarga qandaydir ogohlantirishni aytishga hozirlangandek. Ogohlikka chaqiriq odamlar bilsada yanglish yoʻldan horib tinmagan shuhrat aravasini haydab bari bir tarixda qolomasligi mumkinligini aytmogʻchidek va bundan tashqari olis tarixga Pushkin zamoniga boqishni urgʻulayotir.

Ibroyim Yusupovning “Shuhrat aravasi” deb nomlangan sheʼrini tahlillarimiz davomida toʻligʻicha keltirdik. Va sheʼrda shoir Adabiyotshunos B.Sarimsoqov taʼkidlagan oniy lirik kechinma va xotira lirik kechinmaning qorishiq shaklini, bir biriga uygʻinlashib ketgan bir variantini bergan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Sheʼrda shoir bir nechta sheʼriy sanatlardan foydalanganligi ham maʼlum. Bular sirasiga mubolagʻa, talmeh, oʻxshatish kabilar kiradi. Shoir bu sheʼrida talmeh sanʼatidan foydalangan holda rusning ulugʻ shoiri Aleksandir Sergeyeovich Pushkinning nomini zikir etadi. Buning ikkita asosiy sababi bor. Birinchisi davr siyosati, mustabit tuzimning yurtimiz uzra hukmronligi, ruslashtirish siyosati tufayli boʻlsa. Ikkinchisi esa Ibroyim Yusupovning sheʼr ixlosamndi, shoir sifatida Pushkinga hurmati, shaxsiy ehtiromi ham sabab boʻlgan boʻlishi mumkin, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Yusupov I. Rahmat senga zamonim. –Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1979.
2. Xudoybergenov E. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2008.
3. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –Toshkent: 2004.
4. Расулов А. Бадий асарга ёндашув асослари. Филолог-магистрлар учун ўқув қўлланма. Т. 2003.
5. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. Oʻquv qoʻllanma. T.: Muharrir.2011.
6. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. М. 1989
7. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. Rus tilidan U. Joʻraqulov tarjimasini. Akademya nashr 2015
8. ГадамерГ.Г. Актуальностьпрекрасного. М. 1991.
9. “Jahon adiblari adabiyot haqida” Maʼnaviyat, 2010
10. Joʻraqulov U. Nazariy poetika masalalari. Gʻ. Gʻulom 2015
11. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germeneytik tafakkur, T.: Akademya nashr 2014
12. Karimov B Ruhiyat alifbosi, GʻGʻulom 2016
13. SHarafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: SHarq, 2004.

2. 14. SHarq mumtoz poetikasi (H. Boltaboev talqinida). – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
3. 15. Quronov D., Rahmonov B. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – T.: “Fan”, 2008

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Qarshiyeva Mahbuba Abduvali qizi
Guliston davlat universiteti 2-kurs magistranti

“HAYRAT”DAN ORTAR HAYRATIM...

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-2-100>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada “Hayrat ul-abror” dostonining turli nashrlari, ilmiy-tanqidiy matni qiyosiy o‘rganilgan. Dostonning arab, kirill va lotin yozuvlaridagi matnlarini o‘rganish asosida nashrlardagi farqlar ko‘rsatib o‘tildi. Qiyosiy o‘rganilganda so‘zning ma‘nosini aniqlash orqali baytlarning mazmuni sharhlandi. Dostonning o‘rganish uchun olingan nashrlari matnshunos Porso Shamsiyev tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matnga asosan tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: nusxa, adabiy versiya, ilmiy-tanqidiy matn, matnshunoslik.

Mumtoz adabiyot mutaxassislari “Hayrat ul-abror” dostonini suyibmi, qisqalik uchunmi ba‘zan “Hayrat” deyдилar. Sarlavhada men shu suyukli usulni qo‘lladim. Men havaskor matnshunosman. Bu maqolada “Hayrat”ning 1959-yildan berigi nashrlarini bir-biriga va har birini dostonning ilmiy-tanqidiy matniga so‘zma-so‘z qiyoslab chiqdim. Men faqat taassurotlarim, hayratlarimni izhor etmoqchiman, xolos.

Matnshunoslik qo‘lyozma nusxaning matn xususiyatlaridan tortib (lingvistik, badiiy, falsafiy, tarixiy) nashr ko‘rinishidagi barcha yutuq va kamchiliklari haqida yaxlit tassavur uyg‘otuvchi tadqiqotni amalga oshiradi. Zamonaviy jahon filologiyasida matn ustida ishlash masalalariga doir qabul qilingan yagona qoida yo‘q. “Matn” tekst degan ma‘noni bildirsa, matnshunoslik esa fan va adabiyotning turli sohalariga oid asarlarning teksti bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadi. Matnshunoslik o‘ta murakkab soha bo‘lib, ko‘plab tarmoqlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Hozirgi kunda matnshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha mutahassis tayyorlash juda ham dolzarbligi bilan ajralib turibdi. Chunki yosh avlodga ota-bobolarimiz qoldirib ketgan ilmiy merosni yetkazib berish matnshunoslarning zimmasida bo‘lib, ko‘p ilmiy meroslar eski o‘zbek tilida yozilgani bilan ahamiyatlidir. Matnshunoslik Sharqda ham G‘arbda ham uzoq tarixga egadir. O‘zbek matnshunosligi shakllanishida ko‘plab olimlar o‘z xizmatlarini ayamagan. Ulardan Sadriddin Ayniy, Izzat Sulton, Porso Shamsiyev, Hamid Sulaymonov kabi olimlar yangi avlodga ajdodlarimiz merosini yetkazib berish bilan shug‘ullanganlar. Shundan so‘ng Alibek Rustamov, Saidbek Xasanov, Botirbek Xasanov, Suyma G‘aniyeva, Mavjuda Hamidova va boshqalar matnshunoslik rivojiga katta hissa qo‘shganlar, Sh. Sirojiddinov, A. Erkinov, A. Habibullayev, R. Zohidov, N. Jabborovlar ularning ishlarini muvaffaqiyatli davom ettirayotgan matnshunos ustozlarimizdir.

Yangi metodikaga asoslangan o‘zbek matnshunosligi XIX-XX asrlardan boshlab taraqqiy eta boshladi. XX asr boshlarida Turkistonda matnni tanqidiy o‘rganishga e‘tibor kuchayib bordi. Turli matbaa yoki kutubxonalarni tashkil qilish ma‘lum ma‘noda, o‘zbek matnshunosligining yangicha yo‘nalishda rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Matnshunosligimiz XIX asr oxiri XX asr boshidagi toshbosma nusxa tayyorlash jarayonida olib borilgan amaliy ishlar o‘zbek matnshunosligi rivoji tarixida muhim o‘rinni egallaydi. A. Habibullayev bosma nashrlar paydo bo‘lishi haqida so‘z

yuritar ekan, shularni qayd etadi: “Bu nashrlar uchun nusxalar tanlab olinib, ularni nashrga tayyorlash chog’ida olib borilgan ishlar – matnshunoslik izlanishlari o’sha davr zamonasining talablariga yarasha bo’lib kelgan va XX asr zamonaviy matnshunoslik ilmi talablariga o’sib o’tishda bir bosqich vazifasini bajargan. Bosma nashr uchun nusxalarni tanlash, ularni saralash va nihoyat, bosma nashrni yuzaga keltirish ishlari takomillasha borib, hozirgi zamon matnshunosligining yuzaga kelishiga zamin tayyorladi”. O’zbek matnshunosligining shakllanishida rus sharqshunos olimlaridan A.N.Samaylovich, E.E.Bertels, A.K.Borovkov, A.N.Kononov va boshqalarning ro’li katta bo’lgan. Matnshunoslikning taraqqiyoti matnshunos olimlar nomi bilangina bog’liq emas. Birinchi manbalar ustida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi ko’pgina adabiyotshunoslar ham, asosiy kasbiga ko’ra matnshunos bo’lmasa ham matnshunoslik bo’yicha tekshirish ishlarini olib borishga majbur bo’lgan va bu sohada muhim vazifalarni amalga oshirib, matnshunoslik rivojiga o’z hissalarini qo’shganlar. Chunki bir asar yoki bir ijodkorning faoliyati ustida ilmiy tadqiqot olib borish, bu borada biron ilmiy xulosaga kelish uchun matnshunoslik bo’yicha ishlarni bajarish kerak. Bugun matnshunos olim eski o’zbek yozuvini mukammal o’qiy olishdan tashqari arab, fors, eski turkiy tilni yaxshi tushunishi, islom dini asoslarini yaxshi bilishi, o’tmish ilmlarini bilish bilan bir qatorda zamonaviy fanlarni ham, chuqur bilishi talab qilinadi. Demak, matnshunosligimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri: matnshunoslik bo’yicha kadrlar tayyorlash doirasini yanada kengaytirish va zamonaviylashtirish ya’ni zamonaviy ilmiy texnologiyalardan foydalanish, so’ngra o’zbek matnshunosligining nashr usullari va metodologiyasini ishlab chiqish zarur. O’zbek matnshunosligi shu paytgacha ko’plab salmoqli yutuqlarni qo’lga kiritdi. Bu yutuqlar, ayniqsa ulug’ mutafakkir Alisher Navoiy asarlarini o’rganishda yaqqolroq namoyon bo’ladi. Porso Shamsiev, G’ulom Karimov, Hamid Sulaymon, Aziz Qayumov, Suyima G’aniyeva singari ustoz olimlarning bu boradagi xizmatlari tahsinga loyiq. Matnshunoslikda erishilgan bu yutuqlar keyingi davrda Bobur, Ogahiy, Furqat va boshqa mumtoz shoirlar, ijodkorlar merosi misolida davom ettirilayotgani quvonarlidir.

Matnshunoslik bobidagi ilmiy izlanishlarning oxir natijasi adabiyot tarixi va nazariyasi uchun manbaviy asos yaratib berish bo’lganligidan unga adabiyotshunoslikning yordamchi sohalaridan biri sifatida qarab kelinadi. Shunga qaramay, matnshunoslikni filologik fanlarning alohida tarmog’i, mustaqil bir sohasi sifatida tushunish to’g’riroq bo’ladi. Negaki, birinchidan, matnshunoslik faoliyati adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarix fanlari kesishgan nuqtada kechadi; ikkinchidan, matnshunoslikning o’zi ilmiy izlanishlarida qator yordamchi sohalarni (paleografiya, uslubshunoslik, arxeografiya va h.) o’ziga xizmat qildiradi. Adabiy matnlarni o’rganish va nashrga tayyorlash matnshunoslikning vazifasidir. Matnshunoslikning vazifasini juda qisqa ifodalagan bo’lsak-da, uning amalga oshirilishi juda katta mehnatni, chuqur bilim va tajribani talab qiladi. Ma’lumki, xalqimiz boshidan necha-necha istilo-yu qatag’onlar kechganiga qaramay, ajdodlarimizdan bizga boy adabiy meros qolgan: minglab jildlardan iborat qo’lyozmalar xazinasiga egamiz. Biroq bu qo’lyozmalarning aksariyati hali o’rganilgan emas, ro’yxatga olib qo’yilgani bo’yi o’z tadqiqotchilarini kutadi. Shuning o’zi ham matnshunoslikning og’ir, ilmning “qora mehnati” ekanligini, uni rivojlantirish ham ilmiy, ham ma’naviy-ma’rifiy jihatlardan zarurligini ko’rsatadi. Adabiy matnni o’rganayotgan matnshunos oldida turli-tuman ilmiy muammolar ko’ndalang bo’ladi. Deylik, matnshunos muallifi noma’lum asar (matn)ga duch keldi. Bu holda u matn muallifini, yoshini (yozilgan, ko’chirilgan vaqti) aniqlashi zarur bo’ladi. Buning uchun esa u, tabiiyki, adabiyot tarixi, til tarixi, manbashunoslik, uslubshunoslik kabi sohalardan yaxshi xabardor bo’lishi va ularga tayangan holda matnni tadqiq etishi lozim bo’ladi. Yoki matnshunoslikning boshqa bir vazifasi – asarning ilmiy-tanqidiy nashrini tayyorlashni olaylik. Masalan, Alisher Navoiy asarlarining turli davrlarda, turli kotiblar tomonidan ko’chirilgan qo’lyozmalari mavjud. Matnshunos qarshisida ularni qiyosiy o’rganish, birining kamchiliklarini boshqalari bilan to’ldirish va shu asosda eng mukammal – ilmiy-tanqidiy matnni tayyorlash vazifasi turadi. Tayyor bo’lgan ilmiy-tanqidiy matnni nashr ettirish uchun matnshunos uni izohlar, sharhlar, lug’atlar bilan ta’minlashi kerak. Biz foydalanadigan “Mukammal asarlar” ortidagi har bir izoh, har bir sharh yoki lug’at birligi juda katta mehnat orqasida dunyoga keladi. Zero, matnda uchragan so’z ma’nosini topish, undagi biror shaxs, joy nomi va shu kabilarga izoh berish uchun matnshunos juda ko’p

izlanishi, ko'plab manbalarni ko'rib, o'rganib chiqishi zarur bo'ladi. Yuqoridagicha mustaqil tadqiqotlardan tashqari, matnshunoslik adabiyotshunoslikning ayrim muammolarini hal qilishda muhim yordamchi soha, tadqiqot usuli bo'lib ham xizmat qiladi. Masalan, uning tadqiq usullaridan, tajribalaridan yozuvchi ijodiy laboratoriyasini, muayyan asarning ijodiy tarixini o'rganish yo'lidagi izlanishlarda keng foydalaniladi. Matnshunoslik sohasi filologiya fanining asosiy va muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, yozma yodgorliklarning asl matnini tiklash hamda ularni nashr ettirishning nazariy va amaliy jihatlari bilan shug'ullanadi. Matnshunoslikning asosiy vazifasi qo'lyozma yoki toshbosma nusxadagi muayyan asarning matnini muallif qalamidan chiqqan asl holatini tiklash va nashr ettirishdir.

O'zbek matnshunoslarining XX – XXI asrlardagi namoyandalari siymolariga nazar solsak eng buyuk zahmatkash ustod degan unvonga Porso Shamsiyevni loyiq ko'ramiz. Chunki tayyorlagan ilmiy- tanqidiy matnlarining ko'pligi, mumtoz asarlar nashrlaridagi faolligi va o'zbek matnshunosligi maktabini yaratganligi kabi ulug' xizmatlari Porso Shamsiyevday kamtar insonni ilmda behad ulug'ligini ko'rsatadi. Bu ilm qahramoni o'zbek ilmi va xalqiga Alisher Navoiy shoh asarlarini arab va kirill yozuvlarida taqdim etdigina emas, ularni ochqich- kalitini ham “Navoiy asarlari lug'ati” (1972), “O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at” ni ham tayyorlagan. Zahiriddin Muhammad Boburning qomusiy asari “Boburnoma”ni ilmiy matn darajasida nashrga tayyorladi. Katta kemaga –ulug' safar degan hikmat Porso Shamsiyevga mos tushdi.

“Xamsa” dostonlari XV–XVIII asrlarda qo'lyozma holda, so'nggi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida toshbosma nashrlarda xalq orasida tarqaldi. Navoiy “Xamsa” sining ilk nashri to'la holda Xivada (1980- yil), Toshkentda (1904-1905-yillar) amalga oshirilgan. “Xamsa” dostonlari birinchi marta Til va adabiyot instituti ilmiy xodimlari tomonidan 1939-1940-yillarda birmuncha qisqartirilgan va sharhlangan holda lotin alifbosida nashrga tayyorlanib, nasriy bayon bilan yonmayon holda e'lon qilindi. Bu ishga G'afur G'ulom, Solih Mutallibov, G'ulom Karimov, Amin Umariy, Husaynzoda, To'xtasin Jalolov kabi qator olimlar katta hissa qo'shdilar. Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan 1948 yilda ikkinchi nashri rus alifbosida nasriy bayonlarsiz nashr etildi. Bu nashr ommaviy nashr bo'lsada yetarli darajada ilmiylashtirilmagan va ma'lum darajada qisqartirilgan edi. 70-yillarda “Xamsa” nasriy tabdillarining bir muncha maromiga yetkazilganligi va ularning alohida kitoblar holda nashr etilishi navoiyshunoslik fanida bajarilgan nihoyatda katta bir vazifa edi. Nasriy bayonlarning o'sha yillarda katta-katta qisqartmalar bilan nashr etilishi salbiy hodisa sifatida ko'pchilikka o'sha davrda ham ma'qul bo'lmagan.

“Xamsa” dostonlarining nasriy nashrlarini ko'zdan kechirganimizda “Hayrat ul-abror”dan 21 bob, “Farhod va Shirin”dan 8 bob, “Layli va Majnun”dan 6 bob, “Sab' ai sayyor”dan 9 bob, “Saddi Iskandariy”dan 9 bob, xullas, jami 53 bob tushirib qoldirilganligini ko'ramiz.

Darhaqiqat, muqaddima qism, shuningdek, ba'zi o'rinlarda boshqa boblarning qisqartirilishi bu nashrlarning eng katta kamchiligi edi. Xususan: “Hayrat ul-abror” dostoni 70-yillar nashrida XII bobdan boshlab nasriylashtirilgan va unda muqaddima qismdan boshqa qisqartirilgan boblar ham mavjud. Qisqartirilgan boblar: I, II, III, IV, V, VI, VII, VIII, IX, X, XI, XXV, XXIX, XXXIX, LI, LIII, LV, LXI boblar bo'lib, jami 23 bobdan iborat. Dostondagi muqaddima, boblar singari keyingi qisqartirilgan boblar ham asosan tasavvuf, din, ilohiyotga aloqador, shoh va shahzodalar madhidagi boblar bo'lganligi uchun nasriylashtirilmagan.

Alisher Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini tayyorlash navoiyshunoslikda, xususan, uning asarlari matnini ilmiy qat'iyashtirishda alohida ahamiyatga ega. Shu ma'noda birinchi marta “Xamsa”ning ilk dostoni – “Hayrat ul-abror” dostonining ilmiy-tanqidiy matni S.Mutallibov tomonidan tayyorlangan. “Xamsa” dostonlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini yangi qo'lyozmalar asosida yangitdan tuzish qirqinchi yillarning oxiri, elliginchi yillarning boshida navoishunos Porso Shamsiyev (1897-1972) tomonidan boshlandi. Olim 1970-yil “Hayrat ul-abror”ning ilmiy-tanqidiy matnini e'lon qildi. P.Shamsiyevning Navoiy dostonlarini nashrga tayyorlash bilan bog'liq ishlari orasida “Xamsa”ni to'la holda 1959-1960-yillarda chop ettirgani fanda va buyuk shoir merosini o'rganish va targ'ib etishda kata ahamiyatga ega bo'ldi. Bunda yetakchi matnshunos olim bo'lgan Porso Shamsiyevning ilmiy iqtidori yanada to'laroq namoyon

bo'ldi. Matnshunoslik, ilmiy matnlarni e'lon qilish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Buning uchun matn tuzish ishiga jahon qo'lyozma fondlarida mavjud barcha qimmatli qo'lyozmalardan foydalanish talab etiladi. "Hayrat ul-abror"ning 1970-yilda Porso Shamsiyev tomonidan tayyorlagan matni asosiy matn sifatida qaraladi. Bu tanqidiy matnni oltita nashrni solishtirgan holda e'lon qilgan. Olim tanqidiy matnni Abduljamil kotib qo'lyozmasi, Sulton Ali Mashhadiy qo'lyozmasi, va XVI asr kolleksiyasi deb sanalgan kolofonsiz qo'lyozma, XVI asr Toshkent qo'lyozmasi, XIX asr Leningrad qo'lyozmasi, Qozon universiteti qo'lyozmasi asosga olingan. Uchta litografik (toshbosma) nashrlar yordamchi nusxalar bo'lib qoldi. Porso Shamsiyev ilmiy -tanqidiy matnida oltita nashrning hammasiga tanqidiy jihatdan qaralgan. Ulardagi sifat ko'rsatgichlari ham, nuqson va kamchiliklari ham har jihatdan e'tibor qaratib, ilmiy matnni to'liq va sahih bo'lishiga harakat qilgan.

Asos-matnini ilmiy-tanqidiy tamoyil bilan tuzish manbaning eng qadimiy, benuqson, to'la deb topilgan nusxasi aniqlangandan so'ng amalga oshiriladi. P.Shamsiyev jahon qo'lyozma fondlarida Navoiy asarlari qadimiy qo'lyozmalarining topilishi shoir asarlari ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish uchun katta imkoniyat berganligini qayd etadi. Xususan, P.Shamsiyev Qozon davlat universiteti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan "Xamsa"ning XVI asrda ko'chirilgan deb taxmin qilingan nusxasining aniqlanishi haqida shunday yozadi: "Xamsa"ning ana shunday qadimiy nusxasining topilishi navoiyshunoslikda muhim hodisadir. Chunki u ulug' shoir asarining yagona ilmiy-tanqidiy matnini tuzish ishini yanada takomillashtirish yo'lida zarur manba xizmatini o'taydi, matn tuzishdagi ko'pgina masalalarni, chigalliklarni hal etishga yo'l ochadi". Ilmiy-tanqidiy matn tuzishda matnshunosning asar mazmuni, g'oyasi, matn tarixini chuqur bilishi va aniq xulosaga kelishi muhimdir. Chunki tayanch deb olingan nusxa matni ham boshqa asos nusxalar singari tanqid ostida bo'ladi.

Porso Shamsiyevning noyob iste'dodi chuqur bilim egasi ekani ana shunday vaqtlarda – tekstologik tadqiqotlar jarayonida juda yorqin nomoyon bo'ladi. Porso Shamsiyevning o'zbek klassik adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishi, fors-tojik adabiyotidan puxta xabardorligi, arab va fors tillarini bilishi matnshunoslik faoliyatida katta yordam berdi. Ma'lumki, mumtoz adabiyotimiz namunalari, jumladan, Navoiy asarlari ustida tekstologik ishlar olib borish uzoq davrlarda har xil saviyadagi kotiblar tomonidan ko'chirilgan matnlardagi jiddiy xatolar, chalkashliklarni bartaraf etish atroflicha chuqur bilim, o'tkir ziyraklik, katta mas'uliyat hamda kasbga nisbatan kuchli muhabbat bilan ish olib borishlikni taqazo qilar edi. Porsoxon Shamsiyevda ana shu xususiyat va fazilatlar mujassamlashgani ishda katta muvaffaqiyatlar qozonishiga zamin yaratdi. Matnshunos Alisher Navoiy asarlarining bizdagi, Qozon va Leningraddagi ko'plab noyob nusxalarni ilmiy taomilga kiritdi. Qozon fondidagi Alisher Navoiy asarlarining ikki qo'lyozma nusxasi olimning diqqatini tortadi. Ulardan biri "Xamsa"ning mukammal nusxasi bo'lib, kolofonsiz ekan. Porso Shamsiyev uni sinchiklab, qog'ozi, xat uslubi, bezak yo'llarini o'rganib, XVI asrga mansub ekanini aniqlaydi va mufassal tavsifini yaratib, fondga taqdim etadi. Keyinchalik bu manba "Xamsa"ning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlashda jalb qilingan 6 mo'tabar nusxalar qatoriga kiritiladi.

Yana bir nusxa Navoiyning "Ilk devon"i bo'lib, uni Hirot shahrida hijriy 976 (milodiy 1568) yili Mahmud kotib degan xattot ko'chirgani qo'lyozma oxirida (kolofonda) qayd qilingan ekan. Jiddiy tadqiq etilgach, bu qo'lyozma Hamid Sulaymonov tomonidan Leningradda topilgan "Ilk devon"ning boshqa bir nusxasi bo'lib chiqadi. Keyin olim bu ikkala nusxani muqoyasa qilib, barcha farqlarni aniqlab, yuqorida zikr etilgan "Xamsa" va O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan Mahfuz Abduljamil "Xamsa"si haqidagi ma'lumotlar bilan maqola holida "Alisher Navoiy va adabiy ta'sir masalalari" to'plamida (1968-yil) e'lon qildi. Ilmiy-tanqidiy matn ustida ishlashni ham Porso Shamsiyev 30-40-yillarda boshlagan edi. Bu sohada unga Ulug' Vatan urushi davrida Toshkentda yashab, ijod etgan E. Bertels, A. N. Kononov va A. S. Tveritinov bilan yaqin muloqotlar, qizg'in suhbatlar katta yordam bergan va ittifoq miqyosida olib borilgan tekstologok izlanishlar tajribasi bilan atroflicha tanishuv ijobiy ta'sir ko'rsatgan edi. Olim 1948-yili urush tufayli kechikib nishonlangan Alisher Navoiy yubileyini o'tkazishda eng faol mehnat qilganlarning oldingi Matnshunos olim "Xamsa" tarkibidagi dostonlar

yuzasidan olib borgan tekstologik ishlari natijasida 1960-yili “Xamsa”ning to‘liq matnini nashr etishga muvaffaq bo‘ldi. Bu nashr ham matnning to‘laligi, savodliligi jihatidan ancha puxta tayyorlangan. Keyinchalik nashr matni XV tomligiga kirgan “Xamsa” dostonlari uchun ham asos bo‘ldi. Keyingi yillarda olim Navoiyning ulkan “Xamsa”si tarkibidagi dostonlar ustida olib borgan ishlarini yakunlab, 1970-yili “Alisher Navoiy “Xamsa”sining ilmiy-tanqidiy teksti va uni tayyorlash prinsiplari” degan mavzuda doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi.

Porso Shamsiyev – o‘zbek matnshunosligining asoschilaridan biri sifatida qariyb 50 yil mobaynida klassik shoirlarimiz, xususan, Alisher Navoiy asarlarini to‘plash, o‘rganish va nashrga tayyorlash ishlari bilan muttasil shug‘ullanib kelgan, ko‘plab asarlarning matnini yaratgan olim edi.

Filologiya fanlari doktori Porso Shamsiyev Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi besh dostonning ilmiy –tanqidiy matnlarini yaratdi. Bir dostonni besh-olti nusxasini stolga yoyib baytdagi har bir so‘zning turli nusxalarda qiyosiy kuzatish, Navoiy asliyatini ishonchli tiklashga jon kuydirdi. Har bir harfiy va so‘z tafovutlarini hoshiyada mukammal ko‘rsatib borish mashaqqatlari Porso domlaning kundalik mashg‘uloti bo‘lgan.

O‘ttizinchi, qirqinchi va elliginchi yillar qatag‘onlaridan Porso Shamsiyevni Olloh taoloning o‘zi saqlab qolgan. Negaki ustoz Sadridin Ayniy tayyorlagan “Xamsa”ning ilk nashri(1940)da ham Porso Shamsiyev muharrirlik qilgan. Ustoz Shamsiyev o‘ttizinchi yillardayoq til va adabiyot darsliklarini yozish bilan matnshunoslikni ham rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shgan. Sovet davrida mumtoz adabiyot bilan shug‘ullanishning o‘zi o‘ta xavfli mashg‘ulot hisoblanganini inobatga olsak Porso Shamsiyevning butun faoliyati fidoyilik, qahramonlik degulikdir.

Matnshunos Porso Shamsiyev birinchi marotaba “Hayrat ul- abror” dostonini 1959-yilda “Xamsa”da to‘liq hajmda e‘lon qildilar. Shu nusxaning o‘zi 1960-yilgi “Xamsa” nashrida aynan takrorlandi. Bu nashrlar dostonning ilk to‘liq adabiy versiyasi edi. Oraliq yillarda ko‘p marotaba doston nashr etilgan bo‘lsa-da, (hatto “Xamsa” nomida 1989) hamisha qisqartirilgan holatlarda bosildi. To‘liq holatda esa Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to‘plami” yettinchi jildida chop etildi. Matnshunos ustozlarimiz adabiy versiyalar qiyoslanganda asosiy farqlar ko‘zga tashlanadi deb ta‘lim bergan edilar.

Biz, bugungi yosh matnshunoslar oliy maktablarda “Qadimgi turkiy til” va o‘zbek tili tarixi ilmlarini mukammal o‘rganib, olgan bilimlarimiz asosida Porso Shamsiyev nashr etgan “Xamsa” (1959,1960) nashridan nuqsonlar topishimiz oson. Chunki Porso Shamsiyev tuzgan lug‘atdan ta‘lim olganmiz. Shu o‘rinda Alibek Rustamovning oqilona e‘tiroflari yodimizga tushadi: “Agar men Porso Shamsiyev yashagan zamonlarda yashab, ular qilgan ishlar bilan shug‘ullansam, ulardan ko‘proq xatolarga yo‘l qo‘ygan bo‘lar edim”.

Men bugun oliygo‘hda “Matnshunoslik” fanidan tahsil olgan, sharq va g‘arb matnshunosligi maktablari tajribasidan voqif magistr Porso Shamsiyevning 1960-yilgi “Xamsa” nashrlaridagi “Hayrat ul-abror” dostonini ilmiy matniga qiyoslab matnlardagi xatolarni topa olsam, bu mening matnshunoslikdagi yutug‘im emas, balki, ustozlarimning, jumladan, Porso Shamsiyevning maqsadiga erishganini isbotlagan bo‘laman.

Porso Shamsiyev qo‘limdagi ilmiy matnda o‘zi nashr etgan “Xamsa”dagi (1960) “Hayrat ul -abror” dostonidagi nuqsonlarni isloh etgan. Domla o‘z nashrida yo‘l qo‘ygan tuzatishlarini keltirmoqdaman.

“Xamsa”ning 1960- yildagi nashrida shunday bayt bor:

Xamsa” 1960-yil 47-bet:

Lek bu besh rahbada besh korvon,

Bir-biridek har biri bisyor don.

Mazmuni: Biroq bu besh makonda besh karvon bor. Bu karvonlarning har birida bir-biridan doni ko‘p.

“Hayrat ul-abror”ning ilmiy matnida bu bayt quyidagichadir:

“Xamsa” 1970-yil 54-bet:

Lek bu besh rahbada besh kordon,

Bir - biridek har biri bisyordon.

Mazmuni: Biroq bu besh yo‘lakda besh donishmand(ishbilarmon) o‘ltirishibdi. Ularning har biri bir-biridan bilimdonroqdir.

Dostonning boshqa nashrlarida ham ilmiy matndan farqli baytlari bor. “Xamsa” 1991-yil 90-bet:

Soldi quyosh tobi chu mag‘zig‘a jo‘sh,
Seskanibon kirdi dimog‘iga hush.

“Xamsa” 1970-yil 52- bet:

Soldi quyosh tobi chu mag‘ribg‘a jo‘sh,
Seskanibon kirdi dimog‘iga hush.

Ushbu baytda **mag‘ribg‘a** so‘zi **mag‘zig‘a** shaklida xato ko‘chirilgan.

1959-1960-yilgi nashr adabiy versiyasi muallifi Porso Shamsiyev, 1991-yilgi yettinchi jild adabiy versiyasi mualliflari Abduqodir Hayitmetov va Ibrohim Haqqulov. O‘rganishlar natijasida 1991-yilgi nashr “Hayrat ul-abror” ilmiy-tanqidiy matndan ba‘zi o‘rinlari farqli ekanligi kuzatildi.

“Xamsa” 1960, 18-betdan:

Demaki nargis ko‘zi masti xarob,
Balki adam gulshanida masti xob.
Ham boshi mug‘ dayrida ochilmayin,
Ahli vara’ xirqa garav qilmayin.

“Mukammal asarlar to‘plami” 7-jild 19-betdan:

Demaki nargis ko‘zi masti xarob,
Balki dam gulshanida masti xob.
Xam boshi mug‘ dayrida ochilmayin,
Ahli vara’ xirqa garav qilmayin.

Ikkala bayt mazmunini ilmiy-tanqidiy matndagi holati. Ikkinchi baytning ilmiy-tanqidiy matndagi holati:

Xum boshi mug‘ dayrida ochilmayin,

Ahli vara’ xirqa garav qilmayin.(7-bet)

Nashrlarda **xam**, **ham**, **xum** so‘zlarini farq qilmoqda.

Quyida 1960 va 1991-yilgi nashrlardan bir necha baytlarni ilmiy-tanqidiy matnga qiyosan tizaman:

1960, “Xamsa” 18- bet:

Kimni kul aylab bu samumi balo,
Dard-u balo ko‘zgusi topib jalo.

1991, 7-jild, 18-bet:

Kimni kul aylab bu samumi balo,
Dard-u balo ko‘zgusi topib jalo.

Lug‘atda: jalo-vatanni tashlab ketmoq ma’nosidadir. Ikkinchi misrada ko‘zgu jilosi (ravshanligi, sayqalligi) ustida so‘z bormoqda.

Ilmiy-tanqidiy matn 6-bet:

Kimni kul aylab bu samumi balo,
Dard-u balo ko‘zgusi topib jilo.

Navbatdagi holatda “qurai” degan so‘zning izohi lugatlarda keltirilmagan. Yer (tuproq, xok) kura (sharsimon, yumaloq)shaklda ekanligi ma’lum .

“Xamsa” 1960, 18-betdan:

Ayladi sokin qurai xokni,
Soyir etib davrai aflokni.

1991, 7-jild, 18-betda:

Ayladi sokin qurai xokni,
Soyir etib davrai aflokni.

Ilmiy matnda “qura” so‘zi “kura” Kof bilan yozilgan.

Ilmiy matn, 1970, 6-bet:

Ayladi sokin kurai xokni,

Soyir etib davrai aflokni.

Yana hayratlisi har ikki nashrdagi navbatdagi baytda “kura” so‘zi qatnashgan edi...

Toki muhit o‘rnig‘a aflok erur,

Markazi oning kurai xok erur.

Keyingi misolimizdan quyidagi farqlar kuzatiladi. Bayt mazmuniga ko‘ra but (krest, xoch) tog‘ga osilgan. Holbuki, xoch bino toqiga osiladi yoki o‘rnatiladi: 1960, “Xamsa” 25-bet:

Kufr biyik tog‘ig‘a solib shikast,

Yerga bo‘lub past butu butparast.

Ilmiy matn, 1970, 18-bet:

Kufr biyik toqig‘a solib shikast ,

Yerga bo‘lub past butu butparast.

1991, 7-jild, 35-betda butni yana tog‘da ko‘ramiz:

Kufr biyik tog‘ig‘a solib shikast,

Yerga bo‘lub past butu butparast.

Men vazifamga ko‘ra “Hayrat ul-abror” dostonini ilmiy matnga qiyoslashni nihoyasiga yetkazdim. “Tarmoq” bu tarmoq emas. Bular: torti, torib, toribon shakllarida qo‘llangan va har bir bunday so‘z ishtiroki bayt mazmuniga ta‘sir o‘tkazgan:

Torti yog‘in rishtasi chun bahri sof,

Yel iligin qilding anga hullabof. (6-jild, To‘la asarlar to‘plami, 2011, 15- bet)

Ul toribon ravzani etsa farog‘ ,

Do‘zax aro bo‘lsa muncha dard-u dog‘. (6-jild, 25-bet)

Quyidagi ba‘zi so‘zlarning izohi lug‘atlarda ham berilmagan.

Rarron:

Nomalar el o‘llig‘a rarron bo‘lub ,

Ko‘rmagidin el yuragi qon bo‘lub. (6-jild, 21-bet)

Sirqorib:

Har nafas aylab to‘la ul jomni,

Sirqorib ul bodayi gulfomni. (6-jild, 53-bet)

Chopae, toribon, xopae:

Qolmadi chun o‘zga manga chopae,

Qal‘a yasardek toribon xopae. (6-jild, 55-bet)

Rechon:

Sunbuli rechon bo‘lib af‘i misol,

G‘uncha aning nishidin ozurda hol. (6-jild, 67-bet)

Raxta:

Jomg‘a xud men qo‘ya olmon og‘iz,

Raxta bila og‘zima oni tomiz. (6-jild, 76-bet)

Rashsha:

Rashshadek ul duddin itti malak,

Charxda fonusdek o‘ldi falak. (6-jild, 165-bet)

Rechu:

Tuz chekilur borgah uzra tanob,

Ko‘rki, erur boshdin-ayoq rechu tob. (6-jild, 180-bet)

Rand:

Rand eshitmas endi durrohi mast,

Kizbdin etmas edi afg‘onni past. (6-jild, 184-bet)

Men “To‘la asrlar to‘plami” 6-jildi matnini 2006, 2009-yillarda nashr etilgan “Hayrat ul-abror” bilan qiyoslab chiqdim. Nashrlarda texnik xatolar ham uchraydi kompyuter “p” harfini “r” harfiga aylantirgan. Natijada Navoiyning ijodiy maqsadiga putur yetgan:

Xalq ko‘r-u yo‘q biri yori aning,

Ko‘zdan uchub shahr-u diyori aning. (6-jild, 188-bet)

Kim yuzin ayblab qaro g'amnok erur, (ilmiy matnda aylab)
Shaqqi emaskim, yaqosi chok erur.

Anda yetib gum bo'libon o'trusi, (ilmiy matnda kim)
Har necha ko'z solsa, baqo ko'zgusi.

Tortsa yur qarn xirat xozini, (ilmiy matnda yuz)
Chekmagay oning ko'pidin ozini.

Ka'ba o'yidin bir ochiq bob anga, (ilmiy matnda uyidin)
Sajda chog'I hay'ati mehrob anga.

Roviyai hashmig'a har zotdin, (Ilmiy matnda jisimg'a)
Ruh yoqib sham' bu mishkotdin.

Ilmiy-tanqidiy matnga qiyoslanganda nashrlarda ko'plab xatolar kuzatildi.

Yuqorida keltirilgan misollar, ustoz asarlarini qunt bilan o'rganish natijasida Porso Shamsiyevning matnshunoslik maktabi o'quvchisi sifatida tajriba orttirmoqdaman. Mumtoz adabiyotni o'rganishda lug'atlarga suyanamiz. Hozirga qadar Alisher Navoiy asalari uchun turli lug'atlar yaratilgan. Ammo har bir dostonni o'rganish uchun alohida lug'atlar yaratilmagan. Bu matnshunoslar oldidagi bajarilishi lozim bo'lgan muhim vazifalardan biridir. Mumtoz adabiyot ulkan xazina. Undan baxramand bo'lish sirlarini P.Shamsiyev, A.Hayitmetov, I.Haqqulov, N.Komilov, V.Rahmonov kabi ustozlardan o'rganamiz. Mumtoz asarlarni asliyatiga muvofiqligini ko'zdan kechirish nafaqat matnshunoslarning vazifasi, balki targ'ibotchisi hamdir. Zero, har bir inson so'z zavqi va tarovatini faqat o'z ona tili orqali anglagay.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy "Mukammal asarlar to'plami" 7-tom, Toshkent, 1991
2. Alisher Navoiy "Xamsa" 6-tom, Toshkent, 1965
3. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" Toshkent, 1989
4. Alisher Navoiy "Xamsa", "Hayrat ul-abror" ilmiy-tanqidiy matn, Toshkent, 1970
5. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" Toshkent, 2020
6. E.Rahmonov, V.Rahmonov "Mumtoz asarlar lug'ati" Toshkent, 2019
7. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik. 1-tom. –Toshkent: Fan, 1983
8. Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob.–Toshkent: Movarounnahr, 1996.
9. Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob.–Toshkent: Movarounnahr, 1999.
10. Navoiy asarlari lug'ati. –Toshkent: O'zbekistin, 1972.
11. Ochilov E. Alisher Navoiy. Hikmatlar. –Toshkent: O'zbekiston, 2010.
12. Qayumov A. Alisher Navoiy. –Toshkent: Akademnashr, 1991.
13. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. –Toshkent: Akademnashr, 2011.
14. Alisher Navoiy "Xamsa" Toshkent, 1960

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Umida Yuldosheva
Guliston davlat universiteti
“Adabiyotshunoslik” yo‘nalishi magistranti

FIKRLAR TASVIRI*

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-2-101>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Rauf Parfi she‘riyatiga haqida adabiyotshunos olim Begali Qosimovning fikrlari yoritib berilgan. Professor Begali Qosimov Rauf Parfi she‘riyatiga “Fikrlar tasviri” nomli maqolasida yuqori baho beradi va bu bahoni she‘riy parchalar izohi orqali isbotlab bergan. Maqola faqat Begali Qosimovning fikrlari bilan chegaralanib qolmaydi, Rauf Parfi shaxsi va ijodi haqidagi boshqa adabiyotshunoslarning ham fikrlari keltirib o‘tilgan. Olimlarning fikrlari shoir she‘rlari tahlili orqali izohlangan.

Kalit so‘zlar: shoir, she‘riyat, tasvir, e‘tiqod, modernizm, falsafiy ruh.

Умида Юлдошева,
имеет степень магистра литературоведения
Гулистанского государственного университета

ОПИСАНИЕ МЫСЛЕЙ*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются взгляды литературоведа Бегали Касимова на поэзию Рауфа Парфи. Профессор Бегали Касимов хвалит поэзию Рауфа Парфи в своей статье «Описание мыслей» и доказывает эту ценность комментариями к поэтическим отрывкам. Статья не ограничивается взглядами Бегали Касимова, но также включает взгляды других литературных деятелей на личность и творчество Рауфа Парфи. Мнения ученых интерпретируются через анализ стихов поэта.

Ключевые слова: поэт, поэзия, образ, вера, модернизм, философский дух.

Umida Yuldosheva
has a master’s degree in “Literary Studies”
from Gulistan State University

DESCRIPTION OF THOUGHTS *

ANNOTATION

This article discusses the views of literary scholar Begali Kasimov on the poetry of Rauf Parfi. Professor Begali Kasimov praises Rauf Parfi's poetry in his article "Description of Thoughts" and proves this value through the commentary of poetic passages. The article is not limited to Begali Kasimov's views, but also includes the views of other literary figures on the personality and

work of Rauf Parfi. The opinions of scholars are interpreted through the analysis of the poet's poems.

Keywords: poet, poetry, image, faith, modernism, philosophical spirit.

“Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”, - deya e’tirof etadi mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Abdulhamid Cho’lpon “Adabiyot nadur ?” maqolasida : “Adabiyot yashasa - millat yashar. Adabiyoti o’lmag’an va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishmag’on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o’ydin , fikrdan mahrum qolub , sekin-sekin inqiroz bo’lur. Muni inkor qilib bo’lmas. Inkor qilgan millat o’zini inqirozda ekanun bildirur”,- deb aytib o’tgan edi. Yurtboshimizning fikrlari ham ayni shu fikrning mantiqiy davomi, isbotidir. Negaki, adabiyotda xalq yashaydi. Har bir xalqning dunyoqarashi, urf – odatlari, o’zligi aynan o’z adabiyotida akslanadi.

Badiiy adabiyotning shakllanishi va rivojlanishi uchun nafaqat qalami o’tkir ijodkor, balki mohir adabiyotshunos va yaxshi kitobxon ham zarurdir. Ijodkor tomonidan yaratilgan badiiy asar adabiyotshunos olim va kitobxon tomonidan to’g’ri tahlil qilinishi muhim ahamiyatga ega.

Demak, badiiy adabiyotning rivojlanishini quyidagi omillarga bo’g’lashimiz mumkin:



Ma’lumki, badiiy adabiyotni – badiiy asarni ijodkor yaratadi. Adabiyotshunos olim uni ilmiy jihatdan o’rganadi, tahlil va talqin qiladi. Kitobxon esa asarni yashashiga vosita, sabab bo’ladi. O’z kitobxoniga ega bo’lmagan badiiy asar yoki adabiyot “tirik” hisoblanmaydi. Demak, badiiy adabiyot uchun bu uch omil bir- birini to’ldiruvchi, bir-birini taqazo etuvchi jihatlar hisoblanadi.

Adabiyotimiz rivojiga o’zining ulkan hissasini qo’shgan adabiyotshunos olimlarimizdan biri Begali Qosimov edi. U o’zining butun ilmiy va ijodiy faoliyatini adabiyot va adabiyot ijodkorlari, adabiyotshunos olimlar faoliyatini o’rganishga bag’ishladi. U 300dan ortiq ilmiy-tanqidiy , adabiy-tadqiqiy maqolalar, o’ttizga yaqin kitoblar muallifidir. Olimning adabiyot ilmiga qo’shgan hissasi beqiyosdir.

Adabiyotshunos olim Begali Qosimov 1942-yil 19-dekabrda Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumani Allot qishlog’ida tug’ilgan. 1958-yilda Toshkent davlat universitetiga o’qishga kiradi. 1963-66 –yillarda aspiranturada o’qiydi. 1966-yilda “Mirmuhsin Shermuhamedov (Fikriy) va uning adabiy muhiti” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.1984-yilda “XX asr boshi o’zbek poeziyasi (inqilobiy she’riyatning shakllanishi va taraqqiyoti masalalari, (1905-1917)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. 1980- yilda O’zbekiston yozuvchilar uyushmasiga a’zolikka qabul qilindi. 1993-yilda Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro mukofot sovrindori. 1995-yilda esa O’zbekiston Respublikasi faxriy yorlig’i bilan mukofotlangan. 1999- yilda “O’zbekiston Respublikasi fan arbobi” faxriy unvoniga sazovor bo’lgan.

Yuksak ilm va kamolot sohibi Begali Qosimov 2004- yilda vafot etgan.

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Umurzoq O’ljaboyev Begali Qosimov haqida shunday samimiy fikrlar bildirgan:

“U ilhom kelishini kutib, uni axtarib o‘tirmasdi. Ilhomning o‘zi hamisha Begali Qosimov bilan birga bo‘lardi. Bunday kayfiyat Begalining vujudida mavjud bo‘lgan ishchanlikning, yillar davomida shakllanib brogan ichki mehnat intizomini bag‘rida, doim ular bilan birga yashardi”.

Begali Qosimov “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma‘rifat, fidoyilik”, “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalar tarixi”, “Uyg‘ongan millat ma‘rifati”, “Maslakdoshlar (Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Fitrat)”, “Ibrat. Ajziy. So‘fizoda”, “Vatan va Millat muqaddasdir” kitoblarining muallifidir. Shuningdek Begali Qosimov Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Siddiqiy-ajziy “Tanlangan asarlar”ining to‘plovchisi hamdir. Uning ilmiy izlanishlarining katta qismini milliy uyg‘onish davri adabiyoti tashkil etsada, olim zamonaviy adabiyot sohasida ham, matnshunoslik sohasida ham samarali faoliyat olib brogan.

Zamonaviy adabiyot sohasidagi faoliyatini ikkita katta guruhga ajratish mumkin:

- 1) Begali Qosimovning zamonaviy adabiyotshunoslar haqidagi qarashlari;
- 2) Begali Qosimovning zamonaviy adabiyot ijodkorlari haqidagi qarashlari.

Begali Qosimov zamonaviy davr ijodkorlari haqidagi qarashlari Abdulla Oripovga bag‘ishlangan “Abdulla Oripovning ijod maktabi”, Rauf Parfi – “Fikrlar tasviri”, Muhammad Ali – “Ijodkor”, “Ulug‘ saltanat sirlari” maqolalarida aks etgan. Begali Qosimov ko‘plab adabiyotshunos olimlar ijodiy faoliyati bilan ham yaqindan tanish edi. “Cho‘lpon haqida roman” – Naim Karimov, “Tafakkur karvonlari”, “Asllik” – Najmiddin Komilov, “Umrning mazmuni” – G‘ulom Karimov, “Adolat manfaati” – Ozod Sharafiddinov, “Ma‘rifatli xonadon farzandi” – Laziz Qayumov, “Akram Kattabekov haqida so‘z” – Akram Kattabekov, “Muallimlik ilm o‘rgatmakdir” – Qozoqboy Yo‘ldoshev, “Muallim” – Hasanxo‘ja Muhammadxo‘jayev, “Suhbati dilkash olim” – Sharif Yusupov kabi adabiyotshunoslarning ilmiy faoliyatiga bag‘ishlangan maqolalaridir.

Begali Qosimovning faoliyati boshqa adabiyotshunos olimlar tomonidan ham samimiy e‘tirof etilgan:

“Jumladan, Begali Qosimov anchayin murakkab fenomen hisoblanadi. Ushbu fenomen mohiyatini adabiyotshunos Begali Qosimov amalga oshirgan ishlar salmog‘i , ko‘lami belgilamaydi, balki fenomen mohiyati aynan fenomenida aks etadi. Ya‘ni salmoq va ko‘lam fenomenning o‘zi emas, fenomen faoliyat chizig‘idagi bir iz, butundan xabar beruvchi qismdir”,- deya ta‘rif bergan edi olimning shogirdlaridan biri adabiyotshunos Uzoq Jo‘raqulov.

Begali Qosimovning Rauf Parfi haqidagi maqolasini “Fikrlar tasviri” deb nomlanib, unda Rauf Parfining she‘rlaridagi g‘o‘zallik, inja tuyg‘ular yoritib berilgan. Rauf Parfining she‘rlari o‘z yo‘nalishiga, o‘z ohangiga ega bo‘lgan alohida bir she‘riyat edi. U kitobxonga orom berish o‘rniga, fikrlashga undaydi. Shoirning she‘riyatida fikrlar o‘zgacha, hammanikidan alohida bo‘lib tasvirlanadi. Uning she‘rlarida falsafiy ruh yetakchilik qilardi. Rauf Parfi she‘riyati modernizm ruhiga mos edi.

“Uning ijodida mushtaraklik, zuhurida injalik, injiqlik, nozik qochirim, hozirjavoblik, haqiqatni hazilga o‘rab yetkazish xislatlari mujassam edi.

Rauf Parfi ijodi birgina o‘zbek badiiy adabiyotida emas, balki turkiy xalqlar badiiy adabiyotida alohida ijtimoiy hodisa, istibdodga isyon, turkiy xalqlar ozodligi uchun kurashga yo‘g‘rilgan adabiy jarayon va qolaversa, o‘zbek she‘riyatining yuksalishiga hissa qo‘shgan bir maktab sifatida o‘rganilsa va tadqiq qilinsa arziydi” - deya e‘tirof etadi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi Nurulloh Oston.

Rauf Parfi asli ismi Tursunali Parfiyev 1943-yil 27-sentyabrda Toshkent viloyatining Sho‘ralisoy qishlog‘ida tug‘ilgan. ToshDUning filologiya fakultetini tugatgan. Dastlabki she‘rlar to‘plami - “Karvon yo‘li”. “Aks-sado”, “Tasvir”, “Xotirota”, “Ko‘zlar”, “Qaytish”, “Sabr daraxti”, “Sukunat”, “Tavba”, “So‘nggi vido” kabi she‘riy to‘plamlari nashr etilgan. Bayronning “Manfred”, Nozim Hikmatning “Inson manzaralari”, Karlo Kaladzening “Dengiz xayoli” kabi asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoniga sazovor bo‘lgan. Rauf Parfi 2005 - yilda Toshkent shahrida vafot etgan.

“U she‘r yozmasa turolmaydigan shoirlardan. Bu, fazilat, albatta. U to‘rt she‘riy to‘plam muallifi. “Manfred” va “Inson manzaralari”ning, Karlo Kaladze she‘rlarining tarjimoni. O‘n besh yil badalidagi bu mahsulot ko‘p emas, lekin u Raufning shoir bo‘lib taniluviga uchun u qadar kamlik ham

qilmaydi”, - deb yozadi o‘z maqolasida Begali Qosimov. Ushbu maqola 1970- yilda yozilgan bo‘lib, bu vaqtgacha Rauf Parfi yaxshigina shoir sifatida tanilib ulgurgan edi. Uning she‘rlarini o‘qir ekansiz, yurakdan chiqib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qog‘ozga to‘kilgan misralarni ko‘rasiz.

“Oy suzadi muzlagan kecha

Qor ufurar.

Tumanlarda bir yulduz muncha

G‘amgin turar.

G‘uj-g‘uj yulduz...”

Mana sovuq, zerikarli qish kechasi. Osmonda oy, yerlar qor, havo tuman va zo‘rg‘a miltirayotgan yulduzlar. Endi unga shoir nigohi bilan qarang. Haqiqiy shoir har qanday manzaradan obraz yarata oladi. Bunda asosiy e‘tibor g‘amgin turgan yulduzga qaratilyapti. Boshqa yulduzlar, oy, tuman holatni tasvirlash uchun vosita bo‘lyapti. Shoir nigohi shu manzaradan ham go‘zallik topa oladi. Bu go‘zallikni o‘quvchiga ham ulashadi. Uning o‘tkir mantig‘i o‘quvchini ham bu go‘zallikka osho qiladi. “Belinskiy “Poeziya shoirning butun dunyoni o‘z e‘tiqodining haqqoniyligiga ishontirmoq...” deb shuni aytmaganmidi?!”.

“Rauf Parfi she‘riyatimizga 60–yillarda kirib kelgan. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Ali, Jamol Kamol nomlari bilan xarakterlangan avlodning vakili. Yuksak grajdanlik ehtirosi, shiddatkor asr ruhini yetkazish yo‘lidagi ijodiy izlanishlar, jahon she‘riyatining eng yaxshi an‘analaridan bahramand bo‘lish uning uchun ham xosdir.

Darhaqiqat, grajdanlik shoir she‘riyatining yetakchi xususiyatlaridan biridir. Darvoqe, ba‘zi munaqqidlarimiz, aksincha, unda grajdanlik hissining yetishmasligini aytadilar. Bu to‘g‘ri emas, albatta. Gap shundaki, grajdanlik unda o‘zgacha bir tusda namoyon bo‘ladi. Yashamoq bu – “shunchaki daraxtday o‘smoq”, “daryoday darbadar oqmoq” emas, orzularda, qayg‘ularda, sevinchlarda yashamoqdir. Belinskiy aytmoqchi, his etmoq va fikrlamoq, iztirob chekmoq va rohat qilmoqdir. Shoirimiz uchun hayotning mazmuni shunday. Bu hol uning she‘rlarida aks etgan”. Bu haqda adabiyotshunos Olim Oltinbek quyidagi fikrlarni bildirgan:

“U “She‘riyat” nomli verlibrida:

“So‘zlar kerak Bosh Harblarda yaralangan,
Bosh harflardan yaralgan So‘zlar”, — deydi.

Bu bilan shoir adabiyotning bosh vazifasiga urg‘u beradi. Bosh harflardan yaralgan so‘zlar, bu – ERK, INSON, IYMON, VATAN, MILLAT, HAQIQAT... Va, aynan, shu tushunchalar yo‘lidagi kurash – “Bosh Harblar”dir. Rauf Parfi nazdida adabiyot mana shunday katta harflardan yaralgan tushunchalar yo‘lidagi kurashlarga yarashi kerak. Agar shunday bo‘lmasa, bunday “ovoz” kerak emas, bunday “kelbat” ham:

Shunday bo‘lmasa agar,
Nega kerak bu kelbat, bu ovoz?!
Shunchaki daraxtday o‘smoqmi,
Shunchaki daryoday oqmoqmi
darbadar?!

Rauf Parfi ijodga mana shunday mas‘uliyat bilan yondashadi. Uning uchun adabiyot ko‘ngilxushlik emas, shuningdek, ijodkor ham shunchaki darbadar – bemaqsad chopadigan “daryo” emas...”.

“Goh qo‘shiqday sodda, ohangdor, goh bir qarashda notekis tuyulgan notanish timsol va tafsillar bilan to‘lib toshgan shoir she‘rlari muallifning “orzulari, qayg‘ulari, sevinchlari” haqida keraklicha so‘zlab bera oladi”.

Mana o‘sha “orzulari, qayg‘ulari, sevinchlari” haqida so‘zlab beradigan satrlar. Bir qarashda sodda, o‘qilishi ravon ushbu she‘rda muallif o‘zining ko‘ngil olamini tasvirlagandir ehtimol. Bahor fasli tasviri. Tabiatda ajib bir go‘zallik hukmron.

“Daryo mavjlariga yozilmish g‘azal,
Maysalar egilib o‘qiydir kitob.
Shodlanib xandalar otar bir lahza”

Birdan kayfiyat o‘zgaradi. Qarma-qarshilik sodir bo‘ladi. Shodlanib xandalar otayotgan oftob bir lahza oh tortib qo‘yadi:

“Bir lahza oh tortib qo‘yadir oftob”.

Betakror tabiat tasviri hazin misralarda jilvalanadi:

“Qamishlar shivirlar daryo tomonda,
Ko‘kda oq bulutlar kezar bemajol.
Bir tirik nafas borliq, jahonda,
Kimgadir elanar, qilar iltijo”.

Bulutning bemajol kezishi, borliqdagi nafasning kimgadir iltijo qilishi o‘quvchini sergak torttiradi. Bunga sabab nima? Har kim o‘zicha javob qidiradi, javob topadi.

Mana yana bir-biriga qarama – qarshi satrlar:

“Bu qadar go‘zallik qaysi ochunda,
Bu qaysi kitobdir, kimning daftari,
Kimning olamidir qilich uchinda?”

Dunyodagi beqiyos go‘zallik, ammo qilich uchida, joni hatarda. Dunyodagi tengsiz go‘zallik haqida gapirilganda, ruhda ko‘tarinkilik paydo bo‘lsa, bu go‘zallikning qilich uchidaligi haqidagi xabar ko‘ngilga g‘ashlik oralatadi.

“Qaltirab porlaydir bir chiroq g‘arib,
Bir qushcha sayraydir ruhim ichinda,
Bir qushcha yig‘laydir meni axtarib”

Bu qushcha balki shoirning “men”dir. Uning o‘zligidir ehtimol. Rauf Parfi ijodidagi qush obrazini tadrijiy kuzatgan Olim Oltinbek uni shoir qalbidagi “shoirlik” deya xulosa qiladi.

Pedagogika fanlari doktori Qozoqboy Yo‘ldoshev : “Rauf Parfi she‘rlarining o‘ziga xosligi shaxsiyatining betakrorligi natijasi edi. Shoirning bitganlarini maza qilib o‘qib bo‘lmasdi. Ular bilan tanishish chinakam mehnat edi va shu zahmat asnosida anglab yetilgan fikr yoki tuyilgan tuyg‘u o‘qirmanga aslo unutilmaydigan bo‘lib o‘rnashib qolardi...”, deb bildirgan fikri ham hozirgi qarashlarimizning isbotidir.

“Rauf she‘rlari haqida so‘z ketganda, uning o‘ziga xosligini ko‘p gapiradilar. Darhaqiqat, undagi fikr va ifoda o‘zgacharoq shaklda namoyon bo‘ladi. Shoir oz so‘z bilan ko‘p fikr anglatishga urinadi. Bu hol so‘zning barcha ma‘no va imkoniyatlarini ishga solishni talab qiladi. Natijada biz odatlangan grammatik qurilishlar buziladi, bizga notanish tamsil va tafsillar paydo bo‘ladi. Bu yerda assotsiatsiya, biror so‘z yoki holatning bamisoli zanjirli reaksiya singari, tuyg‘u yoxud fikrlar silsilasini yechib yuborishiga alohida ahamiyat beriladi. Shu jihatlar xayolga keltirilsa:

“Og‘ushimda zangori sezgi
Kiprigimda suyuq hayajon.
Ko‘zlarimda yumaloq sevgi
Salomatman men ham onajon -”

satrlaridagi sifatlar erish tuyulmaydi. Shoir “otashin muzlarda isin”ishga, “yong‘inli daryoda quloch ot”ishga taklif qilsa ajablanmaymiz. Bu usul shoirga fikrni siqiq, ta’sirchan yetkazishga yordam bergan”. Shoir “Narsa va hodisalardan go‘zallik qidiradi, u buni topadi. Endi u buning bayoni uchun go‘zal ifoda qidiradi, buni ham topadi” . Rauf Parfi she‘rlarida holat tasviri bilan birga fikr tasviri ham keltiriladi. Uning she‘rlarida ko‘p keltiriladigan qarama-qarshi holatlar, holatni xayolga kelmaydigan so‘zlar vositasida ifodalash, o‘quvchini fikrlashga majbur qiladi.

“Og‘ushimda zangori sezgi”, – shoirning xotiralari,

“Kiprigimda suyuq hayajon”, – ko‘z yoshlari,

“Ko‘zlarimda yumaloq sevgi”, – ko‘zning qorachig‘ini ifodalamoqda. Buni tushunish uchun, albatta, fikrlashga majbur bo‘lamiz. Bu iztirob yoki xursandchilik yoshi emas, bu sog‘inch yoshlari. Buni keying satrdan bilib olamiz:

“Salomatman men ham onajon -”, – shoirning onasi bilan bog‘liq xotiralari ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi, qalb hayajonga to‘lib, beixtiyor kipriklariga yosh quyiladi, onasiga bo‘lgan muhabbati ko‘z qorachiqlarida jilvalanadi.

“Shoir ohangni nozik his qiladi. Uni manzaralarda, holatlarda berishga urinadi. Ohang, uningcha, bamisli inson, yorug‘ dunyo. Bu o‘rinda “Cho‘li Iroq” she‘ri xarakterli. Voqelik unda, V.G.Belinskiy aytgandek, ohanglarga, ularning sirli ma‘nolariga ishoraga o‘xshaydi”.

“Yerga tutash ufq jimillar,
 Qumloqlarda karvon imillar,
 Tuyalarda hazin qo‘ng‘iroq:
 Cho‘li Iroq, cho‘li Iroq –
 Buyuk Makka-Madina imlar.
 Poyoni yo‘q tumtaygan sahro
 Uzra xurmo o‘sadi tanho,
 Xurmo osti tip-tiniq buloq:
 Cho‘li Iroq, cho‘li Iroq –
 Yurak chappak chaladi chanqoq.
 Oh, behuda sevinar karvon,
 Odam uchun eng shirin armon –
 O‘sha buloq, qurigan biroq,
 Cho‘li Iroq, cho‘li Iroq,

Yo‘li yiroq, ko‘p yomon...”, – mana shoir ushbu she‘ri bilan “Choli Iroq” kuyiga tasvir chizib berdi. Iroq cho‘lida Makka-Madinaga yo‘l olgan karvon. Ammo bu bir tomonlamma qarash. Ya‘ni shoir bu she‘r orqali faqat olis yo‘lga otlangan karvonni tasvirlamoqchi emas. U odamzodning “eng shirin armon”ini tasvirlamoqchi. Axir kuyda ham armonli ohang zohir bo‘lgan-ku. Shoir mahoratini qarang, kuy ohangiga tasvir chizdi va bu tasvirga “armon”ni joyladi. She‘rni bir o‘qidingizmi, kuyni tinglaganingizda har safar shu tasvir ko‘z ongingizda jonlanaveradi.

“Shoir so‘zlar takroridan, o‘rnini almashtirishdan unumli foydalanadi:

Bir dunyo qoldirding dunyoga, lekin
 Bir dunyo ketdi–ku sen bilan birga.
 (“Habib Abdulla xotirasi”)
 Tomchilar tomchilar sochimga
 (“Yomg‘ir yog‘ar”).

Yuqoridagi fikrni asoslashga urunib ko‘ramiz:

“Shirin uxlar tong chog‘i go‘dak,
 Uxlar go‘dak yo tong ko‘ksida.
 Yoki go‘dak quchog‘ida tong

Uxlar shirin va osuda”, – shoir ushbu she‘rida “uxlar”, “tong”, “go‘dak”, “shirin” so‘zlaridan takror-takror foydalanadi. Birgina go‘dakning uxlashidan nafis tasvir chizadi. She‘rda faqat takror emas, fikr qarama-qarshiligi ham bor, ya‘ni go‘dak tong ko‘ksida shirin uxlayaptimi, yoki tong go‘dak quchog‘ida osuda dam olyaptimi degan masalani o‘quvchiga havola etadi.

“Rauf she‘rlarida davrning shiddat va ruhini teran his qilish bor. U o‘zi aytmqchi, qalbini asrining tomiriga ulaydi. Mana, bir she‘r. U “Kibernetika” degan so‘z-satr bilan boshlanadi. Kibernetika asrimizning bosh belgilaridan. Gap she‘rga birgina so‘zning shunchaki kiritilishida emas. Shoir ayni tushuncha bilan bog‘liq holda tug‘ilgan psixologiyani chuqur anglaydi”. Shoir she‘rlarida psixologiya yetakchilik qiladi. Uning she‘rlarini mazza qilib dam olish uchun o‘qub bo‘lmaydi. Rauf Parfi she‘rlari insonni o‘ylashga, fikrlashga majbur qiladi.

“Rauf Parfi zamondoshlarining bugungi ruhiy olamini, orzu–armonini ifodalashda tinimsiz izlanayotgan, yangi–yangi shakl va usullarni sinab ko‘rib, ma‘lum yutuqlarni qo‘lga kiritayotgan shoir. Bugungi kunda sarbast vazn yoshlar poeziyasida tobora ko‘proq o‘rin olib borayotgan ekan, bunda Raufning ham hissasi bor”, – deya ta‘kidlab o‘tadi Begali Qosimov.

Rauf Parfi ijodida sonetlari ham yetakchi o‘rinni egallaydi.

“Rauf Parfi sonetlarida lirik qahramon dard va iztirob kuychisi sifatida maydonga chiqadi. U hech qachon quruq maddohlik va tilyog‘lamalik qilmaydi. Qalb kechinmalarining tug‘yonli daqiqalarini mahorat bilan namoyish qiladi. Va bu jarayonda raufona qo‘llanishlardan, original qahramonlar galeriyasidan foydalanadi. Badiiy adabiyotning, xususan, poeziyaning obrazlilik tendensiyasi R. Parfi she‘riyati uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki shoir qo‘llagan timsollar o‘zining betakrorligi, originalligi va modern ifodasi bilan she‘rxonda o‘zgacha taassurot qoldiradi”

“Daftardan bir varaq boqadi kulib,
 Bevafo keldingmi yana bu fursat.
 Soat ham urinar qahrga to‘lib,
 Yo‘qsan-ku, ne uchun kelding, ey surat?
 Qattiqroq urpnar yanada soat,
 Yanada buruqsab yonmoqda chiroq.
 Tun qushi o‘kirib qilar ibodat,
 Derazam ortidan egilib shu choq.
 Qorayib yonarsen zulmat yo‘linda,
 Yuragimda yonib bitgan sevgilim.
 O‘chgan xotiralar o‘ngu so‘limda.
 Daftardan rasmingni olganman yulib,
 Suratsiz shu varaq mening qo‘limda,
 Suratsiz varaqda sen borsan, gulim”

“Rauf Parfi bag‘ri keng, hazilkash yigit bo‘lib, har doim ham suhbatiga kulib, tabassum bilan muomala qilardi. Rauf qalamiga mansub she‘rlarning ko‘pi ijodkorlar taqdiriga bag‘ishlangan. Chunki uning nazarida “Faqat shoir haqli baxtsiz bo‘lmoqqa...” Rauf Parfi ham o‘z baxtidan kechib xalqining baxtli xotirasidan hech qachon o‘chmaydi”,- deya xotirlaydi filologiya fanlari doktori Yo‘ldosh Solijonov.

Xalqning xotirasidan o‘chmaydigan inson bo‘lish - bu ulug‘ sharafdir. Rauf Parfi ana shunday sharafga loyiq edi. U kitobxonlar qalbida sevimli shoir bo‘lib yashashda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov B. Adabiy-tarixiy jarayon (3-jild). – T. – 2017.
2. To‘ychiyev U. Adabiy tur va janrlar. – T.: Fan , 1992.
3. Fayzullayeva O. Hozirgi o‘zbek she‘riyatida sonnet (monografiya). - T.: Turon zamin ziyo .– 2014.
4. Parfi R.Sakina (saylanma). T.: Muharrir – 2013.
5. Parfi R. Karvon yo‘li. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. – 1969.
6. Parfi R. She‘rlar. T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. – 2016.
7. Parfi R. Qutlug‘ Turkiston. T. – 1991.
8. Parfi R. Aks sado. T. – 1970.
9. www.ziyouz.com kutubxonasi.
10. www.kh-davron.uz.

**СЎЗ САНЪАТИ
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ**

4 ЖИЛД, 2 СОН

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ИСКУССТВО СЛОВА**

ТОМ 4, НОМЕР 2

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF WORD ART**

VOLUME 4, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000